

Kitobga iqtidorli shoir Eshqobil Shukurning turli yillarda bitilgan she'rlaridan namunalar kiritildi. She'rlarda insonning ruhan ozodligi, kalb kechimmalari badiiy talqin etiladi.

Shoirning she'rlari majoziy sifatlari, xalkning qadimiyo ohanglarini o'ziga singdirgani bilan ayricha go'zal bir manzara hosil kiladi. So'fiyona naqlar fikrlar taloshida suvratlanadiki, bu hol nazm hamisha ilohiyotdan suv ichajagiga botinda yana bir karra ishonch uyg'otadi.

### Hayotga Qasida

...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 Qara, qanday moviy shamol yollari,  
 Qanday shirin uxlар momaqaldiroq.  
 Muzliklar kulgusi qanday otashin,  
 Qanday so'zanalar to'qiydi chakmoq.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 Qayg'u chimildig'in gullatar sevinch,  
 Kuldan unib chiqar gulkapalaklar.  
 Shoyi shafaqlarga o'ranar yurak,  
 Oyning nikoh to'yin boshlar malaklar.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 Tingla, qanday ohang bastalar bo'shliq,  
 Va qanday tabassum qiladi zulmat.  
 Xazon rutubati qoraytirgan yer  
 Yuziga maysadan tortadi chimmat.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 Barini, barini ko'zlariningda jamla,  
 Sen bu tiriklikni tingla va angla.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 Sen suvni tinglab ko'r, anglab ko'r suvni  
 Gunglarning tilida muzlagan ovoz,  
 Ko'rlarning ko'ziga ko'milgan ranglar  
 Suvning rangi bilan tovushiga mos.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 Daraxtlarni tingla va angla,  
 Bir aytgan qo'shirin takror aytmalar  
 Yam-yashil ohanglar, yam-yashil so'zlar  
 Moviy cheksizlikda yashil raqs tuzar...  
 Ammo... men shu lahma umrida ko'rdim:  
 Shiftidan dard tomgan kasalxonada  
 Armonday tizilib turar daraxtlar,  
 Shifokor qabulin kutardi ular...  
 Shiftiga jon tirmashgan kasalxonaning  
 Oppoq xalat kiygan xonalarida  
 Osma ukollarning ostida yotgan  
 Daryolarni ko'rdim... sariq daryolar...  
 Kuchli isitmadan qaynab borayotgan  
 Ko'zlar kirtaygan, oriq daryolar...  
 Barini, barini ko'zlariningda jamla,  
 Sen bu tiriklikni tingla va angla  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...  
 To'rt unsur go'zali parivash olov  
 Qaylarga ketmokda havoni kechib?..  
 Tabassum tovushin, yig'i ziyyosin  
 Suyak qadahlarda may kabi ichib.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't laxzani...  
 Qara, qanday moviy shamol yollari  
 Qanday shirin uxlар momaqaldiroq.  
 Muzliklar kulgusi qanday otashin,  
 Qanday so'zanalar to'qiydi chaqmoq.  
 ...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...

### Chanqovuz

Tilim tiyildi mening, so'zim qiyildi mening,  
 Po'lat til topib oldim, havo so'z topib oldim.  
 Chanqovuz chanqab koldi  
 Ko'z yoshga chayqab oldim.

Chanqagan og'zim mening, charnagan\* o'zim mening,

Kalbning yorug' qa'ridan sinmas til topib oldim.  
 Chanqovuz chanqab qoldi  
 Dardimga chayqab oldim.  
 Korachaqmok cho'qilab bag'rim o'yildi mening,  
 Tilim tiyildi mening, so'zim qiyildi mening.  
 Po'lat til topib oldim, havo so'z topib oldim.  
 Chanqovuz chanqab koldi  
 Olovga chayqab oldim.  
 1986

\* \* \*

Ko'nglimni toshga yordim,  
 Toshlar sindi-ya chil-chil.  
 Suv ichgali ko'zimga  
 Kushlar qo'ndi-ya bir-bir.  
 Tushimni suvga aytdim,  
 Suvlar yondi-ya lov-lov.  
 Cho'g' tergali tilimga  
 Kishlar qo'ndi-ya birrov.  
 Dardni yomg'irga aytdim,  
 Yomg'ir tindi-ya sim-sim.  
 Gul tergali kaftimga  
 Kizlar qo'ndi-ya lim-lim.  
 Ishqimni oyga aytdim,  
 Oylar to'ldi-ya gul gul.  
 Kuy ichgali ko'nglimga  
 So'zlar qo'ndi-ya bir-bir.  
 1983

## Sholi Qo'riqchisi

Chumchuq, chumchuq, sho'rtumshuq,  
 Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!  
 Tumshug'ingni toshga tut,  
 Hoyyo-xuyt! Hoyyo-huyt!  
 Sholipoya ko'llagan  
 Osmonlar cho'kib yotar,  
 Tillarang baliqchalar  
 Yulduzga bo'kib yotar.  
 Hoyyo-xuyt! Hoyyo-huyt!  
 Shamolga zabon berib,  
 Sholipoya chayqalar...  
 Suvning ohangin terib  
 Kuylab ketar baqalar.  
 Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!  
 Keng uyning bekachiday  
 Boshda tutlar qappaygan,  
 Tuyaning o'rkachiday  
 Chetda chayla so'ppaygan.  
 Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!  
 Kun iplari uzilar  
 Nurdan ko'pchir qishloqlar,  
 Qizlar kabi suzilar,  
 Bo'yga yetgan boshokdar.  
 Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!  
 1983

## Suyunchi

Yer kabi kuyoshdan aylanay,  
 Tunlarim oylarga belanur.  
 Bir ajab to'ylarga shaylanay,  
 Yuragim shodlikka uylanur.  
 Suyganlarim, suyunchi bering.

Aylanay, gullarning tilidan,  
 Ko'zlarimga ranglar to'lmoqda.  
 Yuragimning uzun yo'lidan  
 Shirin-shakar kunlar kelmokda.  
 Suyganlarim, suyunchi bering.  
 1984

## Eng Qadimgi Qo'shiq

Yulduzlar titrar, hayron,  
 Osmonning holiga voy.  
 Qora kengliqdan kechib,  
 Qiz ko'ksiga ko'ndi oy.  
 Qizning marmar tanida  
 Porillaydi ol durlar.  
 Ming tola sochga sho'ng'ib,  
 Chars-churs sinadi nurlar.  
 Vahm tush og'ushida  
 Chayqalib qo'yar ovul.  
 Ko'zlarini ishqalab  
 Uyg'onadi qorovul.  
 Qizning qoq ko'kragidan  
 Nur sharqirar misli soy.  
 Eriydi... Ado bo'lmas  
 Qiz ko'ksiga qo'ngan Oy.  
 Yulduzlar dor tashlaydi,  
 Qitiqlanar yuraklar.  
 Dunyoni sevib qolar  
 Shivrashgan teraklar.  
 Ovulning vujudiga  
 Oqadi oq yog'dular.  
 Yigit Oyga tashlanar,  
 Ko'lida olov xanjar.  
 Yulduzlar titrar, hayron,  
 Osmonning holiga voy  
 Qizning ko'ksida qoldi  
 Ikkiga bo'lingan Oy...  
 1983

\* \* \*

Jimgina ishona boshlaysiz menga,  
 Dard bilan suyana boshlaysiz menga.  
 Qaro ko'zingizda oppoq bir gunox,  
 Boshingiz ustida bo'layin panoh.  
 Baxtni asragayman o'zimdan, bir kun  
 Siz to'kar baxtdan zo'r ko'z yoshlar uchun.  
 Jimgina ishona boshlaysiz menga,  
 Dard bilan suyana boshlaysiz menga.  
 Mayin yomg'irlarga yoyib sochlarni,  
 Kutasis qaytajak qaldirg'ochlarni.  
 Siz ma'yus, iymanib yaqinlashar chog',  
 Yelkam yelka emas, yetnish ikki tog'.  
 Jimgina ishona boshlaysiz menga,  
 Dard bilan suyana boshlaysiz menga.  
 1982

## Sevgining Bir Kuni

Aylanar og'ir-og'ir,  
 Og'ir-og'ir falaklar.  
 Og'ir-og'ir silkinib,  
 Kuylaydilar teraklar.  
 Oy so'nar asta-asta,  
 Asta-asta yulduzlar.

Asta-asta tebranib,  
 Kirib kelar kunduzlar.  
 Uchadi yengil-engil,  
 Yengil-engil xayollar.  
 Yengil-engil sochingga  
 Sho'ng'iydilar shamollar.  
 Uylaysan yonib-yonib,  
 Yonib-yonib o'tar kun.  
 Yonib-yonib darichang  
 Sajdagohga kelar tun.  
 Tushlaring shirin-shirin,  
 Shirin-shirin meni bor.  
 Shirin-shirin ta'biri:  
 Uning menu seni bor.  
 Yashaysan baxtli-baxtli,  
 Dardli-dardli kutasan.  
 Dardli-dardli o'zingga  
 Shivilaysan: "Sevaman  
 1981  
 Ruhim

Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
 Men qushlarning tushlarida ko'rinay,  
 Men tushlarning qushlarida ko'rinay.  
 Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
 Men tillarning gullarida ko'rinay,  
 Men gullarning tillarida ko'rinay.  
 Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
 Men to'ylarning kuylarida ko'rinay,  
 Men kuylarning to'ylarida ko'rinay.  
 Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
 Men ko'zlarning so'zlarida ko'rinay,  
 Men so'zlarning ko'zlarida ko'rinay.  
 Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!

1983  
 \* \* \*

Tegrangda yer bo'lib aylanar zamon...  
 Yuraklar, tuyg'ular qolmishlar sabil.  
 Qaraysan, qaqqagan derazang tomon;  
 "O', yana o'shami... O'sha... Eshqobil".  
 Qirg'oqlar qaridi. O'chdi izlarim.  
 Samoviy changlarga aylandi ko'ngil.  
 Faqat eshigingni tirnar ko'zlarim:  
 "U, yana o'shami... O'sha... Eshqobil".  
 Ne-ne zamonalarni sanar daqika,  
 Hayotga ertaklar bo'lolmas kafil.  
 Faqatgina qoldi bitta haqiqat:  
 "O', yana o'shami... O'sha... Eshqobil".  
 Tegrangda Laylilar ovozalari,  
 Oydin qayg'ularga tutingan singil.  
 Qular yuragingning darbozalari:  
 "U, yana o'shami... O'sha... Eshqobil".  
 U yog'i ne bo'lar? Baxtmi, ko'rgulik?  
 Derazangdan nari bepoyon, bedil  
 Yastanib yotadi shunday mangulik:  
 "O', yana o'shami... O'sha... Eshqobil".  
 O'o yanaa o'shaami o'shaa Eshqobiil.  
 1985

\* \* \*

O, uyatchan namozshomgullar,  
 She'rning dilbar singilchalari...  
 Kalbni suyang xayrixoh qo'llar,  
 Shom gullari - tun darchalari...  
 O, uyatchan namozshomgullar,

Qo'shiq aytay shom chog'i sizga.  
Dardlarimni qo'yarsiz yo'llab,  
Olis yurtda qolgan bir qizga.  
O, uyatchan namozshomgullar,  
Qizchalari Bibixonimning,  
O'limgamas, shom chog'i yillab  
Men sevgiga berdim jonimni.  
O, uyatchan namozshomgullar,  
Go'zallikning pok qizchalari,  
Supurmokda ko'ksimdan yellar  
Sinib qolgan yulduzchalarini.  
O, uyatchan namozshomgullar,  
Qo'shiq aytay shom chog'i sizga.  
Dardlarimni qo'yarsiz yo'llab  
Olisdagi tanishingizga...  
O, uyatchan namozshomgullar...  
1986

\* \* \*

Suv ustida, suvlar ustida  
Yuraklarim chisirlaydi-ey,  
Ishq dastidan, hijron dastidan  
Suyaklarim qisirlaydi-ey.  
O't ustida, o'tlar ustida  
Ko'z yoshlarim daryo bo'ldi-ey,  
Ishq qasdida, hijron qasdida  
Bardoshlarim ado bo'ldi-ey.  
Tosh ustida, toshlar ustida  
Ko'nglim erir oy kabi ma'yus.  
Ishq faslida, xijron faslida  
Yig'la, Bahor, mening ismim - Kuz.  
Yo'l ustida, yo'llar ustida  
Oyoqlarim yurak bo'ldi-ey,  
Ishq kasridan, hijron kasridan  
Umrim faqat tilak bo'ldi-ey.  
1984

## Tugallanmaydigan She'r

Bu yurak ming yildan beri yashaydi,  
Sizni sog'inadi, sizni qo'msaydi.  
Kundan-kun qattiqroq sevgisi kelar,  
Toshlarga urilib, suvlarga cho'kib,  
Cho'g'larga ko'milib sevgisi kelar.  
O, siz bu yurakning vatandoshlari,  
Havodoshlariyu, tuproqdoshlari,  
Oching eshiklarni, derazalarni,  
Axir, bu yurakning sevgisi kelar,  
Yanada qashiqrok sevgisi kelar.  
Uning tomirlari gullab boradi,  
Devorlari nurdan tiklanib borar.  
Oching chehralarni, oching ko'zlarni,  
Boylangan tillarin oching so'zlarning,  
Axir, bu yurakning sevgisi kelar.  
O siz, bu yurakning tuyg'udoshlari,  
Xayoldoshlariyu, osmondoshlari,  
Sizga qanday aytisin, qandaylar aytisin,  
Bu yurakning faqat sevgisi kelar,  
Yana-da qattiqroq sevgisi kelar.  
1985

Boymoqlida Bahor  
Aziz akaga

Boymoqlida maysa nish urar,  
 Oqshom yo'lni changitar poda.  
 Daraxtlarda gullar gurkirar,  
 To'lqinlar tirilar daryoda.  
 Boymoqlida, qirlar ostida  
 Ko'z ochadi ming-ming qo'zichoq.  
 Yashillangan tomlar ustida  
 Kelinlarday titrar qizg'aldoq.  
 Singillarning sochini o'ynab,  
 Yengil-engil yelar shamollar.  
 Kechalari o'tmishi bo'ylab  
 Yurib chiqar o'tovda chollar.  
 "Boymoklida bahor! Bo'linglar!"  
 Chorlaydilar bir-birlarini,  
 Boymoqlida tug'ar kelinlar  
 O'zbekiston shoirlarini.  
 1981

Ko'pkari

Hayt!" - dedi, uloq ketdi,  
 O'rtada taboq ketdi.  
 Nogahon el gurillar,  
 Gurillaydi chang-to'zon.  
 Yer oynaday zirillar,  
 Otlarga qoldi maydon.  
 Suluv-suluv yellari  
 Suv o'tiday chayqaldi.  
 Yopinchig'in gullari  
 Yor yuziday sayqalli.  
 Yaraqlagan yag'rinda  
 Semiz qirlar harsillar,  
 Tuyoklarning tig'inda  
 Qora cho'g'lar chirsillar.  
 "Hayt!" - dedi, uloq ketdi,  
 O'rtada taboq ketdi.  
 Changakday qo'lli bilan  
 Kuch changallar chavandoz,  
 Otining yoli bilan  
 Changni chalar chavandoz.  
 Qora-qora qomati  
 Qorayib ko'rinadi,  
 Lekin chavandoz oti  
 Ko'zlarda surinadi.  
 Nogahon el gurillar  
 Yer oynaday zirillar,  
 Muzlab qoldi saraton,  
 Quyosh qorga botadi.  
 Ichdan yig'lar chopag'on  
 Oti o'lib yotadi.  
 Бўйи Hayt Бўйи dedi, uloq ketdi,  
 Qosh ila qaboq ketdi.  
 Chavandozning ko'nglidan  
 Shom ila Iroq ketdi.  
 Birdan kun qoldi qarib,  
 Qil sig'maydi ko'ngilga.  
 Otning g'amin ko'tarib,  
 Otsiz qaytar ovulga:  
 Бўйи O'tday yongan daraga  
 O'zin tashlagan ko'nglim,  
 Gurillagan davrada  
 Uloq tishlagan ko'nglim Бўйи.  
 Endi g'amli eriga  
 So'z aytmasdan botinib,  
 Olti oy aza tutar  
 Chavandozning xotini.  
 1983

\* \* \*

Men qo'rqaman majnuntolning arazlashidan,  
 Shoxlarining titrog'ida yig'lар "Munojot".  
 Men qo'rqaman majnuntolning arazlashidan,  
 O'tinaman, ranjitmagin sen uni, hayot.  
 Samolarga iltijolar yo'llayman tunlar,  
 Ko'zlarimda sokin-sokin chayqaladi dard.  
 Majnuntolni chetlab o'tsin arazli kunlar,  
 Majnuntolning yaprog'ida uxbab qolsin baxt.  
 Men qo'rqaman majnuntolning arazlashidan..  
 1981

## Norboy Aka Marsiyasi

Ikki dilga ikki uya qo'ygan qaldirg'och,  
 Ko'l-ko'kaylar quridi, ko'k tomirlar chiridi.  
 Toshlar tegib bu dunyodan to'yan qaldirg'och,  
 Qanotingda yozlar kuydi, qahratonlar qaridi.  
 O, qaldirg'och, ikki dilning oralig'ida,  
 Oy-yulduzlar qotgan kulga qoldi aylanib.  
 Bu dunyoning bir betining qoraligidan  
 Yer changidi, osmon esa ketdi loylanib.  
 Ikki dilga ikki uya qo'ygan qaldirg'och,  
 Sarinjini saylab o'tgan damlaring qani?  
 Tiramoxdan ko'ylik tikib kiygan kaldirg'och,  
 Qizil-yashil oyga to'lgan shomlaring qani?  
 Ikki dilga ikki uya qo'ygan qaldirg'och,  
 Ko'k bulutlar yo'rgaklaydi faryodlaringni.  
 Xazonlarning sho'r suvidan to'yan qaldirg'och,  
 Yig'olmaysan tobut qisgan qanotlaringni.  
 Ikki dilga ikki uya qo'ygan qaldirroch.  
 1984

## Xudbinlik

Yana chegaradan chiqib ketibman,  
 Xavotir xurjuni keng orqangizda.  
 Faqat pul ekilgan... Xudbinlik o'sgan,  
 Gul izlab yuribman tomorqangizdan.  
 Yana chegaradan chiqib ketibman...  
 Tilingiz achishar kuygan qo'l kabi,  
 Jilmayib turardi mening chehramda  
 Mangu qovjiragan haqiqat labi.  
 Deysiz: "Haddingni bil, har so'z xavflidir":  
 Fakat shu sizdagi bor bunyodkorlik.  
 Menga chegarani buzmoq zavqlidir,  
 Sizga esa zavqli ehtiyotkorlik.  
 1985

## Dunyoning Tinchligi

Hilol uxlayottan pashshaxonaning  
 Bir burjin ko'tarib termiladi tong.  
 Hilol uxlayotgan pashshaxonaning  
 Ipiga osilib tebranar osmon.  
 Qovunlar tarsillab yorilmay turing,  
 Torlarni tirnamang, chirildoqlar-ov.  
 Pardada Hilolning uyqusin ko'ring,  
 Ko'ring, qanday uxlar tunlari olov.  
 Yellar daraxtlarni yetaklab kelar  
 Tongning qo'li ochgan oq ostonaga.  
 Yetti iqlimni ham sig'dirsra bo'lar

Hilol uxmlayotgan pashshaxonaga.  
1986

Boyqaro. 1501

Emranib-entikib keldim qoshingga,  
Besamar kunlarim sochlarin yuldi.  
Og'ir bir savdolar qalqir boshimda,  
Mening yuragimda Navoiy o'ldi.  
Kuyoshga so'zim yo'q. So'zim yo'q oyga,  
Sen mening holimga kuyasan, hayot.  
O'zi botarmidi qop-qora loyga  
Oppoq qushlarini uchirgan Hiro.  
Qoshingga emranib keldim, o'zbegin,  
Shoiring ketdimi mendan norizo.  
Yaxshi bo'larmidi xalqin, o'zligin  
Shoiring qalbidan topsa podsho.  
O'zbegin, bilaman hammasin, biroq,  
Bilmagandan og'ir endi bilganim.  
Ming bor o'lganingdan ko'ra xavfiroq  
Yuragingda shoir bir bor o'lgani.  
1982

To'qqizinchi Fevral

Men ertaga o'laman, ona,  
Agar, sen bu kecha boshimda  
O'zbek tilidagi qo'shiklarni aytib turmasang.  
Men ertaga o'laman, ona,  
Agar sening kelinlaring bu kecha  
Buyuk shoirlarni tug'masa agar.  
Men ertaga o'laman, ona,  
Agar sening baxshilaring bu kecha  
Tonggacha tugatolmasa "Alpomish" dostonini.  
Men ertaga o'laman, ona,  
Daraxt shoxlarida qushlar bu kecha  
"Lisonut-tayrb Tókni takror etmasa  
Men ertaga o'laman, ona.  
Uxlay olmadim men...  
Boshimda qadimiq qo'shiklar aytding,  
Kelinlaring tug'di ulug' shoirlaringni.  
Baxshilar... Nafasi tigilib bo'g'izlariga  
"Alpomish" so'ngini aytdilar tongda.  
Qushlar... Daraxt shoxlarida titragan qushlar,  
Navoiy tilida gapirib chikdi.  
Men hech qachon o'lmayman. ona!  
1982

Alla Tarifi

Bolam, bir qo'shiq bor dunyoda, bolam,  
Ilk bora otaday aytayin uni.  
U qo'shiq eng buyuk bir kundir,  
Jahon shoirlarin tug'ilgan kuni.  
Bolam, bir ko'shiq bor dunyoda, bolam,  
Uning oftobidan ruhingni boyit.  
U qo'shiq eng buyuk bir oydir,  
Jahon xalqlarining tug'ilgan oyi.  
Bolam, bir qo'shiq bor dunyoda, bolam,  
Uning kuylaridan chiqsin-da, tiling.  
U qo'shiq eng buyuk bir yildir,  
Jahon Vatanlarin tug'ilgan yili.  
Bolam bir qo'shiq bor, oxanglaridan  
Hayot ko'kraklari turadi iyib.  
Bolam, u qo'shiqni ayollar har kun

Quyoshning sutiga oladi chayib.

Bolam, bir qo'shiq bor dunyoda, bolam..

1985

### Ruhning Parvozi

Oy borib, omon qayt, ko'nglim-a,  
Tilimning ostida erir qayroqtosh.  
Qirq qizning yuragi titrar qo'limda,  
Yelkamga suyanar qirqta o'n besh yosh.  
Oy borib, omon qayt, ko'nglim-a,  
Mehr o'chog'ida kuyar bu jonim.  
Olov sochib turar baxtli qo'limda  
Bitta vujudimga qirqta vijdonim.  
Oy borib, omon qayt, ko'nglim-a,  
Yo'l olib safari bexatarlardan.  
Men axir bir og'a qirqta singlimga,  
Himoya qarzim bor kabutarlardan.  
Oy borib, omon qayt, ko'nglim  
1985

### Mehriniisoga Aytgan Allamiz

Allasin yulduz aytsin,  
Tun aytsin, kunduz aytsin,  
Ena qiz uxlasin, ena qiz...  
Kemaday chayqalar belanchak,  
Shamollar soladi halinchak,  
Ena qiz uxlasin, ena qiz...  
Ochilib-sochilar kechalar,  
Erkalar nordon yeb chechalar,  
Ena qiz uxlasin, ena qiz...  
Qadamlarga kulsin eshiklar,  
Go'daklarga to'lsin beshiklar,  
Ena qiz uxlasin, ena qiz...  
1984

### Yangi Yil She'ri

#### Singlimga

Don kabi sepildi sovuq tumanlar,  
Oq qorlarni kiygan yo'llar chiroyli.  
Uylarning ko'zlari derazalarda  
Ochilib-sochilgan gullar chiroyli.  
Sovuk qotmadingmi singlim, egachim,  
- Akajon, jonimdan o'tmokda ayoz, -  
Sehr-afsunlarga yetmadi kuchim,  
Qorbobo emasman, Eshqobil, xolos.  
Yaldo kechasida bir yilni chekdim,  
Og'ir-og'ir edi bu kecha ko'nglim.  
Onam allalarin eslab entikdim,  
Ularni Toshkentda sen aytgin, singlim.  
Boladay tinglay deb keldim qoshingga  
Unut qo'shiqlarning qahridan qakshab.  
Onam allalarin aytgin boshimda,  
Egachim, aytib ber onamga o'xshab.  
- Yangi yil kelmokda, aka, yangi yil!  
Yagona bayram bu, g'amginsiz biroq?  
- Meni onam kabi tushungil, singil,  
Axir, o'tgan yilim o'ylatar ko'proq.  
Ha, bir yil ruhimdan kechib bormoqda  
Goho shod, goh ma'yus pallasi bilan.  
Kutmog'im zarurdir har yangi yilni  
Onamning eng shirin allasi bilan.  
Yaldo kechasida bir yilni chekdim,

Qarshila, mushtipar so'zlarni to'shab,  
 Onam allasini eslab entikdim,  
 Egachim, aytib ber onamga o'xshab.  
 Bu yil ham so'ng manzil qoshiga borgan,  
 Ne topib, nelarni yo'qotar ko'ngil.  
 Sendan akangga deb berib yuborgan  
 Onamning allasin yo'qotma, singil.  
 1985

\* \* \*

Daraxtim, men yana  
 qoshingga keldim.  
 Qaytmas kunlarimning xotiri uchun,  
 Umrimning aytimas bor siri uchun.  
 Daraxtim, men yana  
 qoshingga keldim.  
 Yaproqlar yuzida oy nuri o'ynarböh  
 Atrofda bo'g'ilib sukunat yig'lar.  
 Daraxtim, men yana  
 qoshingga keldim.  
 Umrim ertalarga bo'y cho'zayotir,  
 O'tmish kunlarimdan oldim xavotir,  
 Daraxtim, men yana  
 qoshingga keldim.  
 1983

## O'tmish Bilan Muloqot

Qachon guldiraysan, qachon, tegirmon,  
 Mung'ayib javdirar bo'shagan sanoch?..  
 Yuragim, yuragim, bo'la qolgin don,  
 Qushlar chirqiraydi... Qara, qushlar och.  
 Eplay olmadik-ku, biron ta she'rni,  
 Shirin va'dalarni ichganmiz oldin.  
 Qushlar chirqiraydi, kuydirib yerni,  
 Yuragim, yuragim, don bo'la qolgin.  
 Angrayar falakning ikki pallasi,  
 Guldiratar tushlarimni tegirmon.  
 Qarsillab turibdi qishning chillasi.  
 Yuragim, yuragim bo'la qolgin don.  
 1986

## Mengim Momoning Yo'qlovi

Inqilob davrida vatandan surgun qilingan, xorijda o'z-o'ziga yo'qlov aytib, dunyodan o'tgan Mengim momoning giryasi

Tog'dan toshlar qulaydi,  
 Ko'zdan yoshtar qulaydi,  
 Qismatning qora qo'li  
 Peshonangni silaydi.  
 Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.  
 Uvv!.. Uv!!!  
 Ko'zingda Boymoqlining  
 Suratlari qotadi,  
 Kafanda jonsiz tana  
 Tirik armon yotadi.  
 Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.  
 Uvv!.. Uv!!!  
 Soylarning bo'ylarida  
 Yirlab uchar ovozang,  
 Go'ristonga qo'riqchi  
 O'qilmagan janozang.  
 Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.  
 Uvv!.. Uv!!!  
 G'orlarda uxlar shamol,

Qirlarda yig'lар shamol,  
Shamolning etagidan  
Tutib bo'zlaydi xayol.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.  
Uvv!.. Uv!!!  
Xotiringga olisda  
Mungli sham charsillaydi.  
Ota yurt sog'inchidan,  
Suyaging qarsillaydi.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!  
Qora kunga qora soch,  
Yoyar bo'lsa singillar,  
Ko'zlarning qирg'og'идан  
To'kiladi ko'ngillar.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!  
Tog'dan toshlar qulaydi,  
Ko'zdan yoshlar qulaydi.  
Qalbingdan bir chuqurga  
Oy, quyoshlar qulaydi.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!  
G'ariblikda, boyvuchcha,  
O'z-o'zingni yo'qlaysan.  
Qismatga birinchi bor  
Otilguvchi o'kdaysan.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!  
Huv tog'lardan narida,  
Qirlarda lola-shamlar,  
Maysalarning bargida,  
Durdai yonar shabnamlar.  
Boysuntog'ning boshida  
Qorlari yaltiraydi,  
Qoyalarning ming yillik  
Suvlari sirqiraydi.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!  
Go'rim o'z yuragimda,  
Yuraqda bordir Vatan.  
Qishloqdan kiyib kelgan  
Ko'ylagim bo'lsin kafan.  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.

Uvv!.. Uv!!!  
Voy, Mengim-a, sho'r Mengim. Uvv!.. Uv!!!  
1981

\* \* \*

Sochlari sumbul-sumbul... Sochlari...  
Kelbat kerib kelayotgan kelinoy,  
Oy bilan ochib ko'ngil... qoshlari  
Oyning kamin to'layotgan kelinoy.  
Sochingizning savdolari boshimda,  
Ichingizda sirlar ketdi siz bilan,  
Dardlaringiz qoldi mening toshimda.  
Xil'ati taraq-taraq, xil'ati  
Yaraq-yaraq kelayotgan kelinoy.  
Sarv ila bas boylashib kelbati,  
Sarvning kamin to'layotgan kelinoy.  
Sarv qaddingiz savdolari bo'ynimda,  
Ochilmagan gullar ketdi siz bilan,  
Bir o'chog' cho'g' qoldi mening qo'ynimda.  
Sochlari sumbul-sumbul... Sochlari...  
1985

Tinchlik Hususida Nutq

Bir go'zal faslda daryoday to'lib,  
 Bug'doyzorlar bo'ylab sharqiraydi nur.  
 O'tgan gunohlarni kechirmoq bo'lib,  
 Kelasan, olamda salobat, surur.  
 Biz birga bo'lamiz ertakdagiday,  
 Kunlar o'tadilar osoyishta.  
 Myon baxtning qiroli bo'lib chiqaman  
 Baxtli kun atalgan namoyishga.  
 Umrimni to'ldirdi g'amgin qissalar,  
 Oy ketding, oylardan qaytgin salomat.  
 Jilmayib turadi styuardessalar,  
 Sen yerga qaytasan, nihoyat.  
 Kaytasan, yarqirar mening boshimda,  
 Bor tonglar nuridan terilgan gultoj.  
 Qora gulchambarday yashnar bo'ynimda,  
 Minglab dilbar tundan yig'ilgan bir soch.  
 Yemg'irlar shig'alab yog'ar bag'rimga,  
 Tog'llarim yuzidan o'par samolar.  
 Qachonlar xomtalash bo'lgan yerimda  
 Keza boshlaydilar ulug' siymolar.  
 Biz birga bo'lamiz ertakdagiday,  
 Kunlar o'tadilar osoyishta.  
 Men baxtning qiroli bo'lib chiqaman  
 Baxtli kun atalgan namoyishga.

1982

Yoritqichlar Hadyasi

Yulduzlar bir tilni o'rgatdi  
 Sinib-sinib suvday sochilguvchi til.  
 Oy shafaq qoniga iylanib botdi  
 Sevgi tandirida qizardi ko'ngil.  
 Avgust kechalarin yagonasida  
 Men senga dardimni aytaman... Kutgil.  
 Ko'nglimni beshikday tebratdi  
 Shafaqning suviga cho'milgan oq gul.  
 Yulduzlar bir tilni o'rgatdi -  
 Yurakday-yurakday so'zları bor til.  
 Avgust kechalarin yagonasida  
 Men senga dardimni aytaman... Kutgil.  
 1983  
 \* \* \*

Titroq novdalarda uyg'onar hayot,  
 Sarg'aygan qor kabi erib bitar dard.  
 Yashil tuyg'ulardan chayqalasan shod,  
 Fevral o'tib borar, yaqinlashar mart.  
 Musaffo ruhingni alqaydi qushlar,  
 Maysalar - hayotning shirin tillari,  
 Uyqungni to'ldirar eng go'zal tushlar,  
 Oyning nurlarini silar qo'llaring.  
 Kunlarning chiroyi ochilib borar,  
 Ochilib borasan kunlarday go'zal.  
 Ikki fasl sening ko'nglingga qarar,  
 Ko'nglingni avaylab qisqarar fevral.  
 Uning himmati keng, toki sen borsan,  
 Yigirma sakkiz kun tanti sayyorga.  
 Kundan-kun go'zalsan va baxtiyorsan,  
 Fevral bir juft kunin sochar bahorga.  
 Havasim sengadir. Shodlik ortmoqda,  
 Sarg'aygan qor kabi erib ketar dard.  
 Mening yuragimdan fevral o'tmoqda,  
 Sening yuragingga kirib bordi mart.  
 1984

\* \* \*

Ko'nglim, musichai beozor ko'nglim,  
 Sevgidan toldingmi, darddan toldingmi?  
 Ko'nglim, musichai beozor ko'nglim,  
 Itlar davrasiga tushib koldingmi?  
 Yetimning ko'ziday ko'zing javdirar...  
 Butun vujudlari iborat tishdan,  
 Tegrangda xo'jasiz itlar baqirar,  
 Suyagin so'rashib uchargul qushdan.  
 Hamdam etmoq bo'lning axir o'zingga  
 Ne-ne mard insonlar, ne oriflarni...  
 Ne achchiq quyunlar o'ynar ko'zimda,  
 Ayolday-qarg'ayman tasodiflarni.  
 Ko'nglim, tashqarida og'rir umidlar.,  
 Suvlardan qaytib ol tilaklaringni,  
 Muncha, muncha havas qilmasa itlar,  
 Gulning dardday yumshoq suyaklarini.  
 1986

## Qani Sening Ovozing

Gitaralar yangradi,  
 So'ng setorlar ingradi.  
 Zalda qo'llar hayqirdilar:  
 Qani, sening ovozing?  
 Bombalar portladilar,  
 Qabrlar dodladilar,  
 Mikrofonlar titradi notiqlarning so'zidan,  
 Qani, sening ovozing?..  
 To'qnashib qoldilar: ko'kda yulduzlar,  
 Ko'chalarda - biri-biriga o'tmish,  
 Biri-biriga kelajak ko'zlar,  
 Kashf etib olamda so'nggi ovozni.  
 Qani, sening ovozing?..  
 Bo'ronlar bo'kirdilar,  
 Bulutlar to'kildilar.  
 Ulkan muz ummoniga aylanadi Yer.  
 Havolar yirtildilar,  
 Chaqmokdshr daryoday oqar, guldurar.  
 Qani, sening ovozing?..  
 Ovozga aylanadi gunglarning imolari,  
 Gumburlab portlab ketar sukunat daholari.  
 Qani, sening ovozing?..  
 Qani, sening ovozing?!

Chorlayman, bo'g'zimga tiqilar tog'-tosh.  
 Ko'zim qirg'og'ini to'lqinlar buzar.  
 Ko'ksimga medalday osilar bardosh,  
 Ovozga aylanar quoqlar, ko'zlar.  
 Qani, sening ovozing?..  
 Qani, sening ovozing?!

Tilimni yedirdim to'tiqushlarga,  
 Og'iz bo'shlig'imda baqirar yurak.  
 Umrimni alishdim shirin tushlarga.  
 Butun xalq yo'qotgan eng go'zal ertak -  
 Qani, sening ovozing?..  
 Qani, sening ovozing?!

Betxoven qulog'in ochguvchi ohang,  
 Tumanlar ortida charsillagan nur;  
 Sohir koinotda sakkizinch rang,  
 Ummonlarning bag'ri boy berishgan dur,  
 Qani, sening ovozing?..  
 Qani, sening ovozing?!

Mayliga, bekor gap sevging, dil rozing,  
 Aqalli bir tovush... Biron kalima...

Qarsillab sinmasdan, chorlar ovozing,  
 Muztog'lar ichida qolgan bir kema. -  
 Qani, sening ovozing?!  
 Qani, sening ovozing?!  
 Falaklar kashfidan yiroqmiding sen,  
 Vijdonlar tashvishga tushmoqda bu kun,  
 Sening ovozingni chorlayapman men,  
 Olamni g'amlardan qutqarmoq uchun.  
 Qani, sening ovozing?..  
 1981

## Nomukammallik

Chorlading...  
 Ovozsiz oqqanda yo'llar,  
 Chorlading - hilpirab  
 Bayrokqa aylandi qo'llar.  
 Men yo'q edim.  
 Chorlading -  
 Olamning yaqini va olisidan,  
 Sen ko'p deb jahonning aholisidan...  
 Men yo'q edim.  
 Sevgi!  
 Tilimga kirma, Sevgi.  
 Oyog'ingning tirnog'i bilan  
 Yuzingni tirna, Sevgi.  
 (Bir qadam orasi sevgi, nafratning)  
 Qarg'ishlarning shamollari qorayib yelar.  
 Meni nafratning is bosgan gullariga,  
 Iforlar deb shodmon ko'mganiningda -  
 Men yo'q edim.  
 Kechaning kunduz bilan janjallarida,  
 Yo'qolgan kunlarning ichida,  
 Yo'qotilgan kunlarni izlab,  
 Kalaka bo'lardim zarfoshonlarga  
 Meni qora shamol bilan quvlaganingda -  
 Men yo'q edim.  
 Nafrat!  
 Tilimga kirma, Nafrat,  
 Qushlarning ko'pchigan patlari bilan  
 Yuzingni tirna, Nafrat.  
 Yurakni ikkiga bo'lding olmaday,  
 Bir yoni chorlasa, bir yoni quvlar,  
 Bari bir yo'q edim.  
 Tumanga aylangan bir sirli o'g'ri  
 Kalaka qilardi yoritqichlarni.  
 Kunduz ozib ketdi, tun ozib ketdi,  
 Tumanning gupchaygan o'g'ri xaltasi  
 Semirib borardi ozg'in kun-tunda.  
 Vujud emas, ruhning manfaati deb  
 Falak mulkin qilar suiiste'mol.  
 Sevgi...  
 Tilimga kirgin, Sevgi,  
 Har kun men keltirgan nurdasta bilan  
 Nafratni supurgin, Sevgi.  
 O'ttiz birinchi dekabr kuni,  
 Aytganingday -  
 Ma'yuslik, shodlikning ko'rishuv kuni  
 Uchrashdik, tomorqada emas,  
 Yerda yo koinotda emas,  
 Sevgida uchrashdik, o'ttiz birida,  
 Men bor edim.  
 Ertaga yangi yil, - deding sen,  
 Yangi yilga hali bitta umr bor,  
 Yangi yilga qadar butun sevgi bor,  
 O'ttiz birinchi dekabr tuni,  
 Aytganingday -

Xotira, umidning tutinish tuni  
 "12" raqami qil ko'prigidan  
 Birinchi oy sari o'tib ketding sen.  
 O'n uchinchi oyga o'tib ketdim men...  
 Tuman adashtirar va adashadi.

Sevgi...

O'zing bilasan, Sevgi,  
 Nega qarg'ab-qarg'ab va kuyib-kuyib  
 Nafratga dugona bo'lasan, Sevgi.  
 Tuman yolg'iz edi, endi o'grimas,  
 Oyning mehrobiga qilar ibodat.  
 Sira seskanmasdi, seskantirardi,  
 Qo'lida muzlagan o'lik yulduzlar,  
 Tupukka o'xshardi ko'zidagi yosh.  
 Bo'shilqda sarbasar uchar, kuyinar  
 Yuz yilning to'zg'igan kuyuk patlari...  
 Sevgi yuz yil oldinda edi,  
 Tuman esa yuz yil orqada,  
 Qotib qolgan edi o'n uchinchi oy.

Sevgi!

Dunyoni olovli quchoqlaringda  
 Qaritding, Sevgi!  
 Endi orqaga qayt, yuz yil orqaga,  
 O'n uchinchi oyni eritgin, Sevgi!

1986

### Qariyaning O'limi Xaqidagi Xabardan So'ng

Qariya: Imonini bersin,  
 Ko'riniib qolmoqda so'nggi sarhadlar,  
 Sitilib ketyapmiz keksa ulfatlar.  
 O'rtayosh: Yoshin yashab, oshin oshadi, lekin,  
 Pari bilmaganni bilguvchi edi.  
 Boshimizni qo'shib turguvchi edi.  
 Yigit: Suyganlar baxtlidir, u chol davrida,  
 To'y nafasi kelar edi tovushidan...  
 Bola: Endi eshagini kim minar ekan?..  
 1981  
 Zo'raki Qahqaha

Tishlarimning o'rtasida,  
 Ikki qilich o'rtasida,  
 Chavaqlanar qahqaha  
 Ha! Ha! Ha! Ha...  
 Oyni tishlab oldim men,  
 Labda yulduzlar qoni.  
 Aflokda yo'qoldim men,  
 O'lmagan kimning joni.  
 Vujudning zanjirbandi  
 Ko'krakdag'i iloha,  
 Qobirg'alarga bandi -  
 Ha! Ha! Ha! Ha!  
 Qahkashonlar jim qolar,  
 Olovlarни kechaman.  
 Loydan yasalgan qadax -  
 Yulduzlarni ichaman.  
 Qahqahaga alishdim  
 Umrlik armonimni,  
 Kerak bo'lsa samolar  
 Tinglaydi farmonimni.  
 Daraxtlarning ustida  
 Uxlayman, saqlayman jon.  
 Men senga sherik emas,  
 Quvonmagin, Robinzon.  
 Vujudim chopib borar  
 Qilday arqon ustida.  
 Yuragim qolib ketdi

Yomg'irlarning ostida.  
 Meni tashlab ketdingmi,  
 Mehrobday topinganim,  
 Sevgidan zo'r iloha?!  
 Ket, sensiz ham baxtliman.  
 Ha! Ha! Ha! Ha!  
 Gullar, nega kulmaysiz,  
 Yozing g'amgin ko'ngilni,  
 Arilar topib kelar,  
 Qochib qolgan qotilni.  
 Yulduzlarga ko'maman,  
 G'arib qolgan bu tunni.  
 So'ng qitiqlay boshlayman,  
 Sovuq qovoq qonunni.  
 Meni tashlab ketmasang,  
 Garovdagi qaxqaha,  
 Ikki dunyodan zo'rman.  
 Ha! Ha! Ha! Ha!  
 1982

## Muvozanat

Bu tor xona emas, balki bu osmon,  
 Yulduzlarni gulday sochmoqda shamol.  
 Yuragimga yetib keldingmi omon,  
 Eshikka suyanib jilmaygan ayol.  
 Ruhimda olmalar gulladi to'lib,  
 Nogahon gullagan eshik singari.  
 Taftli qo'llaringdan tutmoqchi bo'lib.  
 Yulduzlar qitig'in qo'zg'ar qo'llarim.  
 Mening dunyolarim qancha betartib,  
 Sening dunyolaring shuncha sarishta.  
 Bekasiz samoga bergali tartib  
 Ortingdan kelmoqda kirq ming farishta.  
 Bu tor xona emas, balki bu osmon -  
 Yulduzlar suvidan to'yingan xayol,  
 Qushlar tumshug'ida titrab turar tong,  
 Eshikka suyanib jilmayar ayol.  
 Ruhimdan buloqlar chiqadi sizib,  
 Nogoh eriyotgan osmon singari.  
 Madonna suratin turardi chizib,  
 Iztirob ranglarin terib ko'zlarim.  
 Qirq o'rim sochining vasfiga, illo,  
 Hofizlar yuragi bo'ldi qasida,  
 Ovruponi berar Mikelanjelo  
 O'rta Osiyoning madonnasiga.  
 Bu tor xona emas, balki bu osmon,  
 O'n besh daqiqada oy topgan kamol.  
 Oltmisht ming tomirdan sachrab ketar qon  
 Eshikka suyanib jilmayar ayol.  
 Ko'zlari ruhimga olovni qalab,  
 Kiprik-la cho'g'larni tortadilar xo'p.  
 Qo'llari osmondan yulduzlar tilab,  
 Ularning changini artadilar xo'p.  
 Pastda zulmat, bo'shliq makon quribdi,  
 Bu yerda hayotu, u yokda zavol.  
 Ikki jahonimni suyab turibdi  
 Eshikka suyanib jilmaygan ayol.  
 1984

## Bobodehqon

Ko'pchigan tuproqda qaqrar saraton,  
 Bahor tebratadi rangpar havoni.  
 Olti oy oldinda qaqshar qahraton,  
 Kuzgacha omon elt olti daryoni.

Bo'ronda kemaday turar silkitib,  
 Atom, neytronlar vahmi asrni.  
 Ulardan yurakka qo'yding bekitib  
 Ikki qo'lingdagi to'rtta faslni.  
 Bahorga sarg'ayib qarar saraton,  
 Yashil changlar sachrar rangpar xavoga.  
 Olti oy oldinda turgan qahraton  
 Kuzgacha qon berar olti daryoga.  
 Kimlar saqlab qolmish ko'ngling to'lmaydi  
 Sovuq urushlardan ko'lmak naslni.  
 Bu telba asrga bering kelmaydi  
 Ikki qo'lingdagi to'rtta faslni  
 1982

## Haydov

Qo'ylar bulutlarni ichib qo'ydilar  
 Maysalarning yashil qoniga qo'shib.  
 Issiq yulduzlardan qirlar to'ydilar,  
 Iyun o'tib borar hovliqib, shoshib.  
 Yashil chimildiqning ohori sindi,  
 Adirlar bevaday qoldi mung'ayib.  
 Quyoshning bo'g'zidan uchgan qirindi -  
 Kuygan o't-o'lanlar yotar sarg'ayib.  
 Cho'lni bog'lab olib hushtaklariga  
 Palaxmon toshiday o'ynatar quyun.  
 Kunlarini o'rab po'staklariga  
 Qora terga tushib harsillar iyun.  
 Iyun silkitgancha olov tayog'in,  
 Haydaydi pishqirib, haydar beomon  
 Cho'ponu qo'ylarni dog'lab oyog'in  
 Iyulning ko'kargan torlari tomon.  
 1987

## Nasiba

Havo changlarini chalib boradi  
 Cho'ponning o'ynoqi zarang tayog'i.  
 Xurjuni oylarga to'lib boradi,  
 Eshakning qornida o'ynab oyog'i.  
 Ortida itlari g'ingshir, hurpaygan  
 Junlarida ko'pchib pufak yulduzlar.  
 Cho'ponning tayog'i teshgan osmondan  
 Ko'ziqorinlarday to'kilar izlar.  
 Sahro tomirlari titrab qoladi,  
 Cho'lning ham o'z baxti bordir har qalay.  
 Cho'pon ko'kka yuzin yuvib oladi,  
 Xurjunga qaraydi xurjun to'la oy.  
 1987

## O'tov

Zap qorindor o'tov qo'ynida  
 Bolalarin uxlatdi cho'pon.  
 Oyoq tirab o'choq bo'yniga  
 Qurbaqaday biqirlar qumg'on  
 Changaroqda g'uj-g'uj yulduzlar  
 G'ing'llaydi bolarilarday,  
 Hansiraydi dag'al kigizlar,  
 Suyalganda sovuq qotgan oy.  
 Uvuqlarni qoq suyaklarni  
 Tishlab olib, so'ng qochar shamol.  
 Kaftda ezib iyaklarini  
 Tepaliklar suradi xayol.  
 Kunduzlarni o'choqqa qalab,

Tun yuziga sepgancha olov,  
 Muzlab kolgan cho'lni yelkalab,  
 Bukchaygancha ketcimda o'tov.  
 1987

## Yomg'irdan Oldin

Shomdan so'ng, yomg'irsiz kunlardan o'ksib,  
 Horib o'toviga qaytdi cho'ponlar.  
 Oyog'i ostiga oy nurin qalab,  
 O'ziga o't qo'ydi zarhal qo'tonlar.  
 Qo'tonlar yarqirar, yonar tovlanib,  
 Yog'dularni quyib naylar og'ziga.  
 Ketar maysalarning tushi dog'lanib,  
 Yellar kuy puflaydi naylar bo'g'ziga.  
 O'tovning xuzurli quchoqlarida  
 Oyoqlar chigilin yozar cho'ponlar,  
 Cho'lning zarhal tusli bayroqlariday  
 Naylarning tizmasi yonar qo'tonlar.  
 Bo'yni, oyog'idan bog'lab tashlangan,  
 Qo'ylar qulog'iday teshilgan tili,  
 Ming-minglab naylarning to'yi boshlandi,  
 Beshikday tebratib uxlagan cho'lni.  
 Nurlarda yarqirab yongan qo'tonlar  
 Ichra oy yonboshlar - uy tikkan humoy.  
 Tuynukdan yuragin otdi cho'ponlar:  
 "Xayriyat, xayriyat, qo'tonladi oy".  
 1987

## Najot

Bulutlar qorlarning qo'ynda uxlardan,  
 Cho'l qisirlar ayoz qamchilaridan.  
 Qirlar tun betiga ufurgan uhlardan  
 Muzlaydi iztirob tomchilariday.  
 Cho'pon holdan toydi... Yo'l mucha uzoq...  
 Osmonlarga uchib ketganmi o'tov?  
 Umidlar muzlaydi, muzlaydi titroq,  
 Ko'nglida ayoli, bolalar - yettov.  
 Ko'kyo'tal tutganday ko'karadi tun,  
 Adashgan nurlarning yo'lini to'sib.  
 Muzlayotgan cho'pon yelkalaridan  
 Ulkan, oppoq bir tog' chiqmokda o'sib.  
 Cho'pon yelkasida tog' orasida,  
 Ikki qo'llagancha, qaddin etib yoy,  
 Keng, bahaybat osmon tog'orasida  
 Cho'g' olib yugurib kelayotir oy.  
 1987

## Cho'lida

Tun osoyish qo'zg'alib shamol,  
 Yulduzlarini erkalab ovlar.  
 To'xtamdag'i suruvlar misol  
 O'z maylida mizg'ir o'tovlar.  
 Men bu yerga yongani keldim.  
 Maysalarning chiqar oyog'i,  
 Yetaklaydi yellar tatamlab.  
 Chirildoqlar juda sayroqi,  
 Oy nurlarin yig'ay tutamlab...  
 Men bu yerga yelgali keldim.  
 Cho'lning mansabdori bo'lguday  
 Tikanlar boradi qorinlab.  
 O'tib qolsang hamla qilguday  
 Hurpayadi tuyaqorinlar.

Men bu yerga ko'rgani keldim.  
 Yuragimni bunda avaylab  
 Oymoma nur yo'rgakka o'rар.  
 Sochlariга keng tunni boylab,  
 Huv o'tovda bir suluv uxlar.  
 Men bu yerga suygani keldim.  
 Men kiraman qizning qalbiga,  
 Sezib-sezmay qo'yadi ovul.  
 So'ng xo'rozlar tongning xaqqiga  
 Uzun-uzun chaladi dovul.  
 Men bu yerga kuygani keldim.  
 Tun odog'i. Oy botib borar.  
 Yurak botar oy kabi to'lmay.  
 Tog' boshida tong otib borar,  
 Halovatdan qolaman o'lmay.  
 Men bu yerga yongani keldim.  
 1987

\* \* \*

Shikasta-shikasta gul poshikasta,\*  
 Shokila-shokila kokillari zar,  
 Sinsila-sinsila sumballari zar.  
 Shikasta-shikasta gul poshikasta,  
 Zor-zor ko'zlarimga to'ldi hovuchim,  
 Ko'ngil ekib borar yirtiq kovushim.  
 Shikasta-shikasta gul poshikasta,  
 Ko'zimda nafarmon oy sindi naylay,  
 Bo'g'zimni qonatib nay sindi naylay?  
 Shikasta-shikasta gul poshikasta,  
 Jon kabi to'kilib ketdi ko'zlarim,  
 Cho'g'larday sochilib ketdi izlarim.  
 Shikasta-shikasta gul poshikasta,  
 Bulbulning og'ziga to'ldi tovushim,  
 Ko'ngil ekib borar hamon kovushim.  
 Shikasta-shikasta gul poshikasta...  
 1987

\* \* \*

Oysulton, Oysulton, xushbaxt bo'lurmiz,  
 Soching to'lqinida oylar suzarlar.  
 Eshilib yulduzlarning zar yollar  
 Ko'zing osmonini bezarlar...  
 Oysulton, Oysulton, xushbaxt bo'lurmiz,  
 Labingdan qon tilar tog' lolalari.  
 Toshday sadoqating xaqda kuylaydi  
 Torlarday titragan tosh tolalari.  
 Oysulton, Oysulton, xushbaxt bo'lurmiz,  
 Yostig'ing ichiga gullar to'ladir.  
 Sening shodlik rangli lablaring bilan  
 Mening ko'zlarimda dunyo kuladir.  
 Oysulton, Oysulton, xushbaxt bo'lurmiz,  
 1987

Ro'zg'or Butligi

Tongda tandirini yoqar kelinchak,  
 Suprada yetilar botmon xamiri.  
 Molxonada "mo""lab qo'yar erinchak  
 Yelini tirsillab ketgan sigiri.  
 Choychokda uyalab to'lronar tutun,  
 Qo'radan angrayib qaraydi qo'ylar.  
 Kelin mamlakatday ro'zrorning butun  
 Tashvishin ko'tarib yugurib yelar.

Tip-tiniq saharga barri to'ladi,  
 Shunday ado etar vazifasini:  
 Kelin tongda turib yirib oladi  
 Dunyoning bir kunlik nasibasini.  
 1987

## Chimildiq

Chimildiq torlari silkindi,  
 Kemaday qalqiydi chimildiq.  
 Shamolga yoy alvon yelkanni,  
 Xushbo'y havolarga cho'mildik.  
 Sochala sochingiz, sochala,  
 Sepini ochingiz, chechalar.  
 Qudalar noz qilib kerilgan  
 Qozonning boshida kapkirday,  
 Kuyovning pulidan tirligan  
 Ostonada o'lgan kampirday.  
 Sochala sochingiz, sochala,  
 Sepini ochingiz chechalar.  
 Otalar eshikda tortinib,  
 Yo'l bo'yiga o'tin qalatar.  
 Ichkarida kulib, qimtinib,  
 Yangalari shakar yalatar.  
 Sochala sochingiz, sochala,  
 Bizni ham alqang-da chechalar.  
 Chimildiq torlari silkindi,  
 Chimildiq, yo'lga soch gulingni.  
 Kuyevning qomati ko'rindi,  
 Yangalar turtadi kelinni.  
 Sochala sochingiz, sochala,  
 Sepini ochingiz, chechalar.  
 Kemaday qalqiydi chimildiq,  
 Yonadi moy to'lgan o'choqlar.  
 To'yning havosiga cho'milib,  
 Qoshini qoqadi bo'ydoqlar.  
 Sochala sochingiz, sochala,  
 Bizni ham tinglang-da, chechalar.  
 1987

## Olapar

Olaparni shundoq ko'zim oldida  
 Otdilar - do'stini bolaligimning...  
 Onam o'rgatganday: "Rozi bo'l" dedim,  
 Shu ilk bor rozilik so'rashim mening.  
 Jigarrang, alamlik ko'zlarin tikib,  
 Olapar vidolar aytarkan beso'z...  
 Birdan o'q otildi. Ortga burildim -  
 Yelkamga kadalib qoldi ikki ko'z.  
 Yillar o'tib ketdi. O'z o'tmishim bor -  
 Kechganim goh dushman, goho do'st bilan.  
 Men endi qarayman bolaligimga  
 Yelkamga qadalgan bir juft ko'z bilan.  
 1985

## Bibizilol Hikoyati

I

Eri o'ldi Bibizilolning...  
 Kelinchaklik davri o'ldi,  
 Belanchaklik o'ylari o'ldi.  
 Kun - motam. Tun - motam.  
 Yig'ining qanotlari ulkan,  
 Kulguning lablari yirtilgan.

Eri o'ldi Bibizilolning...  
 Oyday to'lgan damlar to'kildi,  
 Soyday ko'zdan g'amlar to'kildi.  
 Kun yig'i. Tun yig'i.  
 Tonglar sindi, shomlar so'kildi,  
 Oy - yog'iy. Kun - yog'iy.  
 Lahzalar - yog'iy.  
 Eri o'ldi Bibizilolning...  
 II

Yil o'tdi.  
 Eri o'lgan Bibizilolning.  
 Kelinligi beshiqda o'lgan,  
 Orzu-havas to'shakda o'lgan,  
 Diyordlar eshikda o'lgan.  
 Kun og'ir, Tun og'rir,  
 Kuyadi bag'ir.  
 Og'ir...  
 Axir  
 Yigit o'lgan.  
 Eri o'lgan Bibizilolning.  
 Sovchilarni yog'di to'rt taraf,  
 Qup-quruq yelinni sog'di to'rt taraf.  
 Kun - raddiya. Tun - raddiya,  
 Bibizilol qasam ko'tardi:  
 "Agar erga tegsam,  
 Otam erim bo'lsin", - deya  
 So'ngra o'zga yo'lga og'di to'rt taraf.  
 III

Yillar o'tdilar.  
 Eri o'lib ketgan  
 Bibizilolning.  
 Dunyo-da, bechora yosh qolgan,  
 Er ketgan, ko'ksida tosh kolgan.  
 Er deb erimaydi bu tosh,  
 Qo'r yeb qarimaydi bu tosh.  
 Qarang, qarimaydi bu tosh.  
 Kun o'tar. Tun o'tar.  
 Yaralar bitar.  
 Yaralar o'tmish.  
 Yaralar o'tmish.  
 Eri o'lib ketgan Bibizilolning...  
 Yolg'izlik jonlarga tegar-ku,  
 Bu dunyo qonlarga tepar-ku.  
 Yolg'izlikning yollari uzun,  
 Ayol ko'nglin torlari uzun.  
 Yolg'izlik, yolingni yelga tut,  
 Dunyo, ayolingni erga tut.  
 Tun - xohish.  
 Kun mayin.  
 Bibizilol qaror ko'tardi:  
 "Ishtonim uvada bo'lib qoldi-ku,  
 Menga ishton olib ber, qayin".  
 Eri o'lib ketgan Bibizilolning.  
 IV

Ko'ksingda yotgan tosh eridi,  
 Ko'zingda qotgan yosh qaridi.  
 Bibizilol, kasaming qani?  
 - Qasami qasnoq-da,  
 Oshni ye, dunyo.  
 - Eringning to'shagi yozildi,  
 Begona oyoqlar bosildi.  
 Bibizilol, qasaming kani?  
 - Qasamni qusmokda,  
 Qistama, dunyo.  
 - Yig'ilar yig'ilib bug'lanar, yitar,

Tiling o'z so'zidan bulg'anar ketar.  
 Bibizilol, kasaming qani?  
 - Qasami qasami,  
 Qistama, dunyo.  
 - Harom o'lgan qasamingni menga ber.  
 Oshalmagan oshamingni menga ber.  
 Bibizilol, qasaming qani?  
 - Qasami qassobda,  
 Toshni ye, dunyo.  
 - Yillar o'tdilar.  
 - Avval ham eri bo'lганmikin,  
 - O'sha eri o'lганmikin  
 Bibiziolning.

## Ikki Holat

U zaminga sig'may qoldi. Vujudni qistar,  
 Parvozga chorlab,  
 Osmonlarga uchib ketmoqni istar  
 Zaminni quchoqlab.  
 U zaminga sig'may qoldi. Vujudni qistar,  
 Parvozga boshlab,  
 Osmonlarga uchib ketmoqni istar,  
 Zaminni tashlab.  
 1980

\* \* \*

Ikkimiz yalpizlar ichida edik...  
 Beomon o'rdilar ularni,  
 Yashil dog'lar qoldi yuzlarimizda.  
 Ikkimiz yulduzlar ichida edik...  
 Benarvon urdilar ularni,  
 Siniqlari kirdi ko'zlarimizga.  
 Ikkimiz ko'z yoshlari ichida edik...  
 Bu achchiq yoshlardan, kuyuk yoshlardan  
 G'iybat bozorlarin bezadi ular.  
 Ikkimiz sulb[1] toshlar ichida edik...  
 Bu baxtsiz toshlardan, sho'rlik toshlardan  
 O'zlariga haykal yasadi ular.  
 1984

\* \* \*

Yurakni uyg'otib yuboring...  
 Tinglayin yulduzlar qo'ng'irog'ini,  
 Mayin qora o'tni kechib o'tarkan,  
 Shamollarning nafis titrog'i ila  
 Yurakni uyg'otib yuboring...  
 Qora havolarda oydin xo'rsiniq,  
 Suygum kelayotir kuyib-kuyib men.  
 Uyqular oqadi suv kabi tiniq,  
 Tushlarni tomosha qilay to'yib men.  
 Yurakni uyg'otib yuboring...  
 Suygum kelayotir... Gul kosalarga  
 Quyib ko'zlarimni ichar yulduzlar.  
 Parcha-parcha oyday kulgular bilan  
 O'n sakkizga kirib tug'ilgan qizlar,  
 Yurakni uyg'otib yuboring...  
 1983

## Oraliqlarda

Ko'nglim suvaydosi, ko'zim sayguli,  
 Zahri ham novvotey, chashmi qiymochim,

Kuygan ustixonda o'stirgan gulim,  
 Olam: "vijir-vijir", men: - "hajr-hajr",  
 sen - qaldirg'ochim.  
 Bag'rimni changallab yuldi charnovuq[2],  
 O bag'ri shamolim, chiltorim charnar.  
 Men - qo'li qup-quruq qolgan chirmovuq,  
 Olam: - "quarey-quarey", men: - "xorey-xorey",  
 sen - yetim turnam.  
 Ko'nglim suvaydosi, ko'zim sayguli,  
 Bu zanjir tovushi... aylanmas tilim.  
 Sen - g'amning bir qo'li, baxtning bir qo'li,  
 Olam" - "chip-chip-chip", men:**Т**h<sup>g</sup>'ip-g'ip...g'ip...**Т**h<sup>k</sup>,  
 sen - sukut bulbuli.  
 1986

## Inqiroz

Ho'kizning shoxiga ursa, tubi zirqiraydi.  
 Xalq maqoli.  
 Kungira-kungira yillar qadog'i  
 Sirqirab-sirqirab yetar suyakka.  
 Yerning qo'li yetmas, ko'kning oyog'i  
 Ho'kizning shoxida turgan yurakka.  
 Tillarim yolg'on-a, ko'zlarim yolg'on,  
 Kel, guldar ro'molin yogganda falak.  
 Ho'kizning tubida kecha qatag'on,  
 Shoxida gumburlab uradi yurak.  
 Kel...  
 Sumbula suvlardan so'raydi nafas,  
 Shamollar sochlari eshmas ko'kraqda.  
 Oltin to'g'a ho'kiz burnida emas,  
 Shoxlari sanchilib turgan yurakda.  
 Ko'ngira-kungira yillar qadog'i,  
 Sirqirab-sirqirab yetdi suyakka.  
 Mening qo'lim yetmas, sening oyog'ing  
 Ho'kizning shoxida turgan yurakka  
 1986

## Qiz Qo'shig'i

Yoriltoshlar yorildi,  
 Yorilmading sen.  
 Burim sochlari burildi,  
 Burilmading sen.  
 Bu falak yolg'on ekan,  
 Uyini - talqon ekan.  
 Yomg'iri yoqut emas,  
 Bor-yo'g'i yovg'on ekan.  
 Borsa-kelmas evrildi,  
 Erimading sen.  
 Qabr toshlar tirildi  
 Erimading sen.  
 Bu falak haqrost ekan,  
 Ermagi - ixlos ekan.  
 Anjumi inju emas,  
 O'tli tosh, xolos, ekan.  
 1986

## Ulg'ayish

Ko'zlardan bayroqlar o'sib chiqadi...  
 Onangning singlingga meros ro'moli  
 Sening ko'zlarindan o'sib chiqadi  
 Hilpirab havoli-havoli...  
 Ko'zlardan bayroqlar o'sib chiqadi.

Ko'krakdan bir Vatan o'sib chiqadi...  
 Otangning avlodga meros tuprog'i  
 Sening ko'kragingdan o'sib chiqadi  
 Silkinib zalvorli-zalvorli.  
 Ko'krakdan bir Vatan o'sib chiqadi.  
 1983

## Sehr

Kecha dildan qoldi, qoldi-ya, tildan...  
 Hilol etagida yig'layotgan sen.  
 Qadimiy oyatlar bitilgan yo'lida,  
 Eshqobil emasman endi men.  
 Dengizlar ko'karib tortadi chilim,  
 Baxmal bulutlarni kiyayotgan sen.  
 Oltin baliqchaga aylandi tilim,  
 Eshqobil emasman endi men.  
 G'uborli tumanlar chimildig'ida,  
 Olov qanotida titrayotgan sen.  
 Qara, ko'zlarimning topildig'iga,  
 Eshqobil emasman endi men.  
 Kecha dildan qoldi, qoldi-ya tildan,  
 Nafas torlarimda uxlayotgan sen.  
 Qushdan ildiz oldim, qanotni guldan,  
 Eshqobil emasman endi men.  
 1986

\* \* \*

Qora xoliga baxsh etgum Samarcandu Buxoroni.Hofiz

Nimani istading, barini berdim,  
 Bulutlar patiday ketdim sochilib.  
 O'zimni olamday tiganmas derdim,  
 Ko'kragim bo'shliqday qoldi ochilib.  
 Barini berdim-ku, men endi yo'qman,  
 Hatto tomchi qoni, na bir so'zi yo'q.  
 Yarim og'iz ismim bo'lgan chog'da ham,  
 Lutf ila tutguvchi qo'lning o'zi yo'q.  
 Ra'no, barin berdim o'zimda bo'lgan,  
 Boqasan ko'p narsa kutib daf'atan.  
 Ko'kragida faqat bitta musht qolgan  
 Boshi, oyog'i yo'q mustamlakadan.  
 1983

\* \* \*

Ra'no, bu gullarni uzmog'im uchun  
 O'n olti yoshimga qaytmog'im kerak.  
 (Ko'zim diyorida ochilgan gullar.)  
 Qog'oz o'choqlarning qahriga o'tin  
 Ko'limda uzilgan gul kabi yurak.  
 (Sevgining eng so'nggi gullari titrar.)  
 Sen uchun yuz yilda xato kilmasdan,  
 Bu nafis gullarni ekmishdir xudo.  
 (Ko'zim diyorida ochilgan gullar.)  
 O'n olti yoshimga qaytib bormasdan,  
 Ularни uzmoqqa haqqim yo'q aslo.  
 (Sevgining eng so'nggi gullari titrar.)  
 1984

## Minnatdorchilik

Eldoshlarim...  
 Jon desa jon bergan, eldoshlarim,

Aylanayin bergan jonlaringizdan.  
Menga Vatan bergan, eldoshlarim,  
Aylanay bergan Vatanlaringizdan.  
Eldoshlarim...  
Menga qo'sh-qo'sh ko'ngillar bergan,  
Juft-juft hurkak singillar bergan,  
Eldoshlarim...  
Urimga, ko'nglimga ma'nilar bergan -  
Davra-davra og'a-inilar bergan,  
Eldoshlarim...  
Ming bora aylanay himmatingizdan,  
Sari ziyodalar bo'lgan davlatingizdan.  
Eldoshlarim...  
Bir ko'r kam iforlar sochar yo'limga,  
Bu issiq chehralar, yorug' diyordlar.  
Avval o'tib borar mening ko'nglimdan,  
Sizga yetib borgan qishlar, bahorlar.  
Eldoshlarim...  
Ko'nglimga tumorlar taqqan, eldoshlarim,  
Ko'nglimga joni mday yoqqan, eldoshlarim,  
Eldoshlarim...  
Kechadan omonlik tilayman sizga,  
Oq daryolar oqsin eshigingizdan.  
Kunduzdan omonlik tilayman sizga,  
To'danalar bo'lay beshigingizda.  
Eldoshlarim...  
Menga so'zlar bergan, menga kuy bergan,  
Bir-biriga ularshgan qator to'y bergan,  
Eldoshlarim...  
Ming bora aylanay himmatingizdan,  
Taqdir suyub bergan davlatingizdan,  
Eldoshlarim...  
1983

\* \* \*

Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Kaptarlar don terib yedilar undan.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Yulduzlar qon so'rib edilar undan.  
Mening qo'lim ochiq, ko'llarim ochiq,  
Turnalar arg'imchok soldilar unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Yo'llarning izlari qoldilar unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Kun va tun bir-birin topdilar unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Qutblar bir-birin o'pdilar unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Erkakka topindi bor ayol unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Ilk bor meva tugdi majnuntol unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Kezdi suluvlarning qo'llari unda.  
Mening qo'lim ochiq, qo'llarim ochiq,  
Sening ko'llaringdan ayrilgan kundan!  
1982

Sumbula

Бўх Sumbula-yo, Sumbula,  
O'rab olay gul bilan.  
Mening ko'nglim siz bilan-ey,  
Siz ketasiz kim bilan?  
Sumbula, jon, Sumbula.Бўк  
Turnalarim ketmoqdalar ko'z yoshday qator-qator.

Turnalarim ketmokdalar sochlaringizday uzun.  
Osmonda bulut bo'lib yig'laydi g'amgin bahor,  
Qaldiroqlar qulab ketar ko'kdan yerga siz uchun.  
Sumbula, jon, Sumbula.

Siz ketasiz kim bilan?  
Oh chekaman, ko'zlarimdan zor-zor oqadi Surxon,  
Xayolimning osmonini qoplaydi sirli titroq.  
Yurakkinam bo'zlab chiqar tun bo'yish shamday giryon,  
Yurakkinam - kemalari qaytmagan yetim qirg'oq.

Sumbula, jon, Sumbula  
Siz ketasiz kim bilan?  
Ochiq qolgan qo'llarimda titrar tola sochingiz.  
Ketajaksiz, bir tola soch uzun-uzun xotira.

Kimlarga yor bo'lg'usidir ul munis qaroshingiz,  
Sumbulajon yig'lar bo'ldi hijronlarga asira.  
Sumbula, jon, Sumbula,

Siz ketasiz kim bilan?  
"Alvido..." deb ko'zlarimning qarog'idan uchyapsiz,  
Turnalarim ketmoqdalar ko'ksimdag'i osmondan.  
Jimgina boshlar egik, kelin bo'lib ketyapsiz,  
Aro yo'lida bir yurak tushib qolar karvondan.  
Sumbula, jon, Sumbula,  
Siz ketasiz kim bilan?

#### Baxtning O'lchovi

Bir ajab quyoshli kunlar boshlandi...  
Har kun yo'l chetida changlarga botib,  
O'ynab o'tirar bir yalang'och bola.  
Dunyoda eng baxtli odam shu bola,  
Quyoshni simirar, yellarni ichar,  
Hovuchlab tuprokni sochar boshidan,  
Kir-chir badanlari yayrab, entikib,  
Osmonning moviy chalobin simirar.  
(Asta kostyumingni yechib qo'yasan).  
Shappatilab ko'yib qorniga bola,  
Tanin qitig'lagan nur barmoqlarin  
To'zg'itib qushlarday haydar nariga.  
Quyosh bo'yinlarin qashlaydi uning,  
Paxmoq sochlariga ko'milib ketar...  
(Yechasan bo'yinbor, ko'yaklaringni).  
Kun uxlar bosh qo'yib boldirlariga,  
Kir-chir tovonlarin yuvadi tuproq...  
Baxtli bo'lging kelar shu bola kabi,  
Kuyoshli kunlarning ichida baxtli...  
Yechasan botinkang hamda shimingni,  
Shunda birdan kulib yuborar bola,  
Qiqirlab-qiqirlab kulaveradi.  
Uyalmasdan shundoq yo'lning chetida  
Kap-katta odamning yechinganidan  
Kuladi yalang'och, aqli bola.  
Kiyib ololmaysan quyoshli kunni -  
Bu baxt o'lchanmagan sening ruhingga,  
Bu baxt ming gaz katta sening tanangdan.  
1985

#### Aruz

Temir xalajidan  
Ters o'tgan momo,  
Qurbaqanining butiga shardoz boylab ber endi,  
Yig'layapman... Yeg'li-yog'li ilik chaqib berendi,  
Kelim-ketim dunyodan  
O'ng o'tgan momo,  
Suruv-suruv qayg'ulardan suluv saylab ber endi,  
Ola toshdan qoq yelkamga tumor taqib ber endi.  
Temir xalajidan

Ters o'tgan momo,  
 Qurbaqaning sol butiga ko'k tomirim boylandi,  
 Ko'r qurbaqa meni sudrab zindon bo'ylab aylandi.  
 Kelim-ketim dunyodan  
 Keng o'tgan, momo,  
 Talonzada ko'kragimga avrab gulmix qokdilar,  
 Ichidan qo'sh daryo oqqan iligimni chaqdilar.  
 Temir xalajidan  
 Ters o'tgan momo...  
 1987

## Qodir Baxshi Yodi

- Og'am, aytgin,  
 Chanqovuzni kim chaldi?  
 - Chimmat tutib kuyov kutgan kelinlar chaldi.  
 - Sarbon, aytgin,  
 Chanqovuzni kim chaddi?  
 - Qaqshab-kaqshab qumda qolgan qulunlar chaldi  
 - Singlim, sen ayt,  
 Chanqovuzni kim chaldi?  
 - Dalalarda kuyib ketgan oylarim chaldi.  
 - Ona, sen ayt,  
 Chanqovuzni kim chaldi?  
 - Bolalarim tashlab ketgan kuylarim chaldi.  
 - Elim, sen ayt,  
 Chanqovuzni kim chaldi?  
 -Tomirimga qo'nib o'tgan bir bulbul chaldi.  
 -Baxshim, sen ayt,  
 Chanqovuzni kim chaldi?  
 -Ko'kragida erk chayqalgan ena el chaldi.  
 1987

## Kuyovmunchoq

Zarpardalar tillo sochib,  
 Kulgu sochib qiqirlaydi.  
 Ikki oqkush uchmay-uchib,  
 Ko'kragingda pitirlaydi.  
 Sinar baxmal devorlarda  
 Chasir-chusir titrog'ing,  
 Ko'zimdagi kaptarlarga  
 Tizilgan don munchog'ing.  
 So'zanalar suzilishib,  
 Sollanadi, yoqadi.  
 Qirq o'rim soch tizilishib  
 Tovoningga oqadi.  
 Zar kashtalar gullar sochib,  
 Durlar sochib piqirlaydi,  
 Ichida mohbaliq qochib,  
 Ko'ylaklaring shitirlaydi.  
 Xo'p tortinar, xo'p qimtinar,  
 Ochilarkan quchog'ing,  
 Eningga kaptarlar qo'nar,  
 Chirt uzilar munchog'ing.  
 1987

\* \* \*

Ot aylanib qozig'ini topganda,  
 Zot aylanib tuzlig'ini topganda,  
 El aylanib o'zligini topganda,  
 Sen aylanib qayerlarga ketding, yor,  
 Kimga arzon, kimga qimmat bu bozor.  
 Bir boshimda ming-ming savdo o'ynadi,

Ko'z yoshimga ikki dunyo qaynadi,  
 Ko'pga bergan bir novdasin qiyomadi,  
 Nelar bo'ldi, nelar bo'ldi, aytgin, yor,  
 Kimga omad, kimga kasod bu bozor.  
 Bu yerlarga yulduz tilab keldim men,  
 O'z poyimga o'tin qalab keldim men,  
 Kim o't yoqsa, o'chog'iga to'ldim men,  
 Chimildig'ing chirqillaydi, kuygan yor,  
 Kimga omad, kimga kasod bu bozor.  
 1987

## Sotqinlik

БҶИХамтовоқ bo'ldimmi yoki it bilanбТК.  
 "Avazxon" dostonidan  
 Osh keltirding bir tovoq,  
 Bir it menga hamtovoq.  
 Oh-oh-oh!  
 Osh ustida yuragim  
 Ustixon ekan evoh!  
 Voh!  
 Kuyib ketdi birpasda  
 Yelkamda qirk farishta  
 Uh!.. Uh!.. Uh!..  
 Qirq mulla muk tushgancha  
 Dam solar harom oshga -  
 Kuf! Suf! Kuf!  
 "Ustixonni oling" - der,  
 Yelkamga mingan qirq dev.  
 Tuf... Tuf... Tuf...  
 Sovumay titrar hamon  
 Osh ustida ustixon.  
 Fuf! Fuf! Fuf!  
 1987

## Sog'in. Befarzand Ayol

Ho'o'sh-ho'o'sh... Ho'o'sh...  
 Govmishim, iysin suting,  
 Bag'rimda bo'g'ma tutun,  
 Oq siynamning ostida  
 Qobirg'alarim o'tin.  
 Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh...  
 Yelinda sut tizillar,  
 Qo'sh ko'kragim izillar.  
 Kuygan sahro - bag'rimda  
 Yonar shamol bezillar.  
 Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh...  
 Bir tirnoqqa zor bo'ldim,  
 Egasiz mozor bo'ldim,  
 Baxti toshga boylangan,  
 Tosh kabi nochor bo'ldim.  
 Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh...  
 Quyun o'ynar izimni,  
 G'am qovurar ko'zimni.  
 Govmishim, seni emas,  
 "Ho'sh-ho'sh"layman o'zimni  
 Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh...  
 1987

## Yetim Bola

"O'g'liga berdi butun kulcha,  
 Menga berdi kuyuk kulcha".  
 Bolalar fol'kloridan

Bug'doyzorlar shovullar  
 Tun kelib, kun o'tguncha,  
 O'gay onam chuvillar,  
 Bergani kuyuk kulcha.  
 Kechani kechib chopdim,  
 Oy tinqildi tomoqqa.  
 Ustimga bulut yopdim,  
 Beminnat uxlamoqqa.  
 Paxtazorlar gurkirar,  
 Paxta... Paxta - to'rt tomon.  
 O'gay onam chuldirar,  
 Bergani yirtiq ishton.  
 Chopdim quyosh tig'ida  
 Tovonim tilim-tilim.  
 Ko'ylagim yirtig'idan  
 Mo'litrab qarar ko'nglim.  
 Ich-ichida ko'nglimning  
 O'z onam yig'lab turar,  
 Quroq-quroq dilimni  
 Kuyinib yamab yurar.  
 Hayot, zamon guvlaydi,  
 Kunlar qimtinib o'tar...  
 O'gay onam elakka,  
 Otam bozorga ketar.

1987

## Muhabbat

Manglayimning o'rtasida  
 Sochlari tillo yulduz.  
 Yonar ikki chakkasida  
 Oydin tun, sarg'ish kunduz.  
 Bir o'choq olov yutdim,  
 Dil gurkirab yondi-ya!..  
 Oyga osib, kunga tutdim,  
 Yulduzim o'yg'ondi-ya.  
 Ko'zlarim qorasida  
 Sochlari tillo yulduz  
 O'tli dil orasidan  
 Dildirab qarar bir qiz.  
 Qizga shafaqni yopdim,  
 Chayqaladi chimildiq.  
 Qiz bilan chimildiqda  
 Tillo sochga ko'mildik.  
 Oq parda suv ustida  
 Oqar. Yulduzlar kuyar.  
 Endi yurak faslida  
 Bulbullar qaytib kelar.

1987

## Xalq Ohangida

Oybulutnnng orasidan oyday kelinlar kelar,  
 Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar.  
 Taram-taram sochlар, mana, boylar ko'ngilni,  
 Qalam-qalam qoshlar yana naylor ko'ngilni.  
 Tog'larimning toshlarida tonglar yorildi,  
 Ohlarimning yoshlaridan tunlar tirildi.  
 Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar,  
 Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar.  
 Darbozada daraxshona olovlar yonsin,  
 Sochlар sirin sulb, mastona kuyovlar olsin.  
 Oydin oy ham bag'ringga jim botar biram-ey,  
 Gulchambarday bo'yningga qo'l osar jo'ram-ey.  
 Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar,  
 Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar.

1987

## Xun Ayoli Haqida Qo'shiq

Osmonga sanchilingiz,  
 Motamning bayroqlari,  
 Karo daryo bo'lingiz,  
 Ko'zlarning karoqlari.  
 Men yorimdan ayrildim-a,  
 Men yorimdan ayrildim.  
 Yelkasiday mahkam deb  
 Bosh qo'yaman toshlarga,  
 Men yomg'irni yengaman  
 Yomg'irday ko'z yoshlar-la.  
 Daraxtlar qarsillaydi,  
 Kaldiroqlar bo'kirar.  
 O'rmonning quchog'idan  
 Chiqib kelar bug'ular.  
 Yorimni qaytib bergin,  
 Bug'u, Bug'u, Bug'ujon.  
 Nayzalarni sindirgin,  
 Baxtni qilmasin qurban.  
 Cho'ng Qoya, tashlab yubor  
 Yelkangdan osmoningni,  
 Bug'ular jum ketdilar  
 Tinglamay armonimni.  
 Qaldiroq gumburlaydi,  
 Osilar olov tillar.  
 Ayolning ko'kragidan  
 Otilar yerga gullar.  
 Yomg'irlarning mavjida  
 Yuvilarn qonli tana.  
 Qora o'rmon qo'ynidan  
 Qaytar bug'ular yana.

1987

## Potini[3]

Potini-ya, potini,  
 Bir chaqmoq yulib o'ynar  
 Tilimning qanotini.  
 Jim. Jim.  
 Potini-ya, potini,  
 Xotiramdan o'chirdim  
 Yuragimning otini.  
 Jim. Jim.  
 Potiniya, potini,  
 Ruhim soqov, eldan chikdim  
 Men yog'iymga sotilib.  
 Jim. Jim.  
 Potini-ya, potini,  
 Qo'ynimda uxlayotir  
 Xiyonatning xotini.  
 Jim. Jim.  
 Potini-ya, potini,  
 Tilimni tishlab turib  
 Chappa quydim otimni.  
 Jim. Jim. Jim.  
 1987  
 O'ttizinchi Yillar

Kaftlarim toshga to'la,  
 Otolmagan toshlarim...  
 Kimga otay? Kimga otay?  
 Ko'zlarim yosha to'la  
 To'kolmagan yoshlарim...

Kimga sotay? Kimga sotay?  
 Kiflilarim boshga to'la  
 Do'stdan qolgan boshlarim..  
 Qayga ketay? Qayga ketay?  
 Ko'nglim quyoshga to'la,  
 Zanjirband quyoshlarim...  
 Endi netay? Endi netay?  
 1987

## Vido

Qanotidan qon tomchilab  
 Qushim ketdi, chinni qushim.  
 Yuragimdan mix tortqilab,  
 Sug'urolmay sindi tishim...  
 Sindtishim.  
 Tomog'imga qultum-qultum  
 Muz tiqildi - so'z tiqildi,  
 Yulduzchalar "qult-qult" etib,  
 Qaynab yotgan ko'z tiqildi.  
 So'z tiqildi.  
 Qanotini qora bulut  
 Qora suvga yuvgan qushim.  
 O'rgimchaklar uyalagan  
 Bulutlarga to'ldi tushim.  
 To'ldi tushim.  
 Qanotidan qon tomchilab  
 Qushim ketdi, chinni qushim.  
 Chinni qushim.  
 1987

## Orol

Ko'k eshakni minibsan,  
 Ko'k paranji yopinibsan,  
 Ko'kaylari kesilgan Ayol,  
 Ko'krak suti buzilgan Ayol,  
 Bir el elanadi: qo-ol!  
 Sho'r boshing yopinar ko'k bulut.  
 Tegrangda shamollar tizilar.  
 Havoda suzadi ko'k tobut,  
 Ko'm-ko'k kuy ko'klardan uzilar.  
 Ko'kaylari kesilgan Ayol,  
 Bovri yurtdan uzilgan Ayol,  
 Bir yurt yolboradi: qo-ol!  
 Ko'kaylari kesilgan Ayol,  
 Joni yerga sepilgan Ayol,  
 Ko'ngli ko'kka to'shalgan Ayol,  
 Bir Vatan elanar: qo-ol!  
 1987

## Baxt

Hali kapalaklar kelib o'ynaydi -  
 Ko'ksimda ochildi ajoyib gullar.  
 Hayratdan biron so'z topa bilmaydi  
 Dunyodagi tirik va o'llik tillar.  
 Hali shahanshohlar kelib qutlaydi -  
 Ko'ksimda ochildi ajoyib gullar.  
 Dunyodan endi hech yig'lab o'tmaydi,  
 Hamon bir nur izlab yig'lagan qullar.  
 Hali kelinchaklar kelib kuylaydi,  
 Endi chimildiqqa kirgan suluvlar.  
 Osmon quvonchidan to'yib yig'laydi,  
 Ma'budlar boshimdan sochar oq suvlar.

Erta visoliga qarab shoshgayman,  
 Yongan yuragimni tabriklar yo'llar.  
 Sizni va o'zimni qutlay boshlayman -  
 Ko'ksimda ochildi ajoyib gullar.  
 1987

\* \* \*

Davlatli begoyim, erkli begoyim,  
 Biza muruvvat qil, ko'rkli begoyim.  
 Xudo tumor taqib boshing boylamish,  
 Bandaga darchasi berkli begoyim.  
 Ishqing charxi dunni vayron ayladi,  
 Olam oxirati turkli begoyim.  
 Bir ko'ngilni tashlab ketdim dunyoga,  
 Menga bu dunyo na, erkli begoyim,  
 Senga bir ko'ngil na, ko'rkli begoyim.  
 Himmel begoyim, sulton begoyim,  
 Sulaymon taxtida hayron, begoyim.  
 O'zing obodsen-u, davlating obod,  
 Poyingda ikki dun vayron, begoyim.  
 Bir kulging o'g'irlab ketdim dunyodan,  
 Senga bir kulgu na, xush'on begoyim,  
 Menga bu dunyo na, sulton begoyim.  
 1987

\* \* \*

O, mening sumanbar kelinchagim-ey,  
 Kel, birga kuylaylik,  
 Zarafshon chimildiqning xushbo'ylar cho'kkani  
 Eng qorong'i xilvatgohida.  
 O, mening sarvqomat kelinchagim-ey,  
 Kel, birga o'ynaylik,  
 Hudhudlar qanoti - zardevollarning  
 Oq bulutlar cho'kkani xilvatgohida.  
 O, mening shakkarlab kelinchagim-ey,  
 Kel, birga yashaylik,  
 Yam-yashil tovuslar ko'karayotgan  
 Alvon so'zananing xilvatgohida.  
 O, mening zarkokil kelinchagim-ey,  
 Kel, birga sevaylik  
 Lolalar suykalib jon berayotgan  
 Hayotni do'zaxlar xilvatgohida,  
 Kel, birga sevaylik.  
 1987

Oydin Qayg'u

O'n olti yoshimning diyorlarida  
 Qizg'in shafaqlarni kiygan kunsuluv,  
 Tunlarning sim-siyoh daryolariga  
 Daryo sochlarini chaygan tunsuluv.  
 Tilim sochqi tovush - qanisanuv  
 O'n olti yoshimning diyorlarida  
 Yalpizlar sutidan to'yan gul suluv,  
 Yulduzlarning tillo kipriklarida  
 Shokila-shokila yongan dursuluv,  
 Ko'nglim yetim qush - qanisanuv  
 O'n olti yoshimning diyorlarida  
 Toshlar chanqovuzin chalgar kuysuluv,  
 Yuragimning g'arib shoxchalariga  
 O'ttiz xil ko'ylagin ilgan oysuluv,  
 So'zmas, bu uzun tush - qanisanuv  
 O'n olti yoshimning diyorlarida

Qizg'in tomirlarim sochgan jonsuluv,  
 Qobirgalar qisgan qizraldoqlarning  
 Og'zidagi qulfini ochgan ruhsuluv,  
 Ko'zlarim bo'sh-bo'sh - qanisanuv  
 1987

## Xayrli Tun

Xayrli tun, sayroq qushlarim,  
 Xayr sizga, sirli darchalar.  
 Oy nuriga to'ling, tushlarim, ..  
 Sokin uxlang, yaydoq ko'chalar.  
 Xayr sizga, omon bo'ling-ey,  
 Tuyaqushday qotgan g'aramlar.  
 Yuragimga mehmon bo'ling-ey,  
 Yuragimdan ketgan sanamlar.  
 Xayrli tun, kungi kulgular,  
 Hijolatli xatolar, xayr.  
 Huv qoraygan o'tovlar ichra  
 Qolib ketgan otalar, xayr.  
 Bug'doyzorlar kuyin kashf etgan,  
 Devonavash shamollar, xayr.  
 Erlariga o'g'il baxsh etgan  
 Pok parivash ayollar, xayr.  
 Dalalardan nasiba tergan  
 Qaro ko'zli singillar, xayr.  
 Bugungina muhabbat kirgan  
 O'n olti yosh ko'ngillar, xayr.  
 Xayrli tun... Xayrli tun...  
 1986

Mehrjon kuni[4]  
O'g'lim Mehreddinga

O'yna yulduzlar bilan,  
 Oy bilan o'yna, bolam,  
 Mehrjon kuni bugun.  
 Laylakning qanotida  
 Yoz chayqalib keladi,  
 Quyoshning ko'kragidan  
 Sut chayqalib keladi.  
 Mehrjon kuni bugun.  
 Qaldirg'och qanotidan  
 Gul to'kilib qoladi,  
 Yer-u osmon bag'rige  
 Baxt ekilib qoladi.  
 Mehrjon kuni bugun.  
 Senga osmonni berib  
 Qushlar kelib ketadi,  
 Momong yoqqan tandirlar  
 Nonga to'lib ketadi.  
 Mehrjon kuni bugun.  
 Oq bulut xurjunidan  
 Ok bug'doylar to'kilar.  
 Bugun gul g'unchasidan  
 Oyday qizlar tug'ilari.  
 Mehrjon kuni bugun.  
 1987

## Umumi Vagon

Shov-shuv, g'ala-g'ovur alahsib kular,  
 Toliqib ketasan juda, suygulim.  
 Oydin tushlar ko'rib uxlaying kelar,  
 Toshday o'tirg'ichda ochilgan gulim.  
 Ibosiz shovqinlar, xunuk xurraklar  
 Tortinchoq ruhingni qiynaydi yomon.

Arosat tilida bidirlab borar,  
 Umumiyl vagonni kiygan olomon.  
 Xech narsa anglatmas, eslab bo'lmaydi  
 Tarixday orqada ezilgan yo'lni.  
 Chiranib baqirgan ko'zlar ko'rmaydi,  
 Uyalib qizargan ma'yus bir gulni,  
 Toliqib ketasan juda, suygulim,  
 Kim qiyqirar, kimdir so'kinar yomon.  
 Shunday otgani tosh bo'ladi, gulim,  
 El emas, birlashsa agar olomon.  
 Toliqib ketasan... Yelkamga titrab,  
 Og'rinib,- tortinib qo'yding boshingni.  
 Turibman tilimni tishimga qayrab,  
 Olomon beparvo otar toshini.  
 Tinglayman yuragim urishdan tinib:  
 O, muncha xo'rsinib nafas olasan.  
 Yelkamga dard bilan titrab suyanib,  
 Shikasta-shikasta uxbol qolasan.  
 Yelkamga tosh kabi botgan tushlaring,  
 Gumburlab urilar yuraklarimga.  
 O'z-o'zidan cho'chib ketgan tushlaring  
 Mahkam yopishadi ko'yylaklarimga.  
 Yelkamda zilzila, dahshatlar kechar,  
 Sen qochib kelayapsan yuragim tomon.  
 Tashvishli tushlarga yangi to'n bichar,  
 Soxta shodliklardan to'yan olomon.  
 Ruhin o'zgalarning ruhi-la yamab,  
 Go'yo bashang tusda juldur olomon.  
 Uni arosatning uyiga qamab,  
 Qayerga eltasani, umumiyl vagon?  
 Yelkamga suyanib uxlaysan, gulim,  
 Uyqung to'la tashvish tutunlariga  
 Suyanib uxlaysan, suygulim,  
 Osmonning titrigan ustunlariga  
 1986

\* \* \*

Keksa donishmandga ayt endi, Bo'ron,  
 Sen xam shivirlab quy, Momoqaldiroq.  
 Muqaddas boshpana - chinordan chiqsin,  
 Axir, bosh urishga yo'q toza oyoq.  
 Yig'lab dardimizni aytaylik unga,  
 Sen yolbor... Sen yolbor, Momoqaldiroq.  
 Shunda ham chiqmasa donishmand... Unda  
 Muqaddas chinorga o't qo'ygin, Chaqmok.  
 1987

## Atala

Musofir ayolning ko'zi yordi,  
 Atala qilishni bilmas edim men.  
 Derazada qolgan gulday sarg'aydi,  
 Atalani kutib musofir ayol.  
 Ayol uch kun kutdi. Uch kun yig'ladi  
 Qozonning boshida musofir sevgi,  
 To'rtinchu kun kuldi g'amgin deraza,  
 Yig'inining ichida jilmaydi ayol.  
 Uddaburro chikdi musofir sevgi,  
 Ko'z yoshdan atala qila bilarkan.  
 Shundan beri sira she'r yozmayman men,  
 Atala qilaman, faqat atala.  
 1988

\* \* \*

Otang seni yo'qlab Toshkentga keldi,  
Endi uyg'on, ko'zingni och, tosh.  
Yetmaydimi senga besh yillik o'lim,  
Otang keltiribdi bir xalta ko'z yosh.  
Unga yuzingni yuv, yuragingni yuv,  
Qara, bosh-odog'ing qop-qora qurum.  
Otang yetmish yilni sudrab kelibdi,  
Seni qo'yvormaydi besh yillik o'lim.  
1988

\* \* \*

Tilimni kuydirdi bulbulning suti,  
Tanglayimni yoqdi gul ichirgan qon.  
Men ikki dunyoni bir hatlab o'tib,  
Og'zimga solganim - bor-yo'g'i talqon.  
Ko'zimni muzlatdi jahannam o'ti,  
Ko'nglimni xor qildi bu "gulzor, chaman"  
Men ikki dunyoni bir hatlab o'tib,  
Ko'z olib ko'rganim bor-yo'g'i tuman.  
Kulog'im kar qildi haqning sukuti,  
Bu sukutmi va yo tilsiz qatag'on.  
Men ikki dunyoni bir hatlab o'tib,  
Eshita olganim bor-yo'g'i yolron.

1988

\* \* \*

O, meni yig'latma...  
Yomon tushlar ko'rib, namozshomgulim,  
meni yig'latma.  
Men poyi pataging bo'lay, qayg'ulim,  
faqat yig'latma.  
Otingdan aylanay, og'rima, gulim,  
meni yirlatma.  
Uh tortsang ustuni qular falakning,  
yig'latma.  
Ko'krak qafasiga yanglishdan xudo  
Ayolning yuragin qo'yan erkakni,  
yig'latma.  
1988

### Yolg'izlik Va Ishonchsizlik

Qorong'i bo'shliqda...  
Qop-qorong'ida  
Bir yurak chayqalib turar muallaq  
O'lik oy burkanar tirik qayg'uga...  
Bir yurak chayqalib turar muallaq.  
Yurakni tortinib urasan: "Kim bor?..."  
Bir sado kelmaydi bu mavhumotdan.  
So'ng qattiqroq urib ko'rasan: "Kim bor?"  
Na o'lim tovshi, na bir sas hayotdan...  
Qayta-qayta urib yurak devorin  
Sen so'rayverasan: "Kim bor?! Ho, kim bor?!"  
Bir sado kelmaydi bu mavhumotdan,  
Hatto to'qillamas la'nati devor.  
So'ng mushtlay boshlaysan alvon devorni...  
So'ng yig'lay boshlaysan: "Kim bor?! Ho, kim bor?!"  
Men unsiz tentiyman yurak qa'rida  
Va ayta olmayman: "Men... Faqat men bor!"  
Bu g'urbatxonada tilni tishlayman,  
Tashqarida esa dod, faryod:"Kim bor?!"  
Ichkaridan men ham so'ray boshlayman.  
Bu g'urbatxonada KIM BOR, HO, KIM BOR?!

1988

\* \* \*

Xafa bo'lib ketdi uyimdan,  
 Kutgan mehmonlarim ming yildan beri,  
 Xafaqon ketdilar ma'lum xabarday.  
 Xotinin tashvishli boqadi menga,  
 Hamon qaytmayotir ruhim safardan.  
 1988

## Go'ro'g'li

Goho botirlarni tug'ar qabrular,  
 Goho tug'adilar yetim qasosni.  
 Yer ostiga kirsa barcha shoirlar,  
 Osmondan kutinglar ulug' ovozni.  
 Goho botirlarni tug'ar qabrular,  
 Marhumlar dunyosin ijodi kabi.  
 Yer ustiga chiqar avval shoirlar  
 Dard tutgan qabrular faryodi kabi.  
 1990

## Avralgan Ilon

Men g'amli ilonman, qayg'uli ilon,  
 Avralgan chumchuqday chirqiraydirman.  
 Issiq mehroblarga boshimni qo'yib,  
 Sovuq ko'zlarim-la ko'p yig'laydirmam.  
 Men g'amli ilonman, qayg'uli ilon,  
 Muqaddas bitik bor oltin boshimda.  
 Bu bitikni o'ymoq mumkin emasdир  
 Na qog'ozga, na-da tog'lar toshiga.  
 Men g'amli ilonman, qayg'uli ilon,  
 Kun bo'yи suyayman so'nggi ustunni.  
 Tunlari bitikni o'ymoqlik uchun  
 Izlarman tashlagan po'stimni.  
 Men g'amli ilonman, qayg'uli ilon.  
 1988

## Ko'ngli Yarim

Ko'nglimning yarmini dunyoga berdim,  
 Yarmidan boshpana qurdim o'zimga.  
 Shundanmi olamda neniki ko'rdim,  
 Yortiday ko'rindi bari ko'zimga.

## Umid

Bir kun kapalakka aylanar bu gul,  
 Bir kun buyuk ruhga evrilar bu tan.  
 Ochilmagan gulday bir mushtga ko'ngil,  
 Va erkka yetishgan bir qushga Vatan.

## Xun Ibodati

Bo'g'zimdan qizarib chiqadi quyosh,  
 Oy qonga belangan - ko'zimdan uchib.  
 Yer-osmon orasi judayam tordir,  
 Yer-osmon haqqiga ibodat uchun.

\* \* \*

Juda alam qilar... Ko'p og'ir botar...  
 Yashaysan ulkan bir yurak bilan...

Dunyo toshin otib tugatgan zotlar  
 Endi hujum qilarlar kesak bilan.  
 1988

## Mening Qo'shig'im

Men seni boladay suysam, netayin,  
 Ko'yingda bevaday kuysam, netayin,  
 Suygunchigim mening, suygunchigim-ay...  
 Tilimni tishlab man kuyib kuylaram.  
 Quvongim kelar-da, nega yig'laram,  
 Suygunchigim mening, ovunchig'im-ay...  
 Bo'sag'a suyanib mung'aysam, kuyma,  
 Men yig'lab olayin, sen esa o'ynab.  
 Suygunchigim mening, suyanchig'im-ay...  
 Dunyodan to'yaram, o'zdan to'yaram,  
 To'yib-to'yib yana seni suyaram,  
 Suygunchigim mening, kuyunchagim-ay...  
 Bu ko'ngil qo'ymasa, men-da netarman,  
 Bir kuni senga aylanib ketarman,  
 Suygunchigim mening, suygunchigim-ay...  
 1988

## Ayroliq

Mening daholarim o'tdi olamdan,  
 Uzlatga chekindi mag'lub do'starim.  
 Zamindan yulinib qolgan hujramda  
 Oy bilan so'lashib yig'lar ko'zlarim.  
 Bir oshno izlaydir devona dilim,  
 Qay taraf qarasam tuman, zalolat.  
 Kuygan yuragimga yetmaydir qo'lim,  
 Yetmaydi o'zimga o'zdan malomat.  
 Qayda dil tovushin tinglar bandalar?.  
 Bir vola qaytmadi ketgan nolamdan.  
 Yer ostida tinchlik, yer usti xatar,  
 Mening daholarim o'tdi olamdan.

1989

\*\*\*

Hasratli hujramda  
 Qayg'udan bo'lak  
 Hamma ketib bo'ldi birma-bir... birma-bir...  
 Dasturxonda faqat kemtilgan yurak  
 Va.. bir kosa sabr...  
 Hasratli hujramda  
 Zilzila tindi..  
 Angraygan eshikni yopib qo'yaman.  
 Yurakning qolganin yeymen-da, endi  
 Bir kosa sabrni ichib qo'yaman.  
 Xasratli hujramda  
 Dunyo ham, men ham  
 Bir-birovdan to'ydik noiloj...  
 Faqat qayg'u och-da, qayg'u juda och!  
 1989

## Ohu

Senga nima bo'ldi, jigarim, singlim,  
 Zil-zambil toshlardan yasagan qanot?  
 Bir panoh berolmas yettita iqlim,  
 Kim senga o'q uzdi bir siqim hayot?  
 Ko'ziga olamning xusni bitilgan,  
 Ko'ksidan suyulgan yulduzlar oqar.  
 Olam o'z chiroyi dafn etilgan

Qabrga - yumilgan ko'zlarga boqar.  
 Kim senga o'q uzdi, jigaram, yuz oh,  
 Kimga huzur berar xiyonat isi?  
 Osmunday begunoh, yerdal begunoh  
 Ular odamzotning so'nggi singlisi  
 1989

\* \* \*

Sen bor-yo'g'i bir so'z bo'lmaiding,  
 Olloh tuhfa etgan bechora dilim.  
 Na-da yashamading, na-da o'lmaiding,  
 Gado to'rvasiga o'xshaydi qo'ling.  
 O, mening ko'p g'arib qushcham, o, dilim.  
 Seni itlar yedi, bitlar yedilar,  
 Sohibi notavon bechora dilim.  
 Yig'lasang, kulsang ham telba dedilar,  
 Na hayot siyladi seni, na o'lim,  
 O, mening ko'p g'arib qushcham, o, dilim.  
 Sen g'amli buloqsan, men esa sahro  
 Jaholat ichinda uyg'ongan dilim.  
 Razillar to'qigan dunyo bu dunyo,  
 Bu Olloh yo'lmas, shaytonning yollı,  
 O, mening bechora qushcham, o, dilim...  
 Men-ku o'tajakman sezmay, sezilmay,  
 Lek sening holingga yig'larman dilim.  
 Hali ko'p yasharsan yerdan uzilmay,  
 Na hayot bor bunda va na haq o'lim...  
 O, mening adashgan qushcham, o, dilim...  
 1989

\* \* \*

Ko'krakda yo'lbarslar uyasi,  
 Olovli qilichlar, chaqmokdar.  
 Alam qiladi-da, axir qorningda  
 Xo'jalik yuritsa qorag'ulolqlar.  
 Ko'krakda shaharlar quladi,  
 Jon so'qdi oyatday armonlar.  
 Alam qiladi-da oliy bandaga,  
 Oyoqqa ilashgan somonlar.  
 Ko'krakda yer shari to'qnashdi  
 O'zidan kattaroq yurak bilan.  
 Alam qiladi-da, bunday yurakni  
 Birgalashib yemoq tullak bilan.  
 Ko'krakdan turnalar ko'chdilar -  
 Qo'shiqning uzilmas karvoni.  
 Sariq chumolilar tashib ketdilar  
 Mamontlar yo'rgaklagan dunyonи.  
 Ko'krakdan burgutlar uchdilar,  
 Changallab uchdilar osmonni.  
 Alam qiladi-da, og'zi burningdan  
 Quysalar bo'g'zingdan to'kilgan qonni.  
 Hammasinga "mayli", hammasinga "xo'p",  
 Qay dilning yo'liga qurban tulporlar.  
 Bugun tobutimni sindirar "to'p-to'p",  
 Ko'krakdan daraxtday o'sgan cho'qmorlar.  
 1988

\* \* \*

Olmalar gullagan xilvat ko'nglimda  
 Bir ayol gullamay yashar jimgina.  
 O'lmas bir qush uya qurdi qo'ynimga,  
 Uya qurdi o'lmas bir ilon yana.

Men kimman? Qanoti kuygan tiramoh,  
 Dunyodan o'tarman shamolday oqib,  
 Bir ayol ko'nglimda gullamay yashar,  
 Bir qush bilan bitta ilonni boqib.  
 1989

\* \* \*

Vojab! Meni ko'p hayratga solar...  
 Tilda ming da'vo-yu, dilda hech ma'no.  
 O'zini har kun bir yangilab olar,  
 O'n bor erdan chiqqan xotinday dunyo!  
 1989

\* \* \*

Ko'ksim uzra yetti jahon chayqalur,  
 Yelkamda yetmish ming zamon chayqulur.  
 Yig'laram, ko'nglimda o'lgan daryodek  
 O'zani qirqilgan iymon chayqalur.  
 Kularman boshimda qora toj kibi  
 Behayo tovlanib shayton chayqalur.  
 Noqis vujudimga qanot tilasam,  
 Sulaymon hudhudiyayron chayqalur.  
 Bu jahon mulkida xarob holimdin,  
 Ul jahon ko'shkida rahmon chayqalur  
 1988

Mamatraim Baxshi

Tilingga chipqonlar chiqqanida,  
 Tylingni chayonlar chaqqanida  
 Men tabib bo'ldim, xalqim,  
 Men tabib...  
 Uzolmay ortidan yoshli ko'zingni,  
 So'ng manzilga kuzatsang bitta so'zingni  
 Men tobut bo'ldim, xalqim.  
 Men tobut...  
 Men so'z deb yayradim, so'z deb qaqshadim,  
 Yurakni o'rtaga qo'yib yashadim.  
 Yuragim so'zlarning dasturxonidir,  
 Yuragim dasturxon, xalqim.  
 1988

\* \* \*

Maysaga qo'shilib titramoq uchun  
 Navoiy bo'lmosg'ing shart emas.  
 G'aribga qo'shilib ingramoq uchun  
 Yassaviy bo'lmosg'ing shart emas.  
 Insunday... Insunday yashamoq uchun  
 Baqo bo'lmoqliging shart emas.  
 Bir bora Vatan deb yig'lamoq uchun  
 Daho bo'lmoqliging shart emas.  
 1990

Sahro  
 (turkumdan)

O, sahro sarvari  
 Suv so'rab keldim...  
 Bu og'och jasadlar, o'tin tanalar,  
 Qumlar daryosida oqurlar qayon?

Shamollar uyasi - bo'm-bo'sh siynalar...  
 Dil qayda, gul qayda, qayda guliston?  
 Pir qayda, ruh qayda, qayda ruhiston?  
 Kuyunga talangan tilanchi ko'zlar,  
 O'yiq kabrlarday nafsidan vayron -  
 Xudodan boshqasın har nenı izler...  
 Dil qayda, gul qayda, qayda guliston?  
 Pir qayda, ruh qayda, qayda ruhiston?  
 Qayda? Qayda ular? Charchar ovozim,  
 Bu achchiq shamollar keltirmas sado.  
 Bir qultum so'z kutar bechora sozim,  
 Atrofda... Atrofda saxtiyon sahro...  
 O, sahro sarvari,  
 Suv so'rəb keldim...  
 1990

\* \* \*

Oppoq bulut kiyib o'tdi marhumlar...  
 Ko'limda hamyon-u, egnimda jubba.  
 O'tdilar xayolga, So'zga mahkumlar,  
 Ko'zimda dunyo-yu, so'zimda tavba.  
 Oydin kecha edi... ko'p g'amgin kecha...  
 Oppoq bulut kiyib o'tdi marhumlar,  
 Hayot o'zicha-yu, xayol ayricha,  
 Bir ko'ngil ustida minglab hukmlar.  
 Tilimda daryo-yu, dilimda olov,  
 Ortda - so'z, oldinda o'ynar raqamlar,  
 Oyoqda paytava, qo'linda yalov,  
 Holimga kulganday bo'lar marhumlar.  
 Goho so'nib qolib, gohida toshib,  
 O'zni jamlay olmay o'tayotirman,  
 Holimga qarayman: o'ttizdan oshib,  
 O'ttizga bo'linib ketayotirman.  
 1990

Zalolat

...Ibodat suvidan...  
 ... Muhabbat qonidan...  
 Jom kabi simillab to'lishdi bu dil.  
 ... Oy quyun qa'rida...  
 ... Kecha qo'rqinchli...  
 Zulmat sohilida imillaydi yil.  
 ... Tuyalar faryodi...  
 ... Yilqilar nolasi...  
 Sahrodan osmonga yiqlilar.  
 O'n uchinchi oyda qonlarga botgan  
 Oylarni tug'dilar yilqilar.  
 ... Ibodat suvidan...  
 ... Muhabbat qonidan...  
 To'la qari jomni ko'tar, ey o'g'lon.  
 ... Oy girdob ichinda...  
 ... Kunga yo'l uzoq...  
 Holimizni sharhla, ey piri muron.  
 ... Ibodat suvidan...  
 ... Muhabbat qonidan...  
 Jom kabi simillab to'lishdi bu dil.  
 Zulmat sohilida imillaydi yil.  
 1990

\* \* \*

Qaytingiz qarg'algan gumroh ayollar,  
 Eshqobil yerda yo'q...

Olmalar yetilar g'amli zirqillab,  
 Ayolday bo'shalar miltiqlar o'qdan.  
 Boshlarda g'oyalar pishar bilqillab,  
 Yo rabbim, nahotki... nahot men yo'qman?..  
 Oltin shaftolilar chirib uzilar,  
 Zubarjad boshoqlar darddan to'liqqan... ,  
 Dinlar qulab ketar, xalqlar buzilar,  
 Yo rabbim, nahotki... nahot sen yo'qsan?..  
 Bulbullar qafasda loqayd semirar,  
 Qullar bo'ynidagi zanjir toliqqan...  
 Ko'nglim devorlarin sichqon yemirar,  
 Yo rabbim, nahotki... nahot men yo'qman?..  
 Avlodlar yetilar g'aribdan g'arib,  
 Qayg'uli ko'zlarda sovib yotar o'q.  
 Kimlar Yerni ko'kka qo'y mish to'nkari,  
 Yo rabbim, nahotki ikkimiz ham yo'q?..  
 1990  
 \* \* \*

Qo'lllarim davlatdan bo'shagan sari  
 To'lib boraverar yuragim.  
 Ko'zlarim zulmatdan bo'shagan sari  
 To'lib boraverar yuragim.  
 Imonim tuzumdan bo'shagan sari  
 To'lib boraverar yuragim.  
 Yuragim o'zimdan bo'shagan sari  
 To'lib boraverar yuragim.  
 1990

Qadimi Bitiktoshlarga Yozuvlar  
 I. So'z

Baridan muqaddas so'z bo'ldi faqat -  
 Tangrilar insondan qizg'angan daho,  
 Boshi bir yoqadan chiqqan mamlakat,  
 Mangulikni yo'rgaklagan ibtido.  
 Baridan muqaddas so'z bo'ldi faqat...  
 Olamdan o'tganni tuproq ostiga,  
 Tuproqning ustiga so'zni qo'yidilar,  
 Kuyoshdan uyalib, oydan uyalib,  
 Yalang'och yuraklar so'zni kiydilar.  
 II. Tashlab Ketilgan Ming Yilliklar

Bechora bo'm-bo'sh uy, ey, sag'ir...  
 Rauf Parfi  
 Cho'kkan xarobaday mung'ayib yotgan  
 Ming yilliklar ichra tirik jon bormi?  
 Barbob bo'lgan ellar falakka otgan -  
 Isyon qoldiqlari yo fig'on bormi?  
 Kim bor, ming yilliklar xarobasida,  
 Biron-bir nafas yo bir tovush bormi?  
 Cho'g' tishlab zulmatning iskanjasida  
 Erkinlik qo'shig'in aytgan qush bormi?  
 Sado yo'q... Sado yo'q! Na dard, na zorlar...  
 So'z haykalday o'sgan tosh yelkasidan.  
 Og'zin ochib yotar tilsiz mozorlar,  
 Barbob bo'lgan ellar xotirasiday.  
 III. Unutilgan So'zlar

Boshingiz ustida yig'layman,  
 Ko'zim qarog'ida tunlarni sanab,  
 Singan tobutlardan izlayman,  
 So'zlarim izlayman yuragim qonab.  
 Ruhimda hansirar og'ir qadamlar -  
 So'nggi darmoniga suyangan sabot.  
 Sizni tili bilan tuqkdin odamlar  
 Xotirasini bilan o'ldirsa, nahot...

## IV. Bitiktoшlalar Homilasi

Og'iroyoq toshlarning homilasi - shoirlar,  
 Uch ming yildan beri dardning tishlari bilan  
 Ayamay yuragin tishlab kelgan shoirlar.  
 Toshlarning tor qornida uch ming yildan beri  
 Yuzlab mashrablar yagona bir she'rni aytar,  
 Toshlarning to'lg'ori haqida u she'r...  
 U she'r...  
 Og'iroyoq toshlarning homilasi - shoirlar...  
 V. O'lmas Askarlar

Ko'z o'ngimdan saf-saf so'z askarlari,  
 Mungluq yalovlarni ko'tarib o'tar.  
 O'tmishning qon yuzli tosh daftarlari  
 Menga  
 Bir xalq shaklidagi so'zlarni tutar:  
 Qaysining qo'li yo'q... Qaysin oyog'i...  
 Barining og'zigato'lgan yulduzlar.  
 Ma'yus hilpiraydi idrok bayrog'i,  
 Kelar suyaklari qisirlab so'zlar.  
 Bahaybat o'yiq bor ko'kraklarida,  
 Zamonalarning dahshatlari dastidan.  
 Bir Vatanni tutib kipriklarida,  
 Bir xalq chiqib kelar yerning ostidan.  
 VI. Mag'astvi

Mag'astvi, Mag'astvi, buyuk buddaviy,  
 Har kimda o'zgacha ruhiy tantana,  
 Kamolot poyida vujud degan sath,  
 Sen yo'lbars qoshiga bording mardona.  
 Bording, qirmiz to'lqin vujud sathida,  
 Shovullab ruhingga bag'ishlar bayot.  
 Och bars holsiz yotar oyoq ostida,  
 O'mgan tomiringdan to'kilar hayot.  
 Sen shunday mardona-mardona bording,  
 Och yo'lbars taniga kuch bo'layin deb,  
 Yetti bolasiga sut bo'layin deb.  
 Go'zal vujudingdan kechib yubording  
 Mag'astvi, Mag'astvi, buyuk buddaviy,  
 Tomiringdan oqkan chechaklaringdan  
 Ruhning osmoniga uchdi yulduzlar.  
 Yo'lbarsning qurigan emchaklaridan  
 Sut kabi tizillab to'kildi so'zlar.  
 VII. Qoshg'ariy Yodi

Siz nega notinchsiz, Mahmud Qoshg'ariy?  
 Toshni yorib chiqar ulug' yo'lchilar  
 Toshlar to'lg'og'iga doya bo'lmasmi  
 O'zbekistondagi tilchilar?  
 Siz nega notinchsiz, Mahmud Qoshg'ariy?  
 Tilning chehrasini yorgan qamchilar  
 Sinmasmi, Erk degan So'zga aylansa  
 O'zbekistondagi hamma tilchilar.  
 Siz nega notinchsiz, Mahmud Qoshg'ariy?  
 Horitib qo'ydimi adashgan yillar.  
 Tunlari "Devon lug'atit turk"da  
 Qushlarday chug'urlab chiqmasmi dillar.  
 Siz nega notinchsiz, Mahmud Qoshg'ariy?  
 Til - ega, davlar aniqlovchilar  
 Yig'larmi, o'lgan so'z uzra "bolam!" deb  
 O'zbekistondagi tilchilar.  
 Siz nega notinchsiz, Mahmud Qoshg'ariy?  
 Yuraqday yorilib bormokda toshlar,  
 Ulardan shoirlar chiqib kelmokda,  
 Ko'ksini to'ldirgan alvon quyoshlar.  
 VIII. Mutolaadan So'ng

Aylanar so'zlarga surinib dilgir  
 Shafaqlarga to'lib qolgan kengliklar.  
 So'zlarga surinib tinib-tinchimay  
 Falak yelinlarin sog'ar yerliklar.  
 Quroq ko'rpalarga aylanib tushlar,  
 Olov nafas bilan avrar bizlarni.  
 Tun va tong oralirida qisilgan qushlar,  
 Olmaday cho'qiydi qadim so'zlarni.  
 Bitiktoshlar dardin ko'zimga bitdim,  
 Ko'nglimga cho'ktirib nolalarini.  
 Kul bo'lган bog'lardan tergani ketdim,  
 Bobolarning oltin olmalarini.

1984

## Mohiyat

Men ham tangrining bir bitigidirman  
 Va toshga aylanib qolarman bir kun.  
 Nonday uzilarman, balki, tandirdan,  
 Sopolda yozuvga aylansam... mumkin.  
 Va shunda... bilmasman, yerdanmi, ko'kdan,  
 Suvmi, nurmi bo'lib qaytib kelarman.  
 Va shunda... dunyodan anglamay o'tgan  
 Bitikni O'zimni o'qiy olarman.  
 Men ham tangrining bir bitigidirman.

1992

## Anjuman

So'zlar qiyg'os gullar bu kecha...  
 Bir jom obi zamga aylanar sabr,  
 Yashillanib ketar qarri daricha,  
 Peshonangni silar laylatul qadr.  
 Bu bog'da anjuman zamoni yetgan,  
 Bu muslim daraxtlar jannatdan qiyos...  
 Tangri qachonlardir tilingga ekkan,  
 So'zlar Gullayotir Qiyg'os Va Qiyg'os.

1994

## Mangu Ayroliq Asrlarida

Oltin oyga otar Oybodom,  
 Oybotarda yig'lab yotar Oybodom.  
 Oyqizlarning oyparisi Oybodom,  
 Kunbotardan kuyib o'tar Oybodom.  
 Olma yuzli, bodomqovoq Oybodom,  
 Yoyiq sochi yonar bayroq Oybodom.  
 Yil botarda cho'kar qora suvlarga,  
 Bu dunyoda oy kabi toq Oybodom.  
 Shamol, meni Oybotarga olib ket,  
 Quyun, meni kunbotarga olib ket,  
 Hayot, meni Oybodomga olib ket,  
 Olloh, meni muhabbatga olib ket.  
 Kunbotarda bir bahodir bo'loyin,  
 Oybotarda laylatul qadr bo'loyin.  
 Yilbotarda Ollohdai sir bo'loyin,  
 Oybodomda Oy ko'ngli ne biloyin.  
 Shamol, meni... hayot meni... olloh meni..  
 Kayg'u yurti - Oybodomga olib ket.  
 Oybotarda yig'lab yotar Oybodom,  
 Oyga oltin olma otar Oybodom.

1991

\* \* \*

Bunga bir yildan so'ng gullar keladi,  
 Eshikni yurakday qoqarlar "duk...duk..."  
 Yalpaygan ostona javob qiladi:  
 "Eshqobil uyda yo'q!"  
 O'n yildan so'ng kelar beva shamollar,  
 Tog'larning ko'zidan sachrab ketar do'q:  
 "Qaytingiz, qarg'algan gumroh ayollar,  
 Eshqobil yerda yo'q!"  
 Turnalar keladi yuz yildan keyin,  
 Har biri tumshuqda keltirar bir cho'g'.  
 Va moviy bayroqlar bosh silkir mayin:  
 "Eshqobil ko'kda yo'q..."  
 Bu o'tar dunyodan ming yil ham o'tar,  
 Kelarsan... Yer-osmon botadi terga.  
 Shunda kesaklardan o't chiqib ketar:  
 "Eshqobil shu yerda!"  
 1992

\* \* \*

O'tdan-da, suvdan-da, topmadim zavol,  
 Falak kuyindilar to'kdi boshimga,  
 Qayerdan kirding sen, farishta ayol,  
 Qayg'uli yigirma besh yoshimga.  
 Bu yoshning tuynuksiz bir hujrasida  
 Ma'yus o'lтирарсан... Tizzangda kashta...  
 Ipak eshib yuragining tolalaridan  
 Qayg'u gulin chizayotgan farishta.  
 Yuz yilki, sen ma'yus... Tizzangda kashta,  
 Yuz yilki, cho'milmas hurlar tushimga.  
 Yuz yilki, har kuni yuz bor qaytaman  
 Qayg'uli yigirma besh yoshimga.  
 Yuz yilki, bu yerdan ketolmasman hech,  
 Bu g'arib hujrada tugagan yo'lim.  
 Tizzangga bosh qo'yib yig'layman kun-kech,  
 Tizzangda ulg'ayar qayg'uning Guli.  
 1991

\* \* \*

Lab tekkizsam karsilladi oy,  
 Tirnoq ursam charsilladi loy,  
 Ichsam, ichda olovlandi soy, -  
 Dil kosasi lim-lim muhabbat.  
 Qo'l uzatsam, chaqmoqlar qo'ndi,  
 Oyoq bossam, so'qmoqlar yondi,  
 Menden yaxshi-yomonlar tondi,  
 Dil kosasi lim-lim muhabbat.  
 Ko'ksim ichra raqsga tushar jon,  
 Tirnog'idan sochi qadar qon,  
 O'ldim dedim, o'lganim yolg'on,  
 Dil kosasi lim-lim muhabbat.  
 Dayri dunning sahnasi hayron,  
 Ishq elining dahmasi vayron,  
 Men adashgan qush kabi sayron,  
 Dil kosasi lim-lim muhabbat.  
 1992

\* \* \*

R. P.

Tilsiz shovullaydi uzun sochlaring,  
 Noma'lum shevada inchkir daraxtzor.  
 Qurbon tilamasdan kamon qoshlaring,

Mening qurbon bergen dunyolarim bor.  
 Axir, nima kerak, ne kerak, aytgin,  
 Bir nafas hayotmi, bir piyola qon?  
 Men sening hukmingga mahkumman, mahkum,  
 Aqalli bir so'z top, kambag'al zabon.  
 G'ayridin sukulning dahosi o'zing,  
 Yetarli sajdalar, vahmu ibodat,  
 Zalolat yurtidan izladim to'zim.  
 Yurak kattalashar sendan, sukunat,  
 Tobora kichrayib boraman o'zim,  
 Yurak bilan senga bo'lib omonat.  
 1988

**БӨНМЕНБӨК Tajribasi**  
 ("Tanazzul" turkumidan)

Sug'urib oldilar ichidan "Men"ni  
 Hayotning shoh tomiri kabi.  
 Ko'ziga tiqdilar Bugunni,  
 Kechasi, Ertasi ketdilar sabil.  
 Dardlar, xotiralar quvg'indi, daydi,  
 Tuyg'ular egasi o'lib dovdirar.  
 Vatan devorlarin tagin kovlaydi  
 Ichida "Men"i yo'q gavdalar.

Shoir

Hayot tarozisi - yelkamda xurjun -  
 Bir ko'z yengil shodlik, bir ko'z ogir ram.  
 Bu dunyo bo'm-bo'shdir, men esa gavjum,  
 Kushlar qo'nalrasi yetim qobirram.  
 1988

\* \* \*

**БӨНСУВГА cho'kib ketgan. bolam, yoshligim** Б. R. Parfi

Darichang poyida o'lganda gullar,  
 Adashgan darakchi qushlarni kutib...  
 Umrimni xomtalosh qilganda yo'llar,  
 To'rt milliard odam yelkada tutib,  
 Mening yoshligimni olib o'tdilar.  
 Muzday derazada qarir nigohing,  
 Armon to'shagina o'ylaring qarir...  
 Silkip tashlaganda falakni ohing,  
 Buddanining sinig'i kabi ko'tarib,  
 Mening yoshligimni olib o'tdilar.  
 Ko'z yosh-la suvlaydi gullar qarg'ishni,  
 Hijron panjasida o'ksinar qismat.  
 Momo Havo jannatda ochgan urushni  
 Sening eshigingda cheklar muhabbat.  
 Mening yoshligimni olib o'tdilar.  
 Qaqnuslar yulduzlar ushog'in terib,  
 Qora shamollarga oq sirlar aytdi.  
 Yuragingni timmay aylanaverib,  
 Buyuk bir Eraning keksaygan payti  
 Mening yoshligimni olib o'tdilar.  
 Qisilib qolganda quyosh darchangda,  
 Juldur kunlarimga boqqanda g'arib...  
 Kuzni kelin qilgan xorg'in ko'changdan  
 Sening bolang kabi kiftda ko'tarib,  
 Mening yeshligimni olib o'tdilar.  
 1988

Portreti Ishlanayotgan Ayol Qoshida

So'zmas, bu lablardan cho'g'lar uzilar,  
 Jamlab ayol mehri, sabotlarini.  
 Ko'ngilchan qo'llaring avaylab silar  
 Tanbal kresloning qanotlarini.  
 Men esa, shamolday hovliqma, shoshqin,  
 Bepoyon o'zini yig'a olmagan.  
 O'lgan daryolarga bergan-u toshqin,  
 O'zida irmoqning cho'g'i qolmagan.  
 Sen ma'yus va go'zal o'tirar ekan,  
 Tanqis bir hayodan yonar bo'yoqlar.  
 Titrar ikki dunyo birga yaratgan  
 Yigirma asrning kashfi oyoqlar.  
 Senga yo'lay olmas razolat, balo,  
 Falakning betakror nodir ijodi.  
 Nega uchib ketmas badbaxt kreslo,  
 G'am, baxtdan og'irmi uning qanoti.  
 Senga munosiblik qilmasman da'vo,  
 Lekin ulug'vordir senga havasim.  
 Qahrabo toshlarga aylangan havo -  
 Sening huzuringda olgan nafasim.  
 Dunyoni yagona tilda sayratar  
 Tegrangda shovullab nurning toshqini.  
 Adashgan olamni qayta yaratar  
 So'nggi go'zallikning vazmin bosqini.  
 Sening lablaringdan tonglar uzilar,  
 Asrab dunyolarning hayotlarini.  
 Surating bitguncha uchirma qilar  
 Ko'ling kresloning qanotlarini  
 1988

## So'fining O'ligi

Qorong'i bir g'orda bir ilon yashar,  
 Uyalab yotadi bir qora shamol...  
 Bir so'fi murdasi lovullab yotar,  
 Besh yuz yildan beri ana shunday hol.  
 So'fining o'ligi har kun bir hikmat  
 Aytadi... Kitobga yozadi ilon.  
 Besh yuz yil narida yotar haqiqat,  
 Besh yuz yil berida laqillar yolg'on.  
 G'or shiftida ulkan o'rgimchak har kun,  
 O'likka bir kafan bichar bemalol.  
 Qari ilon ganjni qo'riklab yotar,  
 Har kun yirtib tashlar kafanni shamol.  
 1990

## Suv

Bekor qolganda-chi, ba'zida sekin  
 Bir-birin tagiga suv quyar.  
 A. Oripov  
 Daryolar quridi, ko'llar qatqaloq,  
 Sahroday qaqraydi ko'zlarimiz ham.  
 Qiyomatdaid oldin haq qilib taloq,  
 Qadrsiz lafz ila so'zlarimiz ham."  
 "Bizlarga suv kerak, katta suv kerak!"  
 Haq esa so'raydi to'lovsiz xunni.  
 Ko'za sindirganning ra'yiga qarab,  
 Oshkora xo'rладик Sayxun, Jayxunni.  
 Sho'r tuzga topshirdik takdirimizni,  
 Hamon beparvomiz, hamon bema'ni,  
 Dengizga emas-da, bir-birimizning  
 Tagimizga kuyib ikki daryoni.  
 1990

Mangulik Lahzasi

Yurakning ichida o'tiribman jim,  
 Tushiga qaytaman bu oqshom uning.  
 Bulbulning patidan juldur ko'ylagim  
 Qonlari sachragan namozshomgulning.  
 Yurakning ichida mung'ayib, g'amli...  
 Janda bulutlarga o'rab oyog'im,  
 Qora suyaklarin qalayman shomning  
 Shafaq o'chog'iga o'tinday tag'in...  
 Yurakning ichida o'tiribman jim,  
 Ikki dunyodan-da o'zimni tiyib.  
 Vulqonning bag'rida o'tiribman men,  
 Buddaning eng so'nggi terisin kiyib.  
 Yurakning ichida o'tiribman jim,  
 Men g'arib mehmoni bu oqshom uning.  
 Budda terisiga yurak shiftidan  
 Qoni tomchilaydi namozshomgulning.  
 1988

Evrilish

Men toshni tabarga urib ko'rmasdan,  
 So'zlarni yurakka urib ko'rganman.  
 O'zimning bir qarich yerim bo'lmasdan,  
 Senga osmonlarni berib ko'rganman.  
 Ketding...  
 Sug'urdim yurakning ildizlarini,  
 Oliy tuyg'ularni qo'ydim xatarga.  
 Osmonlar qusmoqda yulduzlarini,  
 Men urib o'ynayman toshni tabarga.  
 1988

\* \* \*

Ana, cho'milmoqqa yechinar gullar,  
 Oynani sindirib sharqiraydi nur.  
 Erinchoq kerishar mudroq stullar,  
 Bu yerda qolmog'ing judayam zarur.  
 Kambag'al quchog'in ochadi shkaf,  
 Latif iltifotdan tuyganday surur.  
 Javonda kitoblar yuborar kuylab,  
 Bu yerda qolmog'ing judayam zarur.  
 Oyog'ing gardini tera boshlar pol,  
 Va "uh" deb qo'yadi baxtidan masrur.  
 Itday to'rt oyoqlab yalinar stol,  
 Bu yerda qolmog'ing judayam zarur.  
 Hayronsan, xonada bor narsalarga  
 Goh iyib boqasan, gohida mag'rur.  
 Menga kerak emas, lekin ularga  
 Bu yerda qolmog'ing judayam zarur.  
 1988

\* \* \*

Men endi gunohkorman,  
 Gunohimdan kech, gulim.  
 Bir qoshiq qonim bo'lsa,  
 O'n qadahda ich, gulim.  
 Men endi dindorman,  
 Savobimdan kech, gulim.  
 Mehrobda tomchi yoshim  
 Yuz qadahda ich, gulim.  
 Men endi bir darveshman,  
 Sen xayrdan kech, gulim.

Xaltamda bir yulduz bo'lsa,  
 Ming qadahda ich, gulim.  
 Men endi gunohkorman,  
 Sen ko'nglimni yech, gulim.  
 Dilda bir daryo bo'lsa,  
 Bir qadaxda ich, gulim.  
 1989

\* \* \*

Kecha... Xona karaxt. Deraza tirik.  
 Havoni chayqaltar unut bir ovoz.  
 Ajinaning sochin taraydi o'trik,  
 Ilonday sudralar bunda inqiroz.  
 Soat va makonning qilichbozligi  
 Shunchaki ermagi falakning.  
 Yomoni: bitta yurakning ozligi...  
 Yomoni: ko'pligi bitta yurakning.  
 Xona kuygan oyday sovuq va nursiz,  
 Bu go'riston ichra huvillar ko'nglim.  
 Deraza ortida javdirar bir qiz...  
 Yurakning yolini taraydi o'lim.  
 1989

\* \* \*

Yoqut yong'oqlarni chaqib bo'ldingmi,  
 Afsungar olmaxon, qallob olmaxon?  
 Tillo chaqmoqlarni chaqib bo'ldingmi,  
 O', aldamchi bahor... O', tantiq baxor?  
 Oltin odamlarni chaqib bo'ldingmi,  
 Muruvvatsiz o'lim, shafqatsiz o'lim?  
 Qon to'la yurakni chaqib bo'ldingmi,  
 Peshonangga uring, bechora shoir?..  
 Saxovatli shoir, bechora shoir...  
 1988

\* \* \*

So'zlar kaltiraydi bo'g'zimda,  
 Ko'zlarimda muzlaydi humoy.  
 Hali darz yemagan ko'ksimda  
 Chil-chil sinib ketar oy.  
 Xayr endi. Aytgan-aytmagan  
 So'zlarimni qilmam himoya.  
 Nima zarur, nimaga kerak  
 O'layotgan sevgiga doya.  
 Ma'zur yo'kdir mening tilingda,  
 Asos ham yo'q endi kurashga.  
 Muhabbatim mahkum o'limga,  
 Men esa, mahkumman yashashga.  
 1888

Mag'lubiyat

Umr o'tayotir, ko'llarim bo'm-bo'sh,  
 Kunlarim ko'nglimday huvillab kolgan.  
 Men - tashlandiq uyman, bo'shab yotgan tush,  
 Qo'ynimda to'ladir yolg'on... Puch yolg'on.  
 Kundan-kun ranjida, xiradir ta'bim,  
 Ko'nglim tusayverar ovloqlarni.  
 Qafasdagi sho'rlik olmaxon kabi  
 Ermakka chaqaman puch yong'oqlarni.  
 Umrim o'tayotir, ko'nglim ham bo'm-bo'sh...

Men buyuk urushda yiqilgan bayroq.  
 Og'zim to'la toshdir, o'ttiz ikki tosh,  
 Qo'ynim to'la yong'oq, bari puch yong'oq.  
 1990

\* \* \*

Jahonga sig'masak, uyga sig'masak,  
 Kayoqqa ketarmiz, ey dil, qayoqqa?  
 Na-da gul bo'loldik, na o't, na kesak,  
 Kayoqqa ketarmiz, ey dil, kayoqqa?  
 Karvonimiz o'tdi, bo'talar bo'zlar,  
 Qayoqqa ketarmiz, ey dil, qayoqqa?  
 Hech narsa topmadi dunyodan ko'zlar,  
 Qayoqqa ketarmiz, ey dil, qayoqqa?  
 Saxtiyon sahroda holimiz xarob,  
 Qayoqqa ketarmiz, ey dil, kayoqqa?  
 Karvon hoki turob - tevarak sarob,  
 Qayoqqa ketarmiz, ey dil, qayoqqa?  
 1989

Qalb Manzaralari

I

Yo rabbim! Bu dilga ilhom ato qil,  
 Bu tilni bu dilga tamom ato qil.  
 Biza bu jon nadir, bu jahon nadir,  
 Besh kunlik bo'stonda ming vayron nadir.  
 Vayron tan ekilgan yolg'on bo'ston ne,  
 Tan donday sochilgan bu go'riston ne?  
 Bir yon fosiqlar-u, bir yon g'ofillar,  
 Nafs bazmidan fosiq g'ofil ko'ngillar.  
 Bazm aro holimdan pirlar norizo,  
 Goh halol, goh harom jonimg'a g'izo.  
 Ne bo'lib istadim ilohiy orom,  
 Bir qo'lim halol-u, bir qo'lim harom.  
 Yorabbim! Bu dilga o'zing quvvat ber,  
 Bu hayron suvratga subhon siyrat ber.  
 YibordingQaytmoqqa o'zing navbat ber,  
 Yorabbim! Xayr qil hayrat ber.  
 Men ham bir bandangman, men zarra, ulg'ayt,  
 Bomdoddan xuftonga besh karra ulg'ayt.  
 Kalomdan kalomga yetolsam, shukr,  
 Osmoningga oyday botolsam, shukr.  
 Yorabbim! Bu dilga ilhom ato qil,  
 Bu tilni bu dilga tamom ato qil.

II

Qulingman, men seni bilmog' istaram,  
 Dunyoni salomat ko'rmog' istaram.  
 O't bilan o'ynashib o'tmog'da bu dil,  
 Tog' bilan qayrashib yitmog'da bu til.  
 Sen daryo, sen daryo, muazzam daryo,  
 Adashgan balig'day qumlog'da bu dil.  
 Qulingman, men seni bilmog' istaram,  
 Ruhimni salomat ko'rmog' istaram.  
 Voh, qaqnus bolasi, ey dil, na bo'ldi,  
 Osmoning echlisi singil, na bo'ldi?  
 Men seni dunyoga qushday uchirdim,  
 Ko'z yosh piyolasi chil-chil... na bo'ldi?..  
 Qulingman, men seni bilmog' istaram,  
 Dilimni salomat ko'rmog' istaram.  
 Ko'ksimda qamalib yotibdi bir oy...  
 Qizg'aldoq qoniga botibdi bu oy.  
 G'ofilman... Men hali hayotdan o'tmay,  
 Mening hayotimdan o'tibdi bu oy.

Qulgingman, men seni bilmog' istaram,  
Ul oyni salomat ko'rmog' istaram.  
III

"...gul vaqting bo'ldi".  
Omon Matjon  
Ay dil, hushyor bo'lg'il, sahar vaqt bu,  
O'z ichu toshingga safar vaqt bu.  
Bilham zavol qaydan va iqbol qaydan  
Sen qay sori yursang zafar vaqt bu.  
Ay dil, tarab ayla, hursan, ozodsan,  
Senga tong, vujudga mahshar vaqt bu.  
Tegramda chaqmoqlar gullab yotadir,  
Hatto kesakning ham guhar vaqt bu.  
Men tillo tovoqda boshim keltirdim,  
Ay dil, qabul ayla, samar vaqt bu.  
Hikmat uzlatdadur, uzlat yurakda  
Jon qushin Ollohg'a sayrar vaqt bu.  
Ay dil, hushyor bo'lg'il, sahar vaqt bu,  
O'z ichu tashingga safar vaqt bu.  
1993

### Ko'ngil Qushlari

Ko'zimga qamalgan hayron tushlarni  
Qayga haydayapsan, devona shamol?  
Ko'ksimda donlagan chip ko'r qushlarni  
Nega aldayapsan, begona ayol?  
Bu qushlar ko'r qushlar, tug'ma ko'r qushlar,  
O'ttiz yil boqyapman yurak yedirib.  
Arslon o'z bolasin turganday tishlab,  
Turar tumshuqlarin dilga botirib.  
Ajab, dil rohatda, ko'zlarim qaqqshar,  
Hayron tushlarimni supurar shamol...  
Bu qushlar kasalmand bolaga o'xshar,  
Sen esa, shamolga o'xshaysan, ayol.  
1993

### Tongi Bedazor

Tun qizlarin billur ko'z yoshi -  
Nur taratib titrar shudringlar.  
Qayda mening o'n olti yoshim,  
Dilga kiprik sanchgan kelinlar.  
Tong hurlarin xushbo'y nafasi -  
Yastanadi yam-yashil havo...  
Qayda qoldi gullar va'dasi,  
Qayda qoldi o'n olti navo?  
Marvaridlar sochilgan dala  
Va shamolda bo'm-bo'sh halinchak...  
Qayda menga tabassum ila  
Oq shudringlar sochgan kelinchak?  
Tong qizlari yam-yashil qushlar...  
Yastanadi yam-yashil havo.  
Endi bo'm-bo'sh chimildiq tushlar,  
Endi unut o'n olti navo.  
1994

\* \* \*

Oyo'chog'da dil pishdi hil-hil,  
Singrab-singrab sitildi sunbil,  
Kelorim ham, bororim ham gil,  
Xaloskorim, kulgama kelgil,  
Jon ustiga mehmonim bo'lgi.

Changaroq\*da oy pishdi, hay-hay,  
 Kiprigimda dur pishdi, bay-bay,  
 Oqo'tovda elanar bir nay:  
 Najotkorim, kulgama kelgil,  
 Bosh ustiga mehmonim bo'lgil.  
 Ilojim-u ilmim - iltijo  
 O'zim quvg'in dilimga sen jo,  
 Umrin, she'rim senda mustajob,  
 Dilga yorim, kulgama kelgil,  
 Jon ustiga mehmonim bo'lgil.  
 1994

\* \* \*

Bu ko'ngul ustina qorlar yog'dilar,  
 Bog'larin payphonlab o'tdi bo'ronlar  
 Aqlar, fikrlar hayron bokdilar,  
 Uning qaytar vaqt bo'ldi yoronlar.  
 Ko'ngul kulbasini obod etgan gul,  
 Himmatingga qulluq, rahmingga qulluq.  
 Axir nimani ham ko'rdi bu ko'ngul,  
 Gohida sultonlik, gohida qullik...  
 Bu ko'ngul mehridan toshlar eridi,  
 Qo'shiqqa aylandi nolai zorlar.  
 Sulaymon sururi - safar qaridi,  
 Uning qaytar vaqt bo'ldi, ag'yorlar.  
 Kimnidir qarg'adi, kinnidir suydi,  
 Sumbula suviga to'yangan ko'ngul...  
 Bu ko'ngul xokisor katta yo'l edi,  
 O'zdan boshqa hech kim yurmagan bir yo'l.  
 1990

\* \* \*

Yaratganga shukr, bizniki bu tun,  
 Qora sochlarni yoydi tiramoh.  
 Sen oyday xotirjam bo'lmos'ing uchun  
 Zulfiq zulmatida sindi necha moh.  
 Masih nafasiday esar bir shamol  
 Sochlaringni silab... Momo Havosan,  
 Men ham maqtanishga tayyorman alhol  
 Tarqalganim bilan Odam Atodan.  
 Tangriga ming shukr, bizniki bu tun,  
 Xudoning himmati doim beminnat.  
 Bersa baxtini ham beradi butun,  
 Atrofda yastanib yotibdi jannat.  
 Shoxlarda olmalar oyday to'lishgan,  
 Barkamol vasl uchun tangriga shukr.  
 Bu kecha bag'rida yolg'iz qolishgan,  
 Muhabbat bilan Eshqobil Shukur.  
 1994

## Tilak

Mening muhabbatim nimaga arzir,  
 Nimaga arzirdi yonib-kuyganim.  
 Mehr bu sunnatdir, mehr bu farzdir,  
 Seni xudo suysin, menin suyganim.  
 Men bir kuyinchaging, tilovching, xolos,  
 Senga yo'lmasin mendagi qayg'u.  
 Menden bu dunyoga bir niyat meros,  
 Seni xudo suysin, obod bo'l mangu.  
 1994

\* \* \*

Bu ko'ngul dashtini buzma, ay dunyo,  
Jontortar maylising tuzma, ay dunyo.  
Keldik. Qalb yurtida hurlik va baxt bor,  
Qullik ila fitna ko'zda, ay dunyo.

...ay dunyo... ay ro'yo...  
San iloh javhari, ma'ruf tuz, ay so'z,  
Ishq ipiga dilni bir-bir tiz, ay so'z.

Keldik. Boshimizda qancha sinov bor,  
San guvoh o'tarsan, o'zing ko'z, ay so'z,  
Osmondan kelgan ko'z o'zingsan, ay so'z.  
ay so'z ... ay so'z... ay so'z...

Biza muruvvat san, himmatsan, ay ruh,  
San xudo nazari, himmatsan, ay ruh,  
Bu tan bugun obod, ertan xarobot,  
Bir tola nur uza abadsan, ay ruh.  
ay ruh. ... ay ruh... ay ruh...

1993

\* \* \*

Bu ne tamannodur, bu ne ko'rkam noz,  
Suygulim, oygulim, chaqmoqning qizi,  
Men odam bolasni, mening umrim oz,  
Sizga yo'kdir o'lim, mangu yolg'izim.  
Bu ne muruvvat dir, bu ne tarahhum,  
Meni o'tga yuvar chaqmoqning qizi.  
Tanda tahlika-yu, ruxda taqaddum,  
Siz oyday xotijam, mangu yolg'izim.  
Bu ne fayzli raftor, bu ne tajalli,  
Ruhimning bekachi, chaqmoqning qizi,  
Men bir o'tkinchiman, dunyo ajalli,  
Sizga yo'kdir o'lim, mangu yolg'izim.  
1993

\* \* \*

Sevgilim, sen gulsan, sevgining guli,  
Men esa dunyoning zalvorli toshi.  
Poyingda umrimming o'ttiz bir yili,  
O'ttiz bir yoshimda aylandi boshim.  
Sevgilim, sen oysan, sevgining oyi,  
Uzansam yetmaydi... yetmaydi qo'lim.  
Charxi kajraftoring ray'iga moyil,  
O'ttiz bir yoshimda aylandi dilim.  
Nechun parishonsan mening qoshimda,  
So'lim bir ohangsan, so'lim bir bayot...  
O'ttiz bir yoshimda, mening boshimda,  
Tegirmon toshiday aylandi hayot.  
Sevgilim, sen gulsan, sevgining guli,  
Senga bo'yay olmas na davlat, na shon.  
Poyingda umrimming o'ttiz bir yili  
Kechikkan gullarday yig'lar parishon.  
1993

Bir Kun

Bir kun kelar...  
Yer farishtalari so'lim Musichalar  
Osmon yuvgan halol tumshuqlarida  
Olib keladilar o'sha Bir kunni.  
O, bizning Bir kun kelar...  
Kuyinchak momolar, aziz momolar,  
Yo'rgaklab berarlar o'sha Bir kunni,

Beshikka belarlar o'sha Bir kunni.

Bobolar kaftiga to'lar duolar.

O, bizning Bir kun kelar...

Shunda to'rtovimiz katta supada,

Dasturxon boshida birga bo'larmiz,

Suvlarday shaldirab kularmiz,

To'rtovimiz to'rtovora bo'larmiz.

O, bizning Bir kun kelar...

Fotima chumchuqlar farishtalarday

Bir kunning ko'ksiga tumor taqarlar.

Chaqmoqqalb qaqnuslar yo'lning chetiga

Isiriq tutatib olov yoqarlar.

O, bizning Bir kun kelar...

Nonday halol bo'lar dasturxonimiz,

Quyosh kabi butun bo'lar nonimiz.

Shunda to'rtovimiz bir-birimizga

Ko'ngil ushatarmiz, kulgu ushatarmiz.

O, bizning Bir kun kelar...

Shunda to'rtovimiz Baxtni ko'rarmiz.

Kuyosh bizga atab tug'ar u kunni.

Mening to'rt joydagi to'rtta jonim-ey,

Oxir to'rtovimiz birga bo'larmiz,

Suyunchi berarmiz musicalarga.

O, bizning Bir kun kelar...

1988

#### Buzoqningo'limidan So'ng

Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirni

Sog'ib olayotir befarzand xotin.

Tuyog'i zirqirab yig'laydi jonvor,

"Ho'sh-ho'sh"lab kuylaydi qayg'uli xotin:

"Kuvshab yegin o'tingni,

Iyib bergin sutingni.

Sening bolang o'libdi,

Xurmo\* bolang bo'libdi.

Ho'sh-ho'sh, enam-ov, ho'sh\*\*.

Qayg'uni yamlamay yutadi xotin,

Alamni kuvshab yeb yotadi sigir.

Tomorqada esa... Ekin ichidan

Bitta bola izlab ivirsiydi er.

Hovlida huvillar besh xonali uy...

Guvillab ko'payib borar chumoli...

Uzoqlashib borar xotin bilan er,

Bir yayrab kulishga yetmaydi holi.

Uch kunlik buzog'i o'lgan sigirning

Sutin sog'ib oldi befarzand xotin.

Ikki jonvor qalbi chayilgan sutni

O'g'ri mushuk ichib ketdi o'sha tun.

1993

\* \* \*

Qahraton chillasi, yaldo sururi...

Ko'zim dashtlarini ko'mdi kumush qor

Ruhim chehrasida muzlar qaridi,

Kel endi, ko'ksimni yorgil, zulfiqor.

Men og'ir uyquda... Ko'rpam kumush qor.

Sen meni uyg'otgin, uyg'ot, zulfiqor.

1994

#### Yig'loq Tosh

Turkistonda йиг'лоқ тосиб йиг'лоқ деган бир манзил бор. Unda bahaybat qoyatoshning ming-minglab ko'zlaridan simillab suv to'kilib turadi.

Yig'loq tosh... Yig'loq tosh...  
 Kel, birga yig'laylik, yig'loq tosh, -  
 Bir tunning ichinda, bir osmon ostinda  
 Sen bir g'arib toshsan, men g'arib bosh,  
 Kel, birga yig'laylik o'zning dastindan.  
 To'garak qorong'i... To'garak sukul...  
 Ollohnning ohiday oydin bir shamol.  
 Yig'iga yetildi ko'z ila ko'ngul,  
 Ko'z yoshga yetildi dard ila zavol.  
 Senga ming-ming ko'z bermishdir, yig'loq tosh,  
 Menga bir ko'ngilni bergan xudoyim.  
 Sen yelga taloshsan, men yerga talosh,  
 Qismat qattiq ekan, bizlar muloyim.  
 Ming ko'zing mingta gul, yig'loq tosh,  
 Gulob qaynab chiqar buloqday ming gul.  
 Men esa... Ichiga bir daryo to'lgan  
 Mingta yirtig'i bor uvada ko'ngil.  
 Kel, birga yig'laylik, yig'loq tosh,  
 Bir ona qorninda, bir yurak ostinda  
 Egizak ko'zlarday yig'laylik...  
 Kel, birga yig'laylik o'zning dastindan.  
 1992

## Ishq Suhbatlari

Ay, gul, kiymishing o'n sakkiz bahor, ay, gul,  
 So'yla, qaysi jahon saning qulingdir?  
 Ibtidong tufrog'dir, intihong ham shul,  
 Bilsang, yetti olam maning molimdur.  
 Ay, sarv, yafrog'lari ishq uyi, ay, sarv,  
 So'yla qaysi bo'ston saning bog'ingdur?  
 Ey, sen, ko'nglin ishq o'z joniga sarf,  
 Bir nasim uvoldur senga bog'imdin.  
 Ay, moh, ming kechani yopingan, ay, moh,  
 So'yla, zulfiqar ichra necha to'fondur?  
 Ey, sen, o'z-o'ziga topingan gumroh,  
 Har tola sochimda bir tong nihondur.  
 Ay, shams, ming yulduzni iyartgan, ay, shams,  
 So'yla, hayot qayda, o'lim qaydadir?  
 Ey, sen, o'z-o'zini etolmagan jam',  
 Hayot osmondayu, o'lim yerdadur.  
 1991

## Kambag'alning Shodligi

Sen yangi botinka kiyib kelgan kun,  
 Eski botinkangdan qutulgan kuning...  
 Xotiningning chehrasidagi  
 Ship-shiydon kuz gulladi birdan.  
 Bir zarbda gulladi, botinka emas,  
 Go'yo sog'in sigir keltirganday sen.  
 Gapdon bo'lib qoldi mungli xotining  
 Sholipoya uzra och chumchuq kabi.  
 O', erkak, yig'lama, o'zingni tutgin,  
 Shodlikdan gullagan xotin qoshida.  
 Shu kech yozilmadi kechki dasturxon,  
 Ko'zlarni to'yirdi yangi botinka.  
 Tun...

Xotining och, shirin uxlari qo'yningda,  
 Yuragingni esa g'arch-g'urch tepkilar  
 Yap-yangi botinka.  
 1988

## Kambag'al Sevgisining Nomukamalligi

Oltinga o'xshagan to'g'nog'ich,  
 Marvaridga o'xshagan munchoq,  
 Odamga o'xshagan ko'z boylog'ich,  
 Ko'z boylog'ich bo'g'ziga tiralgan pichoq.  
 Qonga botirilgan tilloday tirnoq.

Va  
 Hech narsaga o'xshamagan sen.

Qasrga o'xshagan uy,  
 Tovusning patiday to'shaklar.  
 Jannatga o'xshagan hayot,  
 O', jannat, albatta, o'limdan keyin  
 Do'zaxga o'xshagan ayroliq,  
 Do'zax ham, albatta, o'limdan keyin  
 Haqiqatga o'xshagan yolg'on,  
 Haqiqat, albatta, o'limdan keyin  
 Va senga o'xshayolmagan bor narsa,  
 Bor narsa... albatta, o'limdan keyin  
 Yig'igami o'xshash bir narsa...  
 Bu esa... albatta, o'limdan oldin.

1989

### Surgun

yoxud Qirmiz momo hamda Qurbon momo bilan muloqotlar (Turkum)  
 (Ular 30-yillarda surgun qilinganlar va bu davrning bor azob-uqubatlarini boshidan kechirganlar)

### I. Haydov

Yuzlab odamlarni otning damiga solib haydab keta boshladilar. Qayoqqa? Yo'lni qamchilar biladi. Nimaga? Ha, bir boyga yaqinliging bor-da? Iloj qancha, el bo'lgandan so'ng elning boyiga ham, kambag'aliga ham bir tomiring tutashadi-da. Qulq qilinganlarning orasida keksalar ham, bolali ayollar ham, o'n besh-o'n oltiga-da yetmagan ulu qizlar ham, noni reza bolalar ham bor edilar. Biz ketaverdik, orqada el izillab kolaverdi.

### Qamchi va yelkamning oralig'ida

Mudhish bo'shliq Vatan kabi huvillar.  
 Yarim oy tovonim g'arch botgan tig'dan  
 Yer tishlab yotibdi o'lik ovullar.  
 Mashrikda yarimsan, Mag'ribda yarim,  
 Rahmati talangan yagona xudoy.  
 Qayg'uli oyatday oqar ko'zlarim,  
 Ikkiga bo'linib ketayotir oy.  
 Oyog'im osmonda, qo'llim zanjirda,  
 Meni yutaverar ulkan Yoriltosh.  
 Minorlar quladi Movarounnahrda,  
 Hirotda ikkiga bo'lindi quyosh.  
 O'zimning dodimni o'z ko'nglim tinglar,  
 Labimdan jon kabi sachraydi "Qur'on".  
 Bir yurak izlaydi tul qolgan munqlar,  
 Bir xalq izlaganday beva Turkiston.  
 Ikkiga bo'linib borar edim men,  
 Singan kema kabi o'z qonimga g'arq.  
 Ikki xoqonlikka emas-da, ikki  
 Qullikka bo'linib borar edi xalq.

### II. Bitlar

Biz K...ga borganimizda, u yerga bizdan oldinroq olib borilgan o'zbeklarni uchratdik. Ularning hammasi kasal edilar. Shunda ham kechani kunduzga, kunduzni yulduzga urib, mashaqqatl mehnat qildilar. Gruzinlar bizga "Eldoshlaringga yaqinlashmanglar, ular eng og'ir joylarda ishlab, bitlab ketdilar" deb aytishdi.

U bitlar bahaybat bitlar edilar,  
 Og'zi Osiyoda topilmas o'pqon.  
 Boshdanmi, oyoqdan yoyverardilar,  
 Ko'zi Ovro'poda ishlangan qopqon.  
 Quyosh - kechki ovqat yovuz dahoga,  
 Shafaqlarni yutdi qop-qora tuman.  
 Yigirma asrda ko'hna dunyoga,  
 Yangi shajarada qaytdi Ahraman.  
 U bitlar bahaybat bitlar edilar,

Og'zi Osiyoni yutguvchi o'pqon.  
 Minorlarni yulib ko'za qildilar,  
 Va minglab ko'zaga to'lirdilar qon.  
 Yutilib borardi xalqlar, elatlar,  
 Bir o'pqon olamni cho'chitar edi.  
 O'zidan ko'paymay qo'yganda bitlar,  
 "Daho" o'z pushtidan urchitar edi.  
 U bitlar bahaybat bitlar edilar,  
 Qopqoniga to'ldi xalqlar, vatanlar.  
 "Daho" - Bitlar xalqlab ketdi - dedilar,  
 Qutqaring bitlarni, ketdi vatanlab.  
 Xomiylar yeldilar sermab qilichin,  
 O'liz tanlardan-da izladilar jon.  
 So'ng harom bitlarga tahorat uchun  
 Keltirib berdilar ikki daryo qon.  
 U bitlar bahaybat bitlar edilar.  
 III. Palaxmon

U yerda faqat qizlar va ayollar ishlar edik. Bir bo'lak non uchun jonimizni berardik. O'sha yokdan tayinlangan brigadir qizlarni ham, ayollarni ham ayamay kaltaklardi. Oyoqosti kilib haqoratlar edi.

Otding-ku bu yurtning o'g'illarini,  
 Toshlarini otding o'ziga tomon,  
 Mening yuzlab suluv singillarimni  
 Axir, qayerlarga otding, palaxmon?  
 Baxmal chimildiqlar qoldi angrayib,  
 Yirtilgan to'shaklar yig'ladi yomon.  
 Yostig'ida oylar ketdi qorayib,  
 Hurkak singillarim qani, palaxmon?  
 Har biri bir elga ena bo'liday...  
 Ellar enasizdir, yetimdir hamon.  
 Yuzlab mamlakatni obod qilguday,  
 Yuzlab singillarim, qani palaxmon?  
 Tandirlar o'yildi. O'choqlar o'chdi.  
 Yig'ladi, beshikka belangan armon.  
 Sen yerda qay qonli qo'llarga tushding,  
 Xudoning qo'lidan tushgan palaxmon.  
 IV. Chorlov

Surgundagilarning ko'pchiligi o'limni bo'yninga olgan edi. Lekin ularning bir armoni bor edi. Omonatni o'z tuprog'i, o'z elida topshirish armoni. O'limdayam o'lim bor-da. Ko'plarning bu armoni ushalmadi. O'layotganlarning hammasining joni sachrab ketdi. Sog'inib yetolmay o'lish o'lim emas, xorliqidir.

Bu yerlardan ketaylik, yurgin,  
 Qo'lingni ber, yuragingni ber.  
 Ko'zlaringni ko'zimga bergin  
 Va etimga suyagingni ber.  
 Qaro yer ostida yotganim,  
 Yashamay ham o'lmay ketganim,  
 Qon balchiqqa gullar otganim,  
 Bu yerlardan ketaylik, yurgin.  
 Yer ostiga o'sgan sochlaring,  
 Ko'karar tosh tirnoqlaringni,  
 Qoldirmagan, qoldirma bunda  
 Moviy arvoh - bayroqlaringni.  
 Kun ko'rmay, yer bosmay o'tganim,  
 Boshi qonga oyday botganim,  
 Go'r ichra o'lolmay yotganim,  
 Bu yerlardan ketaylik, yurgin.  
 O'liz tirik g'aribim, yurgin,  
 Bayroqqa ayt, taxlasin ko'chin.  
 Qabrdan chiq, ko'nglingni bergin,  
 Vatan bor-ku o'lmoqlik uchun.  
 Ko'k-qizili kuyib yotganim,  
 Yot tuprokdan to'yib yotganim,  
 Yurtni suyib... suyib yotganim,  
 Bu yerlardan ketaylik, yurgin.  
 V. Ochlik

Ne kunlar o'tmadi bu boshdan. Non deb o'ylab kovushlarni tishlab o'lib qolgan bolalarni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Ochlik qirg'inni keksalar va bolalardan boshlagan edi.

Bir juft ko'z kosasi... Limillar nola,  
Osmon - kuyindilar kuydirgan hovuch.  
Tutilgan oy emas yeganing, bolam,  
Yeganing - egasi yo'qolgan kovush.  
Mag'zi kul bir bug'doy qobig'i - olam,  
Zamin - to'kilmagan bir kosa sabr.  
Tandir kesagimas yeganing, bolam,  
Yeganing kimningdir suyagi - ko'mir.  
Bir juft ko'z kosasi... To'kilar nola,  
O'char yonayotgan boshqiday quyosh.  
Tutilgan kun emas yeganing, bolam,  
Yeganing, boshimni yorgan qora tosh.

#### VI. Naqshigulning Tushlari

Naqshigul, Ro'zigul, Maqsadgul, Norsuluv degan xorazmlik dugonalarimiz bor edi. Naqshigul bir suluv, bir qayg'uli edi. U har kecha tushida Xorazmni ko'rardi. Biz qaytdik?.. Ular uyoqlarda qolib ketishdi.

Yer guli, Naqshigul, bormisan omon,  
Tushovli kiyigim, ma'yus xushro'yim.  
Makka chopib kelar Xorazm tomon,  
Ochilgan qabrday huvillar uying.  
Sening tushlaringni ko'rdim, Naqshigul:  
Tishlab turar eding yurakni mahkam,  
Tegirmon quyoshni yanchardi nuqul,  
Yanchardi Xorazm oylarini ham.  
Har kecha xudodan yurtni so'rarding.  
Zamon cho'qildi nolalaringni.  
Urg'ochi yo'lbarsday tishlab turarding  
Hali tug'ilмаган bolalaringni.  
Tishlab turar eding Vatanni mahkam,  
Charnovuq labingni yirardi nuqul.  
Kirib borayapman tushingga men ham,  
Men seni sevaman, qaytgin, Naqshigul.  
Tishlab turar eding mahkam millatni,  
Zanglagan zanjirni tishlar eding sen.  
Qontalash yelkangda ko'rib davlatni,  
Ko'zimning ichida yig'lar edim men.  
Xorazmni mahkam tishlab turarding,  
Kulguching - yig'ichi, iyaklarining qon.  
Ularga qizlik qirq joningga berding,  
Qoldi Vatan kabi tishlangan imon.  
Tunlar bitktoshi tushingni topdim,  
O'zing qaylardasan, aytgin, Naqshigul,  
Bekafan tanlarni ko'z bilan yopdim,  
Men seni sevaman, qaytgin, Naqshigul.  
Qaytgin, bu dunyoda diyorlar o'ldi,  
Zora u dunyoda bormisan omon.  
Yer-osmon orasi fitnaga to'ldi,  
Qaytgin, Xorazmning ahvoli yomon.  
1989

#### Usmon Nosir

Orangizdan yashab o'tdi bir shoir,  
O'rtada yuragi - ochildasturxon.  
Bir kun salom bermay, qirq yil ichdingiz,  
Undan qirq yilgacha yedingiz-ku non.  
Orangizdan yashab o'tdi bir shoir,  
Arvoхlar sarqitin yolg'iz yedi u.  
Yedi iztirobning sovuq po'stlarin,  
Bo'shab qolganida ochildasturxon,  
Shoir o'yib berdi sizga ko'zlarin.  
O, ojiz bandalar, ochko'z bandalar,

Shoiring ko'zlar achchiq ekanmi?  
 Xudo to'ydirmagan och xo'randa,lar,  
 Sizni shoir ko'z to'ydirarkanmi?  
 Orangizdan yashab o'tdi bir shoir,  
 O'rtada yuragi - ochildasturxon.  
 Undan qirq yilgacha Vatan yedingiz,  
 Qirq yil chanqoq bosdi sof o'zbaki qon.  
 O, ojiz bandalar, ochko'z bandalar,  
 Yetmish qarich ilon qora tillaring.  
 Xalqning yuragiga o'ch xo'randa,lar,  
 Uzansa, bir yoqa topdi ko'llaring.  
 O, ojiz bandalar, ochko'z bandalar,  
 Bir kun salom bermay, qirq yil yedingiz.  
 Yopilib qolganda ochildasturxon,  
 "Shoir - xalq dashmani" dedingiz.  
 Shoir qaytib bordi tangri qoshiga,  
 Og'rinib, kuyinib dardin aytar u.  
 Ochildasturxonda bir Vatan qoldi,  
 Tangridan urto'qmoq so'rab qaytar u.  
 1989

Ikki Dunyo Oralig'idagi Qofiyasiz Tushlar

\* \* \*

Uch kunlik oy, yo'rgakdag'i oy  
 Shart kesib tashladi boshimni.  
 Besh kun o'tgach, qorong'i besh kun  
 O'mgan tomirimdan ko'kardi bu gul,  
 Payg'ambar boshiga o'xshash ulkan gul.  
 \* \* \*

Nega yig'layapsiz, ko'llarim?  
 Oyoqlarim,  
 Nega yulib tashlayapsiz tirnog'ingizni?  
 Bor-yo'g'i uch ming yil yashadik hali  
 Tosh asrida, temir asrida,  
 Nega yig'layapsiz, ko'llarim,  
 Oyoqlarim nega yig'laysiz?  
 Hali manzil uzoq Odam asriga.  
 \* \* \*

Tushlarimning sayoq burjida  
 Ayanchli tishlarin botirib  
 Boldirimdan tishlar bir kuchuk.  
 Kalima qaytarib qochib boraman...  
 Yopishib qolganday oyoqlarimga  
 Badtar tishlayverar la'nati kuchuk,  
 Shaytondan tarqagan la'nati kuchuk.  
 Qo'rqb uyg'onaman. Chiroqni yoqdim.  
 Qaynoq ter yuvadi sovuq hujramni  
 Xayriyat... g'aybga qaytibdi kuchuk.  
 So'ng qo'rqb qaradim oyoqlarimga  
 Endi tushimdamas, o'ngimda ko'rdim:  
 Kuchuk tishlarining ayanch izlari  
 Baqrayib turardi boldirlarimda,  
 Ulardan sirqirab sizar edi qon...  
 \* \* \*

Hazrati Hizrning boshmaldog'iga  
 Uya qo'yib qaytgan oq qaldirg'ochni  
 Chaqirib-chaqirib charchar yuragim...  
 Qonga botgan oyning chimildig'ida  
 Yulduz tirnog'i-la so'nggi terisin  
 Qayg'uli-qayg'uli archir yuragim...  
 \* \* \*

Osmon balchig'ida notavon qushday

Uchib borayotir xaroba bir uy.  
 Toptalgan erk kabi, kuygan kitobday  
 Uchib borayotir xaroba bir uy.  
 Odamlarni yerga lash-lushday tashlab,  
 Ko'chib borayotir xaroba bir uy.  
 1992

## Shoir Janozasida Xaloyiqqa Tarqatilgan Yirtishlar

\* \* \*

Qaylardan kelyapsan, qiblaning qizi,  
 Nega tirnog'ingdan tizzanggacha qon?..  
 Zarxaltangda qancha oshiq yulduzi,  
 Oyog'ing ostida necha dil talqon...  
 Qaylarga ketyapsan, qiblaning qizi?..  
 \* \* \*

Bu umr o'tkinchi! Ne qolur bizdan,  
 Ne murod, bu vujud, bu dil, bu so'zdan?  
 Bizni qabul etmas na haq, na fano  
 O'zdan kelimbiz-u, qaytmabmiz o'zdan.  
 \* \* \*

Bu jahon mulkida men kim bo'libman?  
 Bir yulduz dumidan tushgan o'likman.  
 Bir nafas ato et, bir ishq ato et,  
 Bu o'lik dunyodan ketay tirik man.  
 \* \* \*

Bu g'arib kulbaga chiroq yoqib qo'y,  
 Shamolday o'tkinchi g'arib yo'lovchi.  
 Men ketdim, mung'aygan yuragim qoldi,  
 G'arib xarobaga chiroq yoqib qo'y  
 1992

## Umid Kechasi

Chorladim qadimiy muqaddas ruhni,  
 Yuragimga qaytdi quvg'indi kalom.  
 Yorib chiqqandayman mangu anduhni,  
 Qo'lllarim tilida yangradi "salom".  
 Turnalar sukutning bag'rini yordi,  
 Qizlar qabog'ida yondi qizg'aldoq.  
 Chumchuqlar chug'urin yutib yubordi,  
 Ko'kragimda singan momaqaldiroq.  
 Momolar qirlarga boqdilar - Armon -  
 Umrning so'ng manzil so'qmoqlarida.  
 Bolalar afsona izlar - hayajon -  
 Daryolarning so'lim qirg'oqlarida.  
 Ko'zlarga to'kilar endi ohista  
 Osmon malaklari - yulduzlar bari.  
 Bu kech darichangdan kiradi asta  
 Dunyoning qaytmagan payg'ambarlari.  
 Umid kechasi bu - ... najot kechasi...  
 Tavof qil samoviy qo'lchalarini.  
 Talangan bag'ringga qaytmish barchasi,  
 Tavof qil, xudoning elchilarini.  
 Baxshi armoniday to'lqinli yo'llar,  
 Mudroq manzillarni yelpiydi bo'shliq.  
 Xilpirab bayroqqa aylandi qo'llar,  
 Barmoqlarim - qo'shiq, tirnoqlarim - qo'shiq.  
 Tog'larning ko'ksida yurak loladay,  
 Kelinlar so'ylaydi tilaklarini,  
 Qishni so'kib qo'ygan duduq boladay  
 Osmon yechib tashlar ko'yaklarini.  
 Qalqiyan yirtilgan bayrog'im bilan,

Umid kechasi bu... o', xalqim uyg'on.  
 Armonga aylangan tirkog'im bilan  
 Yurak po'stlog'iga yozaman doston.  
 Utgan tunlarimni bo'zlab o'tkazdim,  
 Ulfat ermagidan topmay tasallo.  
 Kel, deb raqibimga gullar tutqazdim,  
 Quchoq'imdan qochdi muqaddas ollo.  
 Mening vujudimga uyalar qurban,  
 Qo'yib yubormadim qaldirg'ochlarni.  
 Do'stlarning o'rniga gung bo'lib turgan,  
 Quchoqlab yig'ladim simyog'ochlarni.  
 Zamin aylanganday aylandi boshim,  
 Xayyom qo'llarimga tutqazdi sharob.  
 Tunlar qiz o'rniga quchoqlar meni  
 Verterni qiyagan buyuk iztirob.  
 O'zbaki dilimni avramoq uchun  
 Boqdilar ishshayib, boqdilar chirik.  
 Akang g'animlarin qarg'amoq uchun,  
 Singlim, sen nimaga qolmading tirik.  
 Taqdir, mard kelmading bu elga bir bor,  
 Yoqangga qo'l cho'zar yigirma yoshim.  
 Oltmisht ming faslni qiladi qator  
 Mening Yer sharidan kattaroq boshim.  
 Menga nasihatlar sotdi minbarlar,  
 Tupuklar sachratib, ranglari bo'zdek.  
 Men seni esladim shu damda muztar,  
 "Oq oltin" ostida ezilgan o'zbek.  
 Yalang'och kunlarim, juldur yillarim  
 Zamonitoring bo'g'ziga qoldi tiqilib.  
 Ko'zimda yashagan tutqun ellarning  
 So'nggi tulporlari ketdi yiqlib.  
 Gohida sotdilar sodiq do'starim,  
 Taq etib yopdilar darichalarni.  
 Sotqinni toping, - deb so'ngra o'zlari  
 Qo'yib yubordilar ovcharkalarni.  
 Men esa, yurakni otdim bemalol,  
 Yanglishib ketdingmi, o, sodda bardosh.  
 So'ngra itga suyak tashlagan misol.  
 Qilmoqchi bo'ldilar uni xomtalosh.  
 Yana nelarnidir izlay boshladim,  
 O'n soniga yolbor, dedi Pifagor.  
 Yozgan she'rlarimni otib tashladim.  
 Ularga kafandir yurakdag'i nur.  
 Siz mening holimga boqasiz hayron,  
 Ming yillik qonunlar, sizni buzaman.  
 Valekin, baribir xudo suratin  
 O'zimning rasmimiga qarab chizaman.  
 Takdir sahnasida hayronlar qoldim,  
 Kimgadir tasallo, kimgadir tabrik.  
 Lekin, olis ruxdan maktublar oldim:  
 "Eshqobil, bormisan olamda tirik!"  
 Chorladim, maklonni rad etganda Vaqt,  
 Lahzaga qaytganda uzun asrlar,  
 Chorladim, eridi muzlab qolgan Baxt,  
 Olamga navbatsiz kirdi fasllar.  
 Chorladim, qadimiy muqaddas ruhni,  
 Himmating ulug'dir, borlig'ing saxo.  
 Janglarga chaqirdim sokin qo'shiqni,  
 O'zing madadkor bo'l, ismsiz daho.  
 Billur ko'yylaklarin yechdi daryolar,  
 Nayson nafasingda cho'milmoq uchun.  
 Mehrobin tark etdi dinlar, xudolar  
 Qanotiningdan o'sgan bir bayroq uchun.  
 Hayot, men-ku sendan ortda qolmayman,  
 Bahor quyoshiga tutay ko'krakni,  
 Meni tushuning, deb hayqirolmayman,  
 Kechiring, izohlab bo'lmas yurakni...  
 Sevgilim, kulgingning sharafi, shoni,

Bosh urib yig'layin oyoqlaringga.  
 Odamlar yo'qotgan buyuk dunyoni.  
 Men topib olaman quchoqlaringdan.  
 Sevgilim, so'ngra biz baxtli bo'lamic,  
 Mangu erk beramiz orzu, xayolga.  
 Kun kelib yonna-yon ta'zim qilamiz  
 Hurlik askarlarin tuqqan ayolga.  
 Umid kechasi bu... Najot kechasi,  
 Ko'zga surt muqaddas qo'lchalarini.  
 Talangan bag'ringga qaytmish barchasi,  
 Tavof qil erkinlik elchilarini.  
 Qo'llarimda qalam titraydi yana,  
 Manguga bor bo'lsin Haqiqat va She'r.  
 Seni quchoqlayman qo'rqiб jimgina,  
 Ho'kizning shoxida titrab turgan Yer.  
 Quvg'indi sultonday yellar kezdilar,  
 Meni olib ketdi uchar gilamlar.  
 Osmonlarda oppoq qushlar suzdilar,  
 Yuraklar dog'ini yuvdi shabnamlar.  
 Yana xotiralar kirib keladi,  
 Sochlari yelkada yoyilgan malak.  
 Horg'in vujudimni sarxush qiladi,  
 Ulkan to'yxonaga aylanar yurak.  
 Gullar yayraydilar keksa dunyoda,  
 Yomg'irlar so'ngida mayjlanar toshlar.  
 Boychechak gullagan Surxondaryoda  
 Otam o'zbeklarning to'yini boshlar.  
 Men esa, chorlayman qadimiу ruhni:  
 Himmating ulug'dir, borlig'ing saxo.  
 Janglarga chaqirdim sokin qo'shiqni,  
 O'zing madadkor bo'l ismsiz daho!

1981

## Mangulikdan Ketgan Darz

Munosib emasman senga hech qachon,  
 Munosib emasman, nochor va no'noq.  
 Men bugun o'limga topshirdim bir jon,  
 O'ttiz to'qqiz jonio qoldi-ku, biroq.  
 O, yurak bor-yo'g'im, seni chaqirdim,  
 So'ng otdim ag'yorlar tovog'i tomon.  
 So'nggi chiroqlarni ko'zdan o'chirdim,  
 Ajab tomoshadan kular olomon.  
 Kecha og'ir edi. Kecha dilozor...  
 Yaxshilar, yomonlar, qolmang g'aflatda.  
 Har bitta odamning qirqta joni bor,  
 Bir yurak ichida qirq jon, albatta.  
 Zotan, aziz do'stga aytibman vido,  
 Meni teatrga chorlar olomon.  
 "Sen nega bizlarni toq qilib qo'yding?" -  
 Yig'ilib keladi o'ttiz to'qqiz jon.  
 Qaydasiz ko'z yoshlar? Qaydasan, vijdon?!  
 Chorlayman vahmali, sharafsiz, shonsiz.  
 Bo'g'zimga tiqilar o'ttiz to'qqiz jon,  
 Yashab bo'lmayapti qirqinchi jonsiz.

1985

## Oltin Qo'zichoq

I

Ona sovliq bo'zlar og'zidan  
 Laxta-laxta qizg'aldoq to'kib,  
 Siniq toshday tiqiq bo'g'zida  
 To'qqiz oylik oyatlar yuqi.  
 Bir ingroq to'ldirir bo'shilqni,  
 Bir karam qilmasmi yaratgan?

Xudo suyub urdi sovliqni  
 Oltin qo'zi berib falakdan.  
 Qarg'ishlar tutmasmi borliqni -  
 Laxta-laxta qora qizg'aldoq,  
 Xudo suyub urdi sovliqni -  
 Tug'di yana oltin qo'zichoq.  
 II

Sovliq o'zin har yonga otar,  
 Goh xudo, goh shaytonga otar.  
 Oltin qo'zichoqni so'yarlar...  
 Yeliniga to'ladi yurak,  
 Qip-qizil sut bo'ladi yurak.  
 Oltin qo'zichoqni so'yarlar...  
 Chaynagani odamning oltin,  
 Sovliq esa, chaynar hayotin.  
 Oltin qo'zichoqni so'yarlar.

III

Oltin qo'zichoqning so'yilar chog'i  
 Bo'ri bo'lgisi keldi sovliqning,  
 Yo'lbars bo'lgisi keldi...  
 Baliq bo'lgisi... Chumoli...  
 Fil bo'lgisi keldi sovliqning...  
 Qoplon bo'lgisi keldi...  
 Qurbaqa bo'lgisi...  
 Chuvalchang...  
 Lekin,  
 Odam bo'lgisi kelmadи sovliqning.  
 Odam bo'lgisi kelmadи sira.  
 1988

Urushdan Keyingi Urush  
 (Turkum)  
 Asorat

Bulutlar parchasi - ko'k ko'yak yana  
 Omon chiqayotir qirqinchi qishdan.  
 Holing nima kechdi, holsizim, onam,  
 Qaytib bormayapman urushdan?  
 Kecha xo'rsinadi, kuyib ketar oy,  
 Ko'ngil siniglarin yamaysan tushda.  
 Holing nima kechdi, bir holim, otam,  
 Qaytib bormayapman urushdan?  
 Iffat zarpardasi - Sharqning ro'moli  
 Suyuq gavharlarga to'lar tuyqusdan.  
 Holing nima kechdi, jufti halolim,  
 Qaytib bormayapman urushdan?  
 Muhammad payg'ambar g'azotdan qaytdi,  
 Suvorov qaytadi qaytganday ishdan.  
 Che Gevara qaytdi, Robin Gud qaytdi,  
 Eshqobil qaytmadi hamon urushdan.  
 1988

Urush

"Opa, Vatan - ulug' dard,  
 Opa, Vatan bog' bo'lsin.  
 She'rda suratin chizsam,  
 To'rt muchasi sog' bo'lsin.Бўк  
 Usmon Azim  
 Urush!!!  
 (Baqirib yuborar undov belgilari,  
 Askarlar tayangan qo'litiqtayoqday)  
 Urush...  
 (Nafas ololmasdan qolar nuqtalar

Qo'rg'oshin uch marta teshgan yurakday)  
 Qiy nab qo'y madimi sizni, otalar,  
 Go'dak bolalarning katta so'rog'i?  
 Vatan tuprog'ini hamon tush ko'rар,  
 Jangchining Berlinda qolgan oyog'i.  
 Salomga chap qo'lni uzatar sekin,  
 Horg'in vujudida asabiy titroq.  
 O'ng qo'li vujuddan olisda, lekin  
 Tin chlik deb zulmatda ko'targan chiroq.  
 Urush!!!  
 (Baqirib yuborar undov belgilari,  
 Sog'inchdan qurigan daraxtlarday)  
 Urush...  
 (Nafas ololmasdan qolar nuqtalar,  
 Maydalab tashlagan qorxatlarday)  
 Siz qaytib keldingiz urushdan,  
 Qaysingizda oyoq... Qaysingizda qo'l...  
 Qaysingiz ko'zdan-u, qaysingiz pushtdan...  
 Lekin ko'kraklarda hilpiraydi gul.  
 Vujudsiz oyoqlar yer sharin yorib,  
 Olg'a yuguradi, hansirar g'anim.  
 Siz-chi, shivirlaysiz qishloqqa borib:  
 "Sening oyoq-qo'ling sog'mi, Vatanim".  
 1985

## O'zbek Otaning Qirq Uchinchi Yildagi Faryodlari

Yer yig'lar, osmon yig'lar,  
 Ko'ksimda to'nar ohim.  
 Ko'z - do'zax, rizvon yig'lar  
 Yig'laydi siniq mohim.  
 Dil - ikki jahon yig'lar:  
 Voy bolam-a,  
 Voy bolam.  
 To'lmay ketgan  
 Oy bolam!  
 O'chog'imda o'ng-tushlar  
 Qalovli qorday yonar,  
 Tunni kiygan boyqushlar  
 Ko'nglimni cho'qib o'ynar.  
 Ilonlarning po'stidan  
 Iylangan vahma-po'stak,  
 Orzularning ustida  
 Baqrayar kaltakesak.  
 Voy bolam-a,  
 Voy bolam!  
 Oqmay ketgan  
 Soy bolam!  
 Qonli kafan hilpirar,  
 Bo'g'zimda kuygan shamol.  
 Tun... Yulduzlar dildirab,  
 Qo'ynimda muzlar behol.  
 Itday uvlaydi oqshom  
 G'arib qolgan darchada,  
 Ko'zimda qon to'la shom,  
 Huvillaydi ko'chalar.  
 Voy bolam-a,  
 Voy bolam!  
 Kuysiz singan  
 Nay bolam!  
 Azador eshigimda  
 Qushday osilgan ko'nglim,  
 Tobutmas, beshigingda  
 Tebranib yotar o'lim.  
 Voy bolam-a,  
 Voy bolam!  
 Sut qo'msagan

Toy bolam!

Hayot, qo'rqlama, hayot sen,

Yemish bo'lmas, yuragim.

Lek, gumburlab quladi

Osmonimga turgagim.

Voy bolam-a,

Voy bolam!

Bo'lmay qolgan

To'y bolam.

Yer yig'lar, osmon yig'lar,

Ko'ksimda to'nar ohim.

Dil - ikki jahon yig'lar,

Yig'laydi singan mohim.

1984

Qirq Uchinchi Yil Qo'shiqlari

1

Oshlarning ustida har kuni duo,

Qoshlarning ostida mung'ayar vido.

Men tunning titrog'i, Oyning titrog'i.

Tilimning uchida yashaydi xudo.

Tushlarim tebratar beshiktebratar,

Ko'zlarim tebratar eshik, tebratar.

Men tunning sukuti, oyning yig'isi,

Chorlov qo'llarimni bo'shliq tebratar.

Yo'llar, ko'zlarimni horitdi yo'llar,

Jonday so'zlarimni qaritdi yo'llar.

Men - hayot ovunchi, sog'inch sog'inchı,

Sening diydoringga zor etdi yo'llar.

Og'ir sadolarga to'ladir olam,

Tiyra samolarda sinadir nolam,

Nega qucholmayman, o'pa olmayman,

Axir, yuragimda yuradir bolam.

2

Dard, nidoga aylanar kecha,

Iltijoga aylanar kecha.

Sadoqatli bitta banda-yu

Bir xudoga aylanar kecha.

Ko'zim og'rir, yuragim og'rir,

Tilim og'ritadi qo'shiqnı.

Tun xotirjam, ko'ngil besabr,

Sovuq oy yondirar bo'shliqni.

Bo'g'zimni yulduzlar kuydirar,

Umrim og'rir, o'limim og'rir.

Kechamni kunduzlar kuydirar,

Kunlardan ham lahzalar og'ir.

Tun bezovta, yo'llar yig'laydi,

Yurakka sanchaman qo'limni.

Ne qilay, qo'limdan kelmaydi,

O'ldira olmayman o'limni.

1986

To'lg'onoy

■ Sensiz O'zbekiston O'zbekistonmas! ■

Mirtemir

Yasharding ko'zlarning qarolarida,

Undagi bog'larning arolarida.

Sen bir suluv eding sochlari jo'shgan,

Qoshingda hayratlar hayratga tushgan.

Yig'larding, o, hech kim yig'lamas senday,

Kularding, o, hech kim kulolmas unday,

Go'zal kamalakning yetti rangini

Rad eta olardi sho'x kulgularing.

Bolalar kuylardilar sening haqingda,

Nolalar kuylardilar sening haqingda:

"Tolim sochlaringning o'rimi mayda,  
 Zolim qoshlaringning terimi mayda.  
 Mayli, vaslingni deb tunlar to'lg'anay,  
 Faqat, meniki bo'l, suluv To'lg'onoy".  
 Seni ko'plar sevdi, qilolmay toqat,  
 Goho olam bilan chikdi yuzma-yuz.  
 Seni ko'plar sevdi, sen esa faqat.  
 To'lishgan oy kabi barkamol, ma'yus.  
 Goho muhabbat deb bosh ko'tardi musht,  
 Kimning boshi yoriq, kimning burni qon.  
 Kimgadir izza-yu, kimgadir olqish,  
 Sen esa, o'rtada kuyinchak vijdon.  
 O'smirlik, g'ayruting, kuchingga sharaf,  
 Sening huzuringda lol qolar olam.  
 Sen jangga kirasan tarafma-taraf,  
 O'rtada To'lg'onoy - sevinch va alam.  
 To'lg'onoy, ketdilar ular urushga,  
 Endi Vatan deya jangga kirdilar.  
 O'qlar ovozidan titragan tushda,  
 Sening yoningdagi yurtni ko'rdilar.  
 Qilgan achchiqlaring qiynaydi goho,  
 Sendan va olamdan ketar ko'plari.  
 Sen so'nggi qarorga kelasan illo:  
 "Suyukli edilar ularning bari".  
 Qishloqqa kuyinib sirli o'tinib,  
 Xabarlar keladi, og'ir xabarlar.  
 Bunda hayot suvi - umid sutini  
 Har tun emib ketar echkiemarlar.  
 Sening yuraging ham o'rgandi qarg'ish  
 Va tunlar falakdan tilashni omon.  
 Xalqlarni qaqqhatdi dahshatlri urush,  
 Sen nega o'rtada bo'lmaiding vijdon.  
 Bu ulkan dunyodan ulkan davlatlar  
 Foje' sahnasida keldi yuzma-yuz.  
 To'xtatib qolmoqqa endi ularni  
 Vijdon bo'lolmadi bokira bir qiz.  
 Sen tunlar chorlaysan ketganlar ruhin,  
 Besamar so'roqqa tutib xudoni.  
 O'sha million-million shahidlar uchun  
 Gunohkor sanaysan butun dunyoni.  
 To'lg'onoy, ketdilar ular urushga,  
 Sening xayoling-la jangga kirdilar.  
 O'qlar ovozidan titragan tushda  
 Sening yoningdagi xalqni ko'rdilar.

1988

## Xotiralar

Meni xotiralar qiynaydi og'ir,  
 Befarzand ayolday xotiralar...  
 Yetimlarday izlar qaynoq bir bag'ir  
 Ko'zлari shamolday xotiralar.  
 Meni xotiralar qiynaydi og'ir...  
 Qalbleri, vasl ila firoqlarini  
 Yillarim yeb qo'ygan xotiralar,  
 Yuragimga bosib oyoqlarini  
 Suyaklari kuygan xotiralar.  
 Meni xotiralar qiynaydi og'ir...  
 Uzun sochlariiga olov tutashib,  
 Shamollar uchirgan xotiralar.  
 Kipriklari bilan yulduzlar tashib,  
 Ko'zda suv ichirgan xotiralar.  
 Meni xotiralar qiynaydi og'ir...  
 Yurakdan kuyingan bemorlar kabi  
 Og'ir xotiralar birma-bir o'tar...  
 Kuyuk tabassumdan yorilib labi  
 Osmon kafaniga o'ralib ketar...

Meni xotiralar qiyaydi og'ir...  
 Ko'zlari shamolday xotiralar...  
 1989

### Men Va Musicha

Manzar qirg'ida muncha qayg'uli  
 Javdirab turarsan, singlim musicha.  
 Meni odam qildi dunyo dog'uli,  
 Men ham musichaydim... Ko'nglim musiqa.  
 Men bunda begona, qanotsiz, daydi,  
 Yuragim uloqdir, dunyo otchopar.  
 Toptalgan dilimni obketolmaydi  
 Manzardan javdirab boqqan mushtipar.  
 1994

### Gung Hikoyasi

Avaz sukunatning bolasi edi,  
 Singilday suyardi musicalarni...  
 Tengdoshlari - odam bolalaridan  
 Itdan qo'rqnak kabi bezib yurardi.  
 Takabbur tengdoshlar goho ermakka  
 Ovlab o'ldirardi musicalarni...  
 Singillar o'ligin ko'rganda Avaz  
 Ovozsiz-ovozsiz hayqirar edi.  
 Bezib xo'rliklardan, haqoratlardan  
 Xilvat go'shalarga ketardi Avaz...  
 Ovloqda onasi Sukunat bilan  
 Uzoq gurunglashar, uzoq o'ynardi.  
 Ovloqda Avazning g'arib boshini  
 Mehribon silardi buyuk bir ovoz.  
 Bunda halok bo'lgan musicalarning  
 Qanoti ostida kuylari Avaz  
 1997

### БҶН Nasoyim Ul Muhabbat БҶГа Sayr Munojot

Borliq ham yo'qlikda mutloq o'zingsan,  
 Yo'qdan bor etuvchi xalloq o'zingsan.  
 Ojizman, vasfingga biror so'zim yo'q,  
 Bir qutlug' so'z ichra hali o'zim yo'q.  
 Bu xarob ko'ngilga davlat ato et,  
 Rahm qil, rahmlig' rahmat ato et.  
 Karimsan, karaming besarhad kengdir,  
 Bir nazaring ikki jahonga tengdir.  
 Bu tun ko'r ko'zimga nur tushsa, shoyad,  
 Dilim hidoyatga yo'l qo'shsa, shoyad.  
 Dunyoga qo'l berib gunohkordirman,  
 Vale, karamingdan umidvordirman.  
 Qay dilda sen yo'qsan, u dil o'likdir,  
 Eng buyuk ozodlik senga qullikdir.  
 Bizga Birga Xitob

Bitik bitmoq ersang, ey roviy,  
 Qo'lingni yurakka botirib bitgil.  
 Savob yozmoq ersang, ey osiy,  
 Manglayingdan o'zing bir yurib o'tgil.  
 Dunyo ko'rmoq ersang, ey so'qir,  
 O'z ko'zing ichiga bir kirib o'tgil.  
 Oshiq bo'lmoq ersang sen oxir,  
 Qo'lingni bo'shatib, dil ichra ketgil.

### Shayx Uvays Qaraniy

I. O'TTIZ IKKI TISH DOSTONI

(Ul zot) "Uhud urushida payg'ambarning muborak tishin shahid bo'lg'onin eshitib, mutobaat (tobe'lik, ixlos) uchun o'ttiz ikki tishin ushotti".

Yurakka qadalib yotgan toshlarni  
Birma-bir sug'urib olganday go'yo.  
Shayx Uvays ushatar durday tishlarin,  
Qonga botar tilin ostida dunyo.  
Bir parcha nur kelib tekkan Olloxdan  
Haqiqatning ramzi bu ulug' manglay,  
Hamdu sano uchun rasulullohga  
Laxta-laxta qondan so'z qilgan tanglay.  
Shayx Uvays tishlarin sug'urar tezlab,  
Havoda qanotday ko'karar har tish.  
So'ng yetti vodiydan Simurg'ni izlab,  
Uchib borayotir o'ttiz ikki qush.

Shayx Boyazid Bistomiy

I. Namoz

"Va sultonul orifin Boyazid Bistomiy namoz qilsa erdilar, qa'qaa alarning ko'ksi so'ngaklaridan chiqar erdi".

Mashoyix og'rinib qilar malomat:  
Shayxda ilm tovushi, ilohiy ovoz,  
Ko'ksida Ka'basin qurgan diyonat,  
Vale Shayx nechukdir o'qimas namoz.  
Uning ko'zlarida islom yulduzi,  
Yuzlarida esa xudo nuri bor.  
Odammas, haqiqat farzandi o'zi,  
Lek namoz o'qimas, ul shayxi nomdor.  
Mashoyix ta'n qilur, mashoyix so'roq:  
"Sidq qayda, Boyazid, riyozat qayda?"  
Shayx esa xotirjam, islomi bayroq  
Kabi qo'zg'oladi joyidan:  
"Ey siz ulamolar, ta'nadan oldin,  
Mulohaza eting, ko'ring holimni..."  
Deya shayx Boyazid namoz boshladi,  
Jon ko'rib qolganday dil jamolini.  
Qanotga aylandi, qarang, joynamoz,  
Vujud so'ngaklari kuydi beomon.  
Shayx "Ollohu akbar" deb berganda ovoz,  
Xar tuki tubidan bosh ko'tardi qon.  
Mashoyix lol edi. Bu qanday namoz?  
Zarbidan chayqalib yotardi falak.  
"Ollohu akbar" deb berganda ovoz,  
Har tuki tubida qo'zg'oldi yurak.  
II. Ahvoli Ruhiya

Ko'nglim holi nadur? Yaratgan bilur,  
Bu dil Olloh mulki - mendan ziyorat.  
Elga hol aytmasam malomat qilur,  
Holim aytSAM bu el boshlar qiyomat.  
III. Me'roj

"Boyazid dediki.Oolloh taoloni tush ko'rdim, So'rdimki, bor xudoyo, yo'l sanga ne nav'dur? Dedikim, o'zungdan o'tting, yetting".  
Mumkindir chaqmoqni tish bilan tutmak,  
Til tishlab, dunyoni ko'z bilan yutmak,  
Jarayon kelmakdur, mohiyat - ketmak,  
O'zungdan o'tmak bu - Ollohogha yetmak.  
Ko'z yumsang, olamni ayon ko'rmog'ing,  
Manglaying ostida falak tirnog'i,  
Besh farzga ishora beshta barmog'ing  
Va qonli kemaday dilga minmog'ing,  
O'z sari yurmog'ing, o'zga bormog'ing...  
Bu dunyo - kelmakdur, mohiyat - ketmak,  
O'zingdan o'tmak bu - Ollohogha yetmak.  
IV. Oshiq

"Oni o'tgandin so'ng tush ko'rdilar, xolin so'rdilar. Dedikim, mendin so'rdilarki, ey qari, ne kelturubsen? Dedim, darvesh podshoh eshigiga kelsa, andin so'rmagaylarki ne kelturubsen, so'rg'aylarki, ne kerak".

Bir parcha non bo'lmas balki so'zimiz,  
Valekin oshiqmiz, oshiqmiz.  
Bir qultum suv bo'lmas balki ko'zimiz,  
Valekin oshiqmiz, oshiqmiz.  
Xayol va hijrondur nonu tuzimiz,  
Voh, bul kun oshiqmiz, oshiqmiz,  
Netong ko'ngil bo'ldi rizqu ro'zimiz,  
Ertan ham oshiqmiz, oshiqmiz,  
Yo'q bo'lib ketsak-da tamom o'zimiz,  
So'ng yana oshiqmiz, oshiqmiz.

Shayx Zunnun Misriy

I. Uch Ilm Hikmati

"Zunnun debturki, uch safar kildim va uch ilm kelturdim" (Bular tavba ilmi, tavakkal va muomalat ilmi, nihoyat haqiqat ilmidir)

Ilm - gadolikni ixtiyor etgan sultondur...sultondur.  
Tavba - oxiratga yalang'och ketgan insondur, insondur.  
Muhabbat - jon qushin talabi, toki sayrondur, hayrondur.  
Haqiqat - bir dilda olishgan ikki jahondur, jahondur.  
II. Surat Va Siyrat

Voajab! Bir zangi ko'rdim bu dunda,  
Ming kecha zulmatin kiygan bir zangi.  
U har gal oh ila "Olloh!" deganda,  
Botayotgan oyday oqardi rangi.  
Voajab! Holing ne, ey osiy banda,  
Vujudingda balqmish olamning tongi.  
Sen har gal oshiqib, "Dunyo!" deganda,  
Tutilgan oy kabi qoraydi ranging.  
III. Yashil O'lim

Shayxning xazon kuni bahorlar keldi,  
Falak yashil bayroq tusiga kirdi.  
Ko'k yuzini tutdi soyasiz  
Nihoyasiz yashil qushlar, nihoyasiz...  
O, shayxning tobuti go'riston qadar  
Daraxtday ko'karib ulgurdi... (Shajar)  
Yorab, ne masofa qondan jongacha,  
Shayx ko'karib ulgurdi go'rיסטongacha.  
Yorab, ne g'avg'oda tan ila ko'ngil,  
Daraxt - Tobut ichra o'sardi bir gul.  
Ikki dunyo aro tilim va tilim  
Yastanib yotardi yam-yashil o'lim,

Ishq Va Talab Qayg'usi

Shabnamday dilimga yutdim subhini,  
Olov uzra sochdim jon tasbehini.  
Ey jon, holing xarob, matlabing tarab,  
Ey dil, ishq qonidan bir kosa sharob.  
Ko'ngilning ko'nglagi, kel, ey shabiston,  
Sham'ingga ko'milib kuysin ustixon.  
Ishq va talab kelsin qoshu qabokdin,  
Ishq nasiba bo'lsin Shomu Irokdin.  
Jon uzra chayqalib turar muttasil,  
Mansur kabi dorga tortilgan bu dil.

Yo'qlov

Simurg' yuz yil izlab o'zidan topgan,  
Olloh manglayidan erkalab o'pgan,  
Karvonin shaytonning itlari qopgan,  
Ko'nglim risolati, qanisan, qani?..

Jonim ibodati, qanisan, qani?..  
 Qadr kechasida o'ttiz hur tuqqan,  
 Ming-ming och gadoyni so'z bilan boqqan,  
 Dil o'tida et va suyagin yoqqan,  
 Ko'nglim risolati, qanisan, qani?..  
 Jonim ibodati, qanisan, qani?..  
 Sahroyi quyunga do'ndi bulutlar,  
 Kemaday chayqalib suzar tobutlar,  
 Sen omon kabutar, hayron kabutar,  
 Ko'nglim risolati, qanisan, qani?..  
 Jonim ibodati, qanisan, qani?..  
 Bu ko'hna olamga balki qaytmassan,  
 Yurak yalang'ochlab qayta o'tmassan,  
 Yolg'onchi dunyoga meni sotmassan,  
 Ko'nglim risolati, qanisan, qani?..  
 Jonim ibodati, qanisan, qani?...

### Yassaviy

Men endi so'zlasam -  
 Yashil yalov kiyar unut oyatlar.  
 Men endi oh ursam -  
 Jizillab pishadi muzlab yotgan oy.  
 Men endi yig'lasam -  
 Nuhning kemasidey qibлага tomon  
 Qayg'uli-qayg'uli suza boshlaydi  
 Shilqillab ho'l bo'lган qari joynamoz.  
 1992

### Ovoz

Iztirob tovushi - mening ovozim,  
 Ko'zlarim - ko'nargan iztirobrangi.  
 Tan - dilim egovi. O'zim-chi? O'zim -  
 To'qnashgan kayg'ular jarangi.  
 Ilk bor ibodatga cho'kkан dinsizday,  
 Yuragin yopinib o'qiydi namoz,  
 Ko'p og'ir chayqalib namoz o'qiydi,  
 Qayg'uli odamga o'xshagan ovoz.

### Bedil

Ko'p bo'ldi oyog'im yerdan uzilgan...  
 Bir quloch yuqori yuraman sizdan  
 Kushday yalangoyoq, oy kabi yayov.  
 Qadam qo'yar bo'lsmal yerga endi men,  
 Har bosgan izimdan adashgan gulday  
 Ko'karib chiqadi bir dasta olov.  
 1992

### Hech Kim Hamma

Oy va shamol bilan dillashgim kelar,  
 Singan xum ichidan o'zimni topdim.  
 O'zimga to'laman, ganj kabi to'la,  
 Xum sindi. Hammani nogoh yo'qotdim.  
 Oy va shamol bilan dillashgim keldi...  
 Isoning xochimas mening chorrahram.  
 Bir paytlar odamzot hali yo'q edi,  
 Bor edik shamol ham, oy ham va men ham.  
 1996

### Fidoyi Xudbin

Aldamchi dunyoni aldagim keldi,

Sizni yo'latmasman o'z soyamga ham,  
 Olamning so'ngiga yetmagan kabi,  
 Yetolmaslar mening nihoyamga ham.  
 Hayot qayda o'zi? Haqiqat qayda?  
 Shamolday tarixsiz, rivoyasizman.  
 Ibtidom, intihom o'zim bor joyda,  
 O'zim bor joyda men nihoyasizman  
 1996

## Hammol

O'limni kech kuzda qarshilash kerak...  
 O'yilgan ko'ngilday uvillar shamol,  
 Sotilgan sir kabi shovullar xazon,  
 Kimmadir ko'tarib yurar bir hammol.  
 O'limni sevgiday qarshilash kerak...  
 Kimning bevasi bu dilpora shamol,  
 Kimning sag'iri bu bechora xazon  
 Va kimni opichlab ko'targan hammol.  
 O'limni singilday qarshilash kerak...  
 Kulrang shohkosadan to'kilgan yomg'ir.  
 Alvon gulkosani etganda poymol  
 Ko'chadan lo'killab o'tar bir hammol.  
 O'limni kech kuzda qarshilash kerak...  
 Dildirab yig'laydi javragan shamol...  
 Qorong'i ko'chada qayga ketmoqda  
 O'z o'ligin o'zi ko'targan hammol?..  
 1996

\* \* \*

Sen qaysi olamning elchisi, ay ruh,  
 Kelgindi zindonband, ummondan ayru?  
 Yuzqaro dunyoga yuzing buribsan,  
 Zulmat chimildiqqa xush kelding, oyro'  
 1996

## Ov

Gul sotib o'tirar qari megajin,  
 Ilon til o'ynatib chiqar shikorga.  
 Hushtak chalib bog'ni aylanadi jin,  
 Osmonga qag'illar bir so'qir qarg'a.  
 Nega?.. Nega?.. Nega?..  
 Gul sotib o'tirar qari megajin,  
 Tili tanglayini chaladi: shaq-shaq.  
 Har kun bir bulbulning jigarin yeydi,  
 Qari olashaqshaq, ko'r olashaqshaq.  
 Nega?.. Nega?.. Nega?..  
 Gul sotib o'tirar qari megajin,  
 Abadiy xizmatkor shaytonga.  
 Bog'ni hushtak kabi chalib ketdi jin,  
 Oyog'i osmonda... Oyog'i osmonda...  
 Nega?.. Nega?.. Nega?..  
 1996

## Taslim

Oqqana tovuq xirmon chochdi,  
 O'z sirini o'zi ochdi.  
 Oqqana tovuq, oqqana...  
 Sir ketdi - savlat ketdi,  
 Botmonlab davlat ketdi.  
 Oqqana tovuq, sho'rgina...

Tom boshida tosh terar,  
 Kim ko'rarga qichqirar,  
 Oqqana tovuq, ko'rgina...  
 Oqqana tovuq oq bo'ldi,  
 Uch karra taloq bo'ldi.  
 Elga kulgi - tovg'a tulki,  
 Shaqqillab shaloq bo'ldi.  
 Oqqana tovuq "oh" deydi,  
 Bir ishni bilib qo'ydi.  
 Sho'r tovuq tariq yesa,  
 Bu dunyosi sir yeydi.  
 Oqqana tovuq, oqqana...  
 1996

Umr  
БТНAsling bilsang obi-gil..БТК.Yassavyiy

Ustidan ko'rpani sidiradi tong  
 Go'dakday yalang'och... Ayolday xijil.  
 Yostiqning ustida sudraladi ong:  
 Nega tongning qo'li yam-yashil?..  
 Vaqtning o'rog'iday xo'rozning dumi,  
 Qonli qanotida sinib yotar oy.  
 Nahot, umr shumi? O'tmishim shumi?  
 Loydan yasalgandim... Oqibat ham loy.  
 Yasanib, ranglanib chikdim dunyoga,  
 Ko'ksimdag'i qushim yo'limda yo'l dosh.  
 Shomgacha bu qushni uchirmoq ishim.  
 Shomgacha sopolni pishirar quyosh.  
 1996

Uchrashuv

Boychechak chechaklab dunyo tomida,  
 Ma'yus yoriladi mazlum qizg'aldoq.  
 Umrimning xafaqon bir oqshomida  
 Azal so'rog'iday ma'sum qizaloq  
 Keldi huzurimga sokin, og'rini  
 Hamal chechagiday g'amgin, parishon.  
 Kimdandir bezib u, kimni sog'inib  
 Keldi, qizg'aldokday qizardi oqshom.  
 БТ"Ilming ne? - dedi u.  
 БТ"Yashamoq, o'lmoq.  
 БТ"O'zing kim?  
 БТ"Dayr aro aqlii daydi.  
 Og'zidan dur sochib kuldil qizaloq:  
 БТ"Sen, mayda do'konning sayyodi, saydi,  
 БТ"Dasht ko'rmay dallilik, daydilik qayda?  
 So'ngra der:  
 БТ"Do'sting kim?  
 БТ"O'zimga o'zim.  
 БТ"Dushmaning?..  
 БТ"Va yana o'zimga o'zim.  
 БТ"O'zingni bilmasdan tavallo nechun,  
 Ichingga boqmasdan ochilmas ko'zing.  
 Yana g'amgin bo'lib qoldi qizaloq:  
 БТ"Sen bizdan kechdingmi?  
 БТ"O'zimdan qochdim...  
 БТ"Qochib nima topding, nimaga yetding?  
 БТ""Hechlikda hech narsa" degan fan ochdim.  
 БТ"Timrik hikmatlarga to'la eding-ku?  
 БТ"Birma-bir o'ldirdim, ketdilar sabil...  
 Qizaloq ko'zida hayqirar qayg'u:  
 БТ"Nahotki, qotilsan! Qotilsan, qotil.  
 БТ"Qiyralgan hikmatlar, qurban tuyg'ular,  
 O'zimniki edi, hukm ham mendan.

Бў”Тангри омонати edilar ular,  
 Омонат ustida xiyonat sendan.  
 Orada chayqaldi og'ir sukunat.  
 Faqat bitta nafas - yig'imi, afsus?  
 Bir yon adashgan nur, bir yonda zulmat...  
 Ketishga chog'landi so'ng qizg'aldoq qiz.  
**Бў”Kimsan? - dedim so'ng bor, ketar chog'da u**  
 Qayrilib, qaradi ma'yus, parishon.  
 Chehrasida gullab borarkan qayg'u,  
 Dedi: "Men vijdonman... quvg'indi vijdon",  
 Boychechak chechaklab dunyo tomida,  
 Ma'yus yorilganda mazlum qizg'aldoq,  
 Umrimning xafaqon bir oqshomidan  
 Shunday o'tib ketdi o'sha qizaloq.  
 2000

\* \* \*

Ey pir, holim zabun, idrokim xarob,  
 Horitdi ta'nalar, g'iybat, olqishlar.  
 Na kuy taskin berar, na gul, na sharob  
 Ruhim osmonida muzlagan qishlar.  
 Aylandim, dunyoga surinib dilgir,  
 Meni qay to'daga otdi palaxmon.  
 Baxtni istaganim aybimmi axir,  
 Mehr istaganim yomonmi, yomon?  
 Bir vaqtlar kaftimda oy porlagani  
 Tovonimda chaqmoq gullagani rost  
 Aybimmi, dunyodan qo'l so'riganim,  
 Aybimmi, togramga bo'lay desam mos.  
 Keldimmi, ketmasman endi behuda,  
 Yorab, yiroq tutma meni ilmingdan  
 Men orsiz yashashdan qo'rqaman juda,  
 Men qattiq qo'rqaman orsiz o'limdan.  
 2000

\* \* \*

"Men ilon og'zidan shakkar talabman". Zebuniso

Tikondan gul so'rab gavhar topgan men,  
 Ilondan bol so'rab javhar topgan men,  
 Qabrdan nur so'rab qamar topgan men,  
 Meni kechiringlar, mazlum tuyg'ular.  
 Dil ustida dunyo mangu dilozor,  
 Ko'r ko'zlar har kasdan tilandi diyord.  
 Bildim, hech yarashmas bizga bu bozor,  
 Meni kechiringlar, mazlum tuyg'ular.  
 Muazzin tilimda chaqirdi azon,  
 Qaldirg'och ko'ksimda tikladi qo'rg'on.  
 Ikki dunyo aro bir dil sargardon,  
 Meni kechiringlar, mazlum tuyg'ular.  
 2000

\* \* \*

Senda titrab yotar ma'yus oqshomlar,  
 Shafaqlar yuzimga sachratadi qon.  
 Quyoshni yelkalab o'tadi shomlar,  
 Sen - xotira yurti, Isroil Subhon.  
 Bir yonda Varaxsha, bir yonda Poykent,  
 Chalganday halokat surin Isrofil...  
 Mangu zulumotga cho'kib ketgan kent  
 Ko'zlaring qa'rida yotar, Isroil.  
 Buxoroni yubor Aziz Saiddan,  
 Sog'inch tariqatin egallagan sen.

Sakkizinchi qavat manzarida jim  
 Buxoro izladik... Abduvali bilan men.  
 Bir yon g'ayb eshigi, bir yon bu hayot...  
 Pirlarning xokidan taralmokda shon,  
 Subhni yetaklab kelmokda bomdod,  
 Sen - xotira yurti, Isroil Subhon.  
 2000

\* \* \*

Assalom xudoning kunduzi,  
 Meni yo'rgaklab ol zar rishtalar-la...  
 Paymonamdan oldin to'lmoskda ko'zim,  
 Men ko'ngil ushatay farishtalarga.  
 Xudoning kunduzi, senga assalom!  
 Bir chimdim tuz totgin mening qo'limdan.  
 Paymonada umr, yurakda ilhom,  
 Diyona qarzim bor ahli mo'mindan.  
 Xudoning kunduzi, senga assalom...  
 1994

\* \* \*

Dilgir oqshomlarda dilimni suyab,  
 Gavjum ko'chalarda kezarmen tanho.  
 Telbaday o'zimdan o'zimni so'rab,  
 Hech narsa topmagan oqilman, ammo.  
 Hayot guvlab o'tar guldurak otib,  
 G'olib mag'lubman-u, mag'lub g'olibman.  
 Bu eski do'konga o'zimni sotib,  
 Qaytimiga azob sotib olibman.  
 Za'feron kunduzlar to'kilib borar,  
 Qog'ozga to'kilar tunday ko'zlarim.  
 Umrim ko'yylaklari yirtilib borar,  
 Qo'rg'onin topshirar Kuzga yozlarim.  
 Qulflri yuragimni qanday ochayin,  
 Qanday bosay ichda zilzilalarni.  
 Bilmaslik istarmen, bilganim sayin,  
 Bu ko'hna... bu yangi... mangu asarni.  
 2000

\* \* \*

Darding bir g'o'zadami, ko'zlarining ko'zadami,  
 Ko'nglingning manzillari to'yadami, azadami,  
 O'zini izlamasdan, o'zingni topolmassan.  
 Qo'llaring jilovdami, yo erking birovdamni,  
 Kul umring gulshandami, gul ko'ngling gulxandami,  
 O'zini izlamasdan, o'zingni topolmassan.  
 Tulporing shamolmidir, yo boring zavolmidir,  
 Arobang tillordanmi, xarobang hayordanmi,  
 O'zini izlamasdan, o'zingni topolmassan.  
 Bu dunyo kaftingdami, yo xurjun kiftingdami,  
 Zamona zabtingdami, yo ajal shiftingdami,  
 O'zini izlamasdan, o'zingni topolmassan.  
 2000

Tanazzul

O'ttiz yil suzdim men, qayig'im hilo,  
 Yulduzlar yurtida yuragim sarxush  
 Osmon yelinidan emar edim bol,  
 Deding: "pastga tush".  
 Keldim. Dunyo kezdim. Oyog'im yalang.  
 Daraxt do'stim bo'ldi. Hoksor singlim -  
 Yeganim nur edi. Ichganim ohang.

Deding: "pastga tush"  
 Ko'pchigan davralar. Kibrdor. Bashang.  
 Nafs poyida aql. Nahsga botgan hush.  
 Ulfatim xachiru... sirdoshim satang.  
 Deding: "pastga tush"  
 Axir qayda qoldi qayig'im hilol?  
 Kayda o'sha daraxt? Qayda o'sha qush?  
 Qulog'im ichidan shivirlar dajjal:  
 "Yana pastga tush".  
 2000

Naqshband  
(doston)  
\* \* \*

Bu  
 Semurg' qoni bilan yozilgan kitob,  
 Quyosh tomog'ida pishirilgan taom...  
 Bu  
 Vulqon yuragiga o'yilgan naqsh,  
 Bir kosa o'limday ichilgan qasam...  
 Bu  
 Shamol ko'ylagiga tikilgan kashta,  
 Chaqmoq shoxlarida yetilgan xurmo...  
 Bu  
 Dengiz devoliga chizilgan tasvir,  
 Bir qultum hayotday yutilgan daryo...  
 Bu  
 Shudringlar toshiga bitilgan bitik,  
 Qaqnus yuragida yashalgan o'lim...  
 Bu  
 Sopol sinig'ida butlangan dunyo,  
 Qalb ila osmonning tutashgan yo'li..  
 Bu  
 Haqqush minqorida sayragan tarix,  
 "O'limsiz hayot bu, hayotsiz o'lim"....  
 I

Qasri Hinduvonda...  
 g'uj-g'uj g'ujumlar  
 Hayrona ochilgan kaftlari uzra  
 Yog'du yog'murlari yog'ilgan kuni...  
 Najotga chorlagan muazzinlarning  
 Hurlar dovushiday hur ovozlari  
 Hurriyat kuyiday to'kilgan kuni.  
 Bir karvon o'tardi Hinduvon bo'ylab...  
 Tuyalar ustida o'rkachlar aro  
 Zikrdan chayqalgan oylar o'tardi,  
 Oyoq tirab yerning uzangisiga  
 Osmonga uzangan otlar o'tardi.  
 Kuyik yollarida chaqmoq o'ynatib,  
 O'limni tishlagan sherlar o'tardi.  
 Sim-simlab, yuragin sim-sim qonatib,  
 Quyoshda qishlagan pirlar o'tardi.  
 Ulkan qanotlari - shamol qishlog'i,  
 Osmonni yelkalab qushlar o'tardi.  
 Bir karvon o'tardi Hinduvon bo'ylab...  
 Qari gujumlarning xush salqinida  
 Sajdaga bosh qo'yar sersut bulutlar.  
 Quruqshoq gujumlar gullay boshlaydi,  
 Gullagani kabi cho'bin tobutlar.  
 Kesaklar zikr aytar - sachrab ketar o't,  
 Xarsanglar yorilar - ichi to'la gul...  
 Xazonlar tirilar maysaday xushnud,  
 Har qabr boshidan boshlanar bir yo'l...  
 Uchayotgan dumli yulduzlar kabi,  
 Uchardi zikrdan mastona qushlar.

Har dilga mehmonga kelar bir nabiy,  
 Har dilning bog'ida muhabbat pishar...  
 Bir karvon o'tardi Hinduvon bo'ylab...  
 Ma'sum muslimalar homilalari  
 Halol luqma so'rab voldalardan  
 Qursoqda yurakday tepinar edi,  
 Buyuk Ism aytib hayqirar edi.  
 Jon sha'mi titragan ja'mi jonvorlar  
 Bu Ism o'tiga talpinar edi.  
 Osoyish bog'larda muslim daraxtlar  
 Ibodat deb safga tizilar edi.  
 Bir karvon o'tardi Hinduvon bo'ylab...  
 II

Boboyi Samosiy otdan tushdilar,  
 Bir chayqalib ketdi Qasri Hinduvon,  
 Bir buloq ko'z ochdi bosgan izidan.  
 Hizr hassasidan yoqqanday imon.  
 Hazrat Mir Kulol ham otdan tushdilar,  
 Falak xurjunidan to'kdi yulduzlar,  
 Manzildan viqor-la tushib keldi oy....  
 Poyiga to'shaldi ko'ngillar, ko'zlar.  
 Boboyi Samosiy otdan tushdilar,  
 Yaktagi yengidan dasta-dasta nur  
 Yetim Yer ustiga to'kildi sim-sim,  
 Qashshoq ro'zg'origa yog'ilganday dur.  
 Samosiy samoni hidladi avval,  
 Ollo nafasini tuydilar uzoq.  
 Ruhida yastandi abad va azal  
 Yuz ming tong nuridan yasab bir chiroq.  
 Go'dak hidlaganday onasin ko'ksin,  
 Sezganday payg'ambar bo'yin ummatlar,  
 Osmonga intilgan sevgi daraxtin,  
 Shoxlarida gullar buyuk oyatlar.  
 Samosiy samoni hidladi uzoq...  
 Va moviy chehrani suyib silagan  
 Barmoqlar uchidan sizib chikdi dil,  
 Dunyodan yuz burib diydor tilagan  
 Barmoqlar uchidan sizib chikdi dil.  
 Hinduvon tuprog'in hidladilar so'ng,  
 Abad shamollarin bo'ylar edilar.  
 Ilhom tovush berdi pirning tilida,  
 Tuproq hikmatini o'qib dedilar:  
 "Bu tuproqdin bir er isi keladir,  
 Ul er fayzi bilan Qasri Hinduvon  
 Kun yetib Qasri Orifon bo'ladir".  
 III

Ollo kiprigiga osilib turgan  
 Yulduzlar haqqi Pir bashorat etdi.  
 Ollo nafasidan harakat topgan  
 Oy, Quyosh haqqi Pir bashorat etdi.  
 Buyuk qiyomatni boshlamoq uchun,  
 Dunyodan qoq teri oshlamoq uchun,  
 Amr kutayotgan Isrofil suri haqqi,  
 Ko'p ma'sum, ko'p mo'min ahli jannatga  
 Rangdor kamalakdan yirtishlar yirtib,  
 Ko'yylaklar tikayotgan Idris haqqi,  
 Pir bashorat etdi.  
 Ummatlar diliqa umidvor boqqan,  
 Zulmatlar qa'rida quyoshlar yoqqan,  
 Olamlar sarvari Muhammad haqqi,  
 Haqiqat haqqi Pir bashorat etdi.  
 Halokat tamg'asi dunyo ustida,  
 Yolg'onlar, fitnalar, zavollar qasdida,  
 Buyuk boshpana - moviy Kuloh ostida  
 Mangu ilm haqqi Pir bashorat etdi.  
 IV

Boboyi Samosiy, samoviy Bobo,  
 Bir zumda Mashrikdan Mag'ribga borgan.  
 Egnida jandapo'sh, qalbi tojdor bobo  
 Damida o't-suvni o'ynata olgan.  
 Yirtiq kovushidan tuzagan qanot,  
 Osmon devorlarin so'z bilan yorgan.  
 Boboyi Samosiy, samoviy Bobo  
 Buyuk Bahouddin tavalludidan  
 Bashhorat bergen chog' muridlariga.  
 Xushxabar sochganda ko'ngil udidan,  
 Hinduvon osmoni, tuproqlariga  
 Yog'dular yog'murday yog'ilgan chog'da  
 Hali Bahovuddin ona qursoqda  
 Birinchi olamni yashar edilar.  
 Bir hovuch nur kabi titrar edilar.  
 V

Boboyi Samosiy, avliyo Bobo  
 Qasri Hinduvondan qayta o'tar choq,  
 Oq changlar to'zg'igan somon yo'lida  
 Qadim hayot bilan sirlashdi uzoq.  
 Bir zum tin oldida, so'ngra dedilar:  
 "Dimog'imiz sezgan o'shal er hidi  
 bu gal bu tuproqdan keldi ortiqroq"  
 VI

Mangulikning moviy vodiylarida  
 Zangori va harir to'lqinlar uzra  
 Yetaklab suzadi har bir ona yil  
 Uch yuz oltmish beshta bolalarini.  
 Odamlar qariydi, kunlar qarimas,  
 Avlodlarni qaritib, yillar qarimas.  
 Vaqtning shamolida dunyo ustunlari -  
 Achchiq kuyundilar uchar sarbasar.  
 Kunlar bola kelib, boladay ketar,  
 Yillar ona kelib, onaday ketar.  
 VII

Uch kundan so'ng Boboyi Samosiyning osmonning o'ngiri etaklariga manglayida oy porlagan go'dakni quyosh bolasiday obkeb soldilar. Etaklari nurga cho'lg'angan Bobo uni farzandlikka qabul qildilar.

Oq fotiha berdi Hazrati Xizr,  
 Oq qaldirg'och uchdi boshmaldog'idan.  
 Oq fotiha berdi Hazrati Xizr,  
 Duoga qanotin ochdi qaldirg'och.  
 Bir tabassum berdi Hazrati Xizr,  
 Oq kulgular to'kdi momoqaldoq.  
 Xush bir nazar berdi Hazrati Xizr  
 Tuyalar kiftidan o'sdi juft qanot.  
 Boboyi Samosiy, muborak Bobo,  
 Oyatni omonat topshirgan kabi,  
 Hayotni omonat topshirgan kabi  
 Go'dakni topshirdi Amir Kulolga.  
 Oq fotiha berdi Hazrati Xizr,  
 Hinduvon yo'lida eridi toshlar.  
 Fotihaning imlo tovushlariday  
 Osmonni qopladi oq qaldirg'ochlar.  
 VIII

Aslida bu dunyo to'fon ichinda,  
 Loyqa sel, ko'r kuyun tug'yon ichinda.  
 Har qadam orasi fitna va zavol,  
 G'ariblar giryasi giryon ichinda.  
 Bir ko'ngil istadim ayqash tanlardan,  
 Bir bug'doy topmadim somon ichinda.  
 Yemxo'rlar yem yig'ib, yemlab yoturlar,  
 O'zları yemishlar shayton ichinda.

Tishlangan oyoq-la qayga borursan,  
Norlardan itlar ko'p karvon ichinda.  
Aslida bu dunyo to'fon ichinda,  
Loyqa sel, ko'r quyun, tug'yon ichinda.  
Bir kema istabmen yorga yolbordim,  
Bir joynamoz suzdi ummon ichinda,  
Har kimga bir go'r bor zamin qa'rida,  
Har kimga bir kema osmon ichinda.  
Ey do'st, kemangga chiq Nuxday mardona,  
Aslida bu dunyo to'fon ichinda.

IX

"Hojamizning onalaridan - Ollox ularning sirlarini muqaddas qilsin - shunday naql qiladilar: "Farzandim Bahovuddin to'rt yoshti paytida: "Mana bu sigir peshonasi qashqa tug'adi" dedi. Takdirdan bo'lib uch-to'rt kundan keyin o'sha aytigan sifatdagi buzoq tug'ildi. Hamma taajjubda qolib: "Hazrati Xoja Muhammad Boboning muborak nafaslarining asari zohir bo'ldi", - dedilar.

"Bolaning ichida daho yashaydi" ...  
Bolaning tilidan gapirar daho,  
Bolaning ko'zi-la ko'radi daho...  
Bola shamol o'ynab shamol bo'ladi.  
Yomg'irga suyunib, yomg'irga do'nar  
Jajji kaftlarida hayot to'ladir,  
Farishtalar uning kiftida o'ynar.  
Bolaning ichida tong otmay turib,  
Dunyoning ustida yorimaydi tong.  
Bolaning ko'zida kun botmay turib,  
Shafaq chimildiqqa kirmaydi oqshom.  
Dunyodan yuz burib, chillaga kirgan  
Daho boshpanasi - bolaning ko'ngli,  
Jonvorlar, daraxtlar tilini bilgan  
Dahoga qiyindir odamlar tili.  
Bola dengiz ko'rib, dengiz bo'ladi,  
Bola osmon ko'rib, osmon bo'ladi.  
"Bolaning ichida yashaydi daho",  
Yashar yaratganning xush soyasida,  
Olam mohiyatday yastanib yotar,  
Dahoning g'aroyib boshpanasida...  
X

Guzarlarni qoplar qora tumanlar,  
Osmon soyalarin haybati sovuq.  
Bari qora kiygan ranglar, chamanlar,  
Qorong'u... Qorong'u... Yaqin-u yovuq...  
Buxoroning ovloq go'shalarida,  
Kecha zulmatida, yolg'izdan-yolg'iz,  
Hazrat Bahovuddin kezib yurarlar,  
Dunyo o'lib yotar surursiz, nursiz.  
XI

Ko'hna mozoriston... Mangu sukunat...  
Sukunat ohiday bir qora shamol.  
Yulduzlar o'ligi to'lgan bu xilqat,  
Qora hijob ichra yotar bemajol.  
Hurlar tovush berar nafasdan yengil,  
O'yiq qabrlarda uyalar shamol.  
Shohkosalar chil-chil, umrlar chil-chil,  
Har qabr qa'ridan kuygan qo'l kabi  
Sekin bosh ko'tarar bittadan savol.  
Bahovuddin tunni kezib yurarlar.  
Tun keza boshlaydi Bahovuddinni  
So'ng ulug'lar qabri sari borarlar,  
Yurak kosasiga to'ldirib dinni.  
Bir mozor boshiga bordilar Hazrat,  
Ma'yus lipilli bir xira chiroq.  
Chirog'don ichiga mash'al qamalgan.  
Pilik harakatga muhtojdir biroq.  
So'ngra yetishtilar Ajfarnuy[5] sari.  
Mozorda duch keldi ikki suvoriy -

Bir juft qilich bilan baland bellari. -  
 Isoni kutganday ikki havoriy.  
 Xazratni eltdilar Muzdoxun[6] tomon  
 Bir g'oyib ishorat berdi ziyorat. -  
 Mozorboshda yana pilik, chirog'don  
 Noayon bir sirdan qilar bashorat.  
 Qiblaga yuzlanib o'tirdi Hazrat,  
 G'aybga g'oyib ketdi ikki suvoriy.  
 Bo'linib ketganday surat va siyrat,  
 Nogahon yorildi Qibla devori.  
 Shunda paydo bo'lди havoda suzib,  
 Yashil harir bilan to'silgan bir taxt.  
 Hazratning ko'zlarini ketdilar kezib:  
 Taxning tegrasida pirlar bo'l mish taxt.  
 Taxt uzra oy kabi to'lin balqardi,  
 Hazrat G'ijduvoni - Xojayi jahon,  
 Poyidan yam-yashil nurlar oqardi,  
 Nuroni chehradan yog'ardi imon,  
 Uning atrofida olti ulug' pir,  
 Oltita osmondan bir-bir farishta.  
 Yetti osmon bo'y lab aytardi zikr,  
 Hamma zamonlarda har biri ishda,  
 Hammasi dunyodan ketgan ulug'lar,  
 Hazratning qoshida bo'lganda paydo.  
 Nogoh olovlandi dil ichra cho'g'lar,  
 Osmondan zaminga oqdi bir daryo.  
 Hazratga dedilar Xojai jahon:  
 Senga mozor uzra ko'rsatildi sir,  
 Seni kutmakdadir pilik, chirog'don,  
 Suluk piligiga harakat keltir.

XII

Ilohiy jazaba... Munavvar yog'du,  
 Falak yelinidan to'kiladi sut.  
 Dilda nur toshqini... Huzur daryosi...  
 Osmon yorig'idan yog'iladi qut.  
 Har neda tajalli - haqning ma'nosi,  
 Hazrat Ma'no ichra edilar behud.  
 Qoshida yer yuzi bug'doy donasi  
 Behudlik ichida yo'q edi hudud.  
 Hazrat bexud edi, tan uyasidan  
 Har tuki uchardi misli bir hudhud.  
 Munavvar chayqalgan hol ummonida  
 Singan qayiq kabi cho'kardi vujud.  
 Hazrat eslamakka yetishmak uchun  
 Unut kerak edi, Ilohiy Unut.

XIII

Shu tunda joziba yurtida Hazrat  
 Ilohiy oydinlik, munavvarlikda  
 Uchrasdi haq do'sti bir aziz bilan  
 Sirotday chayqalgan qaltis ko'prikda.  
 Oydinlik g'arqida Ollohnning do'sti  
 Oydin-oydin nigoh to'kib hazratga:  
 "Oshinolardan ko'rinasan", - dedi,  
 Tanish shodlik kabi, tanish hasratday,  
 Do'st nafasin sezib, dedilar Hazrat:  
 - Har nedan bezorman, Unga zordirman,  
 Do'stlar nazarining barakotidan  
 Oshno bo'lmoqlikdan umidvordirman.

\*\*\*

So'ngra hol so'radi Ollohnning do'sti  
 Hol so'radi ruhning hurriyatidan.  
 Ro'zg'or taftish etib dedilar Hazrat:  
 "Topsam shukr qilgum, topmasam sabr..."  
 Oydin-oydin edi Ollohnning do'sti,  
 Sokin-sokin dedi Ollohnning do'sti:

B "Yengil yo'l tutibsen, o'zga yo'l tanla,  
 Bo'yndan zanjirlab nafsing itini  
 Qaqshagan changalzor qa'riga tashla.  
 Munavvar nafas bu, oydin da'vat bu!  
 Xorlik tuprog'ida obodlik bordir.  
 Hoksoqlik oyog'ida azizlik bordir,  
 Oydin bir tun edi, muazzam bir tun,  
 Shunday bir hol kechdi ko'priq ustida,  
 Oylar g'arq pishgandi Do'stning ko'zida.  
 XIV

Hazrat ko'ngli xalqdan butkul uzildi,  
 Dunyodan qo'l tortdi, bazmdan oyoq.  
 Savlat va hashamning kuylagin yirtib,  
 Ko'ksidan sug'urib oldi bir chiroq.  
 O'lik qumlar uzra bir kema suzar,  
 Hazrat borardilar haq dashti tomon.  
 Qumlarga oyoqlar hikmatlar yozar,  
 Har bositgan izdan gullardi imyon.  
 Qumlar-da qoldardi shovullab, kuylab,  
 Bu gal o'zga edi Hazratning shaxti.  
 Kimsasiz, qaqrangan biyobon bo'ylab,  
 Kezib yurar edi jannat daraxti.  
 Hazrat uch kun yurdi suvsiz va nonsiz.  
 Ozig'i - muhabbat, ozig'i - imon.  
 Ruhming himmatidan endi gumonsiz,  
 Daryoga aylanib borar biyobon.  
 Bir otliq duch keldi to'rtinchchi kuni  
 Hazratga bir nonni qildi iltifot.  
 Nonga qaramadi, ishq tandirida  
 Dilini non kabi pishirgan bu zot.  
 Kezar... yulduzlarga to'lar kulohi,  
 Kurtak otib borar kuygan ud-aso.  
 Hazrat sahro kezar, hurriyat izlab,  
 Sahro kezganiday hazrati Muso.  
 XV

Yetti yil biyobon kezdilar Hazrat,  
 Yetim yetti yilni obod qildilar.  
 Oyoqlari - himmat, qo'llari - himmat,  
 Har lahma boshiga hikmat ildilar.  
 Olloh nazar qilgan jonivorlarni,  
 Og'aday, singilday siyladi Hazrat.  
 Yetti yil ichida yetmish ming zina  
 Yurakning ustidan tikladi Hazrat.  
 Muborak yuzlarin uzun kechalar  
 Hayvonlar iziga surtar edilar.  
 Yara, jarohatin jonivorlarning,  
 Dilin yarasiday bog'lar edilar.  
 Har kecha ko'zidan yuragin to'kib,  
 Buyuk nazar haqqi yig'lar edilar.  
 XVI

Bir itga duch keldi, bir tunda Hazrat,  
 Hol paydo bo'lди-da, muk tushgan kuyi.  
 Iltijo, yolborish qildilar faqat,  
 Ollohga yig'ladi tun bo'yi...  
 Bo'linar chog'ida tun ila tongning,  
 Xira tortganida so'nggi yulduzlar,  
 Qo'shilar chog'ida dil ila tanning,  
 Hazrat it tomonga tashladi nazar.  
 Nogoh it orqasin yerga qo'ydi-da,  
 To'rttala oyog'in baland ko'tarib,  
 Go'yo yer ustida osmon ko'tarib,  
 Ko'zin ko'kka tikib nolalar qildi,  
 Yaratgan yodi-la volalar qildi.  
 It miskin tovush-la alvon oh bilan,  
 Tunning chehrasini lolalar qildi.

Hazrat kaftlarini duoga ohib  
 "Omin... omin..." deya turdilar uzog'.  
 It esa, osmonga nolalar sochib,  
 Tongning eshigini ochardi bu chog'.  
 XVII

Hazrat yetti yil biyobon kezdilar,  
 Yetim yetti yilni qildilar obod.  
 Dildan Xudogacha bir yo'l qazdilar  
 Yurak tomiridan yasadi qanot.  
 Xorlik tuprog'ida obodlik bordir,  
 Xoksonlik oyog'ida azizlik bordir.  
 XVIII

Rahmat nurlariga to'lar tushlari,  
 Uyqu-tariqatdan yengilgan o'lim.  
 Ko'zidan suv ichar iloh qushlari,  
 Duoga ochilgan yurakning qo'li.  
 Hazrat tush ko'rарlar: g'uj-g'uj yulduzlar,  
 Tillo patlarini to'kar boshidan,  
 Oyning qayig'ida xotirjam suzgan  
 Hoja G'ijduvoniy chiqar qoshidan  
 Ilohiy tong otar vujud shomida,  
 Jon kashtasin yoyar bir go'zal anduh.  
 G'aybning osmonida, g'ayb zamonida,  
 Yuzma-yuz turadi ikki buyuk ruh.  
 Vaqt devori qular poyida Dilning,  
 Fano va baqoda balqar hurriyat.  
 Har kech tushlarida Bahovuddinni  
 G'ijduvoniy ruhi qilar tarbiyat,  
 Hazrat haqqa o'tar tun yorig'idan,  
 Har kech uyquda ham gullardi urfon.  
 Tushlar dengizida, oy qayig'ida  
 Suzib kelar edi Hojai jahon.  
 XIX  
 "Dil ba yoru, dast ba kor"  
 Bu so'zni -

Bu quyma oltinni olmak istadim,  
 Ichimda mahbus qush ruhoniyatim.  
 Bu so'zni -

Oy tuya ustida qonagan bag'irni  
 Yulduz yorug'ida bilmak istadim.  
 Bu so'zni -

Chaqmoqlar charxida charxlangan so'zni  
 Xom tilim ustiga qo'yimak istadim.  
 Bu so'zni -

Quyosh bog'larida pishgan hayotni,  
 Xom o'lim ustiga qo'yimak istadim.  
 Bu so'zni -

Tog'lar qo'rg'on qilib ko'targan so'zni,  
 Ko'zim kulbasida ko'rmaq istadim.  
 Bu so'zni -

Dilim daryosiga yetmagan kabi...  
 Bu so'zga yetmadim... Afsus... yetmadim...  
 XX

O'ziga o't qo'yib yonar saraton,  
 Oltin eritadi osmon erkasi.  
 Tanlardan ter emas, chakkilaydi jon,  
 Chok-chok yirtiladi ko'kning xirqasi.  
 Za'faron o't ichra tevarak behol,  
 Qo'rg'oshin misoli erib suyuldi.  
 Shunday kun hazratga piri Mir Kulol:  
 "Xumdonga o't yoqing", - deya buyurdi.  
 Pirdan xush nasimday esdi bu talab,  
 Berib sir va sabab ishoratini.  
 Hazrat xumdon ichra o'tinni qalab,  
 Yoqdi po'stinini - bor davlatini.  
 Zahmat kechalar tunni yopinmay,  
 Yopingan davlati yolg'iz shu po'stin.  
 Ipak kunduzlarni bir kiyib ko'rmay...  
 Kun kecha himmati yolg'iz shu po'stin.  
 Mir Kulol dedilar bu holni ko'rib:  
 "Xumdonga kiring-da, po'stinni oling!"  
 Hazrat der: "Temir ham ketardi erib,  
 Po'stin-ku yonadi o'tindan oldin".  
 Pir talab etdilar... Bosh egdi Hazrat.  
 Qalqonday qo'llari bezadi ko'ksin.  
 Xumdonga kirdilar... Lov-lov o't faqat,  
 Ammo bir tuki ham kuymagan po'stin.  
 Mir Kulol dedilar: "Farzand, boqingiz,  
 Buyuk otash ichra dil va tan o'tin -  
 Siz Olloh ishqida kuygan chog'ingiz  
 Siz bilan tengma-teng yongan shu po'stin.  
 Bu po'stin siz bilan Ishq o'tin ko'rgan,  
 Unga kor qilarmi xumdon olovi.  
 Qayta kuydirilmas, bir bora kuygan,  
 Olovdan tikilgan Ishqning yalovi.  
 Darvesh zohirini kuydira olmas,  
 Namrud otashgohi, dunyo talashi,  
 Darveshlar qalbidan joy olsangiz, bas,  
 Sizni kuydirolmas do'zax otashi.  
 Bir olov bormokda... Yonar saraton.  
 Borar quyoshlarga to'ldirib ko'ksin.  
 Olov yurib borar kunbotar tomon,  
 Egnida bir tuki kuymagan po'stin.

XXI

Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq,  
 Nima qilaylikki...  
 Ko'ngil bog'lariга to'lган xazonlarni  
 Xufiyona zikrning xush shamollar  
 Bir juft farishtaday supurib sidirsa...  
 Nima qilaylikki...  
 Tilimiz so'qmoqlari  
 Osmon gullariga ko'milib qolgan,  
 Dilimiz ariqlari  
 Iloh suvlariga limmo-lim to'lgan.  
 Qanday tillashaylik,  
 Qanday dillashaylik siz bilan, ey xalq.  
 Nima qilaylikki...  
 Sajdaga bosh qo'yib bukilgan chog'da  
 Yulduzlar yurtida paydo bo'lsak biz,  
 Osmon qabatlarda sayr etsak sarkush  
 Va osmon sayr etsa bizning ko'zlarda.  
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.  
 Nima qilaylikki...  
 Ko'hna kulohimiz  
 Yirtig'idan uchgan bir ozod shamol  
 Bizni olib uchsa vaqt gilamida.  
 Bir zumda xudoning uyiga eltsa...  
 Nima qilaylikki...  
 Qizg'aldoq qoniga botib yashasak,  
 Suvni olov bilan chatib yashasak,

Qaqnusni kaft uzra tutib yashasak,  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.  
Nima qilaylikki...

Goho itning izin ko'zga surtgan chog'  
Daryo toshib chiqsa ko'zlarimizdan,  
Shu oyoq izidan topsak bir buloq...  
Malomat to'ksangiz boshlarimizdan,  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.  
Nima qilaylikki,

Lahzada bu dunyoni yashab bitirsak,  
Ko'ksimiz yorig'i osmon yorig'iga o'xshasa,  
Jandapo'sh kuyigi oyning kuyigiga o'xshasa,  
Vujudning qayig'i zamon o'yig'iga o'xshasa,  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.

Nima qilaylikki...

Holimizga quruq sumbatlar sig'masa,  
Ta'maning tupugi minnatlar sig'masa,  
Go'r boshida kulgan davlatlar sig'masa,  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.

Nima qilaylikki,

Serhosil daraxtday ruku'ga borsak,  
Bo'ynimiz ustida qilich dol tursa,  
Qo'ynimiz ichida bir shamol tursa,  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.

Nima qilaylikki...

Tirnoq yuzi kabi yerning ustiga  
Osmonday ulkan bir dilni qo'ygan biz,  
Dunyo evaziga haqni ko'rgan biz,  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq...

Nima qilaylikki...

Tilimiz so'qmoqlari  
Osmon gullariga ko'milib qolgan,  
Dilimiz ariqlari  
Iloh suvlariga limmo-lim to'lgan...  
Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.

XXII

"Tolibning ruhoniyat qushi bir sohibdavlatning tarbiyati orqali bashariyat tuxumidan chiqishi zarur" Sayid Mir Kulol

Himmattinga qulluq, ey sohibdavlat,  
Toshlar tars yorilib, sachradi hikmat.  
Ko'zgavhar yuzidan sidirildi chimmat,  
Ruhoniyat qushi tuxumdan chiqar.  
Tol tobut quyigi - chakkilladi tan,  
Tovon yirtig'ida lo'qqilladi jon.  
Ko'zlar tumanida lipilladi shan.  
Ruhoniyat qushi tuxumdan chiqar.  
Tong tovushi hurlar sibizig'ida,  
Nur tomchilar yulduz emizigidan,  
Gullar gullab yotar chaqmoq tig'ida,  
Ruhoniyat qushi tuxumdan chiqar.

XXIII

Saboh havvolari huvillaganda,  
Tong tanglayi - nayzor shovullaganda.  
So'zona dilimni so'zga cho'ktirdim,  
To'tyona tilimni suvga cho'ktirdim.  
Qayroq qo'llarimda hilol qayrandi,  
So'ngra oyboltaday boshda aylandi,  
Sen sari jimgina ketmak istadim,  
Dunyo hijobini yirtmak istadim.  
Bomdod shafaqlari zardevol tikdi,  
Ichida bir ko'ngil ichkin ichikdi.  
Sopol hovuchimda cho'g' olib ichdim,  
Vujud ko'zasidan ko'chkiday ko'chdim.  
Sen sari jimgina ketmak istadim,  
Bu g'amgin kitobni yopmak istadim,  
Hurlar tong pardadan kuylaklar tiqdi,  
Dilim tuprog'iga yulduzlar ekdi.

Ko'r kabi paypaslab uzatgandim qo'l,  
 Ko'zimdan to'kildi yam-yashil bir yo'l.  
 Saboh havvolari huvillaganda,  
 Ruhimda bir ohang shovullaganda.  
 Sen sari jimgina ketmak istadim,  
 Bu g'amgin kitobni yopmak istadim.  
 1997

\* \* \*

Ko'z yoshini ichib tugatar Xayyom...  
 Saboh... Shabnam yalab tentirar sabo.  
 Besh yuz yildan beri bu sho'rlik xumdon  
 Bir dilni pishirib tugatmas ammo.  
 Iblis tuzoq tuzar ruh ila jonga,  
 Iymonga guldsta tuzaydi aflok.  
 To'rt ming yildan beri ikki ilonga  
 Har kun dil yedirib ovvora Zahhok.  
 Yillarni pishirib aylanar quyosh,  
 Oylarni olmaday yetiltirar Oy.  
 Ajabmas, qush kabi uchib qolsa Tosh,  
 Ajabmas, odamday jilva qilsa Loy.  
 1998

**Koinot Va Zarra**

Oyning tegrasida to'fonlar kecharlar...  
 Qarg'algan qavmlar, qabih qavmlar  
 Fitnalar ustida qasamlar icharlar...  
 ...va

Halokat ko'lkalari, ofat ayg'oqchilar  
 Oyning tegrasida izg'ib kezarlar.  
 Jodu ilonlari - chaqmoq qamchilar  
 Falak olmalarin shaxd-la uzarlar.  
 Uyg'on, Ey Zarra!

Qara, ishtoningning tizzasi yirtiq,  
 Boshing kal, qo'lingda temir tarog'ing.  
 Sen yulduzlar hakda o'ylaysan,  
 Tovonlaring yoriq, yalang oyog'ing.  
 Axir

Oyning atrofida to'fonlar kechayotir,  
 Qarg'algan qavmlar qasamlar ichayotir,  
 Umidvor ummatlar ko'klarga ko'chayotir  
 Yuksal, Ey Zarra!  
 ...va

Ko'p o'ksik tuyuldi senga xotining,  
 Alamlar allasi umringdan ortiq.  
 O'lik yulduzlarga to'ldi botining,  
 Manglaying tirtiqmi, yuraging tirtiq?  
 Axir

Oyning atrofida to'fonlar kechayotir,  
 So'zbozlar, pulbozlar va vatanbozlar  
 Qo'rchoqboz poyida muk tushayotir.  
 Yuksal, Ey Zarra!  
 ...va

Musoning hassasi sen ko'rgan daraxt,  
Ibrohim otilgan otashdon bu tan.  
Sulaymon shamoli sen o'tirgan taxt,  
Sen esa, munchalar g'aribsan, attang...  
Axir

Oyning atrofida to'fonlar kechayotir...  
Vaqtning o'chog'ida qaynab beshafqat  
Zamonlar, insonlar, yuraklar pishayotir,  
Senda faqat jimlik, sonda faqat toqat  
Yuksal, Ey Zarra!

1998

Iztirob Guli

Qay dilda o'sding sen, iztirob guli,  
Ulg'ayib qay osmon tomiga yetding?..  
Bir kiftimda hayot, birida o'lim,  
O'ttiz besh yoshimda sen sari qaytdim.  
So'yla, yaprog'i - so'z, iztirob guli,  
Gulbargdan so'z kabi tomchilaydi qon.  
So'yla, so'yla endi, yolg'izlik quli,  
Gulobday yanchilib, ezilgan vijdon.  
Nechuk sevib bo'ldim seni, bilmasman,  
Qayga berkitayin, obketay qayga?..  
Yovvoyi to'dalar qolsa ko'rmasdan...  
Madaniy maydalar yo'q bo'lgan joyga.  
So'yla... Bag'ri qonim iztirob guli,  
Gunglar ko'zlaridan tovshing izlayman.  
She'rlar tinglamoqqa yo'q endi holim,  
Sening so'zlariningtinglash istayman.  
Qay\_sori borursan, yolg'izdan-yolg'iz, вЂњ  
Qay din silamoqda g'arib boshingni.  
Yolg'izim, suratu siyratingda kuz,  
Gulga tortgan kabi o'lim xochini.  
Dunyo gullariga chatish emassan,  
So'yla, nafasingda mazlum tuyg'ular.  
Vahshiy to'dalarga seni bermasman,  
Kibor maydalarga talosh qilmasman.  
So'yla... bag'ri qonim... iztirob guli,  
Osmon ko'zlaridan tovshing izlayman.  
She'rlar tinglamoqqa yo'q endi holim,  
Sening so'zlariningtinglash istayman.

1998

Muvaqqat Uy

...va shunday gullaydi ming yildan keyin,  
Sevgiday gullaydi yana bir olcha.  
Ming yildan keyin ham bo'lmos'i tayin,  
Bir dono qoshida o'ttiz uch g'alcha.  
..va shunday sayraydi ming yildan keyin,  
Oltin qafas ichra yana bir bulbul.  
Ming yildan keyin ham bo'lmos'i tayin,  
Bir shoir qoshida o'ttiz uch dumbul.  
...va shunday keng bo'lar ming yildan keyin  
Ma'yus va xokisor shu Yerning bag'ri.  
Ming yildan keyin ham bo'lmos'i tayin  
Bir mardning qoshida o'ttiz uch o'g'ri.  
...va shunday gullaydi ming yildan keyin,  
Shodlikday gullaydi yana bir o'rik...  
Ming yildan keyin ham bo'lmos'i tayin  
Bir Iso qoshida o'ttiz uch o'lik.  
...va shunday qoladi ming yildan keyin  
Ruhlar sayilgohi yana shu osmon.

Ming yildan keyin ham bo'lmg'i tayin  
 Bir iymon qoshida o'ttiz uch shayton.  
 1998

## Laylatul Qadr

Tongga kadar menga shafqat qil,  
 Hukm o'qima saharga qadar.  
 To tonggacha gullar muttasil  
 Yuragimda namozshomgullar.  
 Qanday yig'lay, qanday kuylayin,  
 Toshqinlarga to'layapman men.  
 Bu kechada o'zim bilmayin,  
 O'zing sari kelayapman men.  
 Muruvvat qil, bomdodga qadar,  
 Osmoningdan yog'ilmoqda qut.  
 To tonggacha bir daraxt bo'lar  
 Yuragimni ko'targan tobut.  
 Tongga qadar menga shafqat qil...  
 1998

## Gina

Ey jon, senda nechuk muncha tamanno,  
 Aqlim siyratida shuncha tavallo.  
 Tilimning so'z deya tergani - yolg'on,  
 Sababi, ko'zimning ko'rgani yolg'on.  
 Aqlim, har lahzada g'avg'o qilursan,  
 Ruhni tuproq birla savdo qilursan.  
 Bo'yninga osilib, nozlanar dunyo,  
 Nafsim nafasidan bezanar dunyo.  
 Bir oyoq istagi - osmon, mardona,  
 Bir oyoq istagi - shu qimorxona.  
 Men qayon borayin ikki tom osha,  
 Bir vujud sahnida shuncha tomosha.  
 1998

\* \* \*

(Ulug'bek malomati)

Shamchiroq istarmen orzumand dilga,  
 Bu kun ruh tilinda o'zga talaffuz.  
 Yoxud ahli Qahfday naq uch yuz yilga  
 Tanaffus so'rarmen, katta tanaffus.  
 Saxtiyon sahroda ko'rinnmas karvon,  
 Qumlar quyunida qulunday qoldim.  
 Kiyikday qatlga eltilar vijdon,  
 Yoriltosh, yoril, tosh, yuraqdan oldin.  
 Qancha yillarimni boy berdim bunda,  
 Qancha tuyg'ularim ketmishlar uvol.  
 Va osmon qarzini so'raydi mendan,  
 Bir javob topmadim chor taraf savol.  
 1998

## Begona

Bir do'sti g'aribga dil bersam dedim,  
 Bu g'arib dilimga boqmadi hech kim.  
 Bir yorga ko'zimdan yo'l bersam dedim,  
 Ko'zim daryosida oqmadi hech kim.  
 Bir piri murshidga qo'l bersam dedim,  
 Ruhimga chaqmoqtosh chaqmadi hech kim.  
 Bir noshud qavmga el bo'lsam dedim,  
 Esh bo'lib qoshimga chiqmadi hech kim.

Siz daryo, mayli, men cho'l bo'lsam dedim,  
 Bagrim sahosida oqmadni hech kim.  
 Bir do'sti g'aribga dil bersam dedim,  
 Bu g'arib dilimga boqmadi hech kim.  
 1998

"Alpomish" Ohanglarida  
 Normurod akaga

Namozshomda gulday so'lgan tarzim bor,  
 To'xta, ey yo'lovchi, senga arzim bor.  
 Orbonglagan ot boshida dardim bor,  
 Ko'nglim kuygan, kuyganlardan qarzim bor,  
 Kuyib-kuyib suyganlarga arzim bor.  
 Sendan, mendan davron o'tdi, to'rajon,  
 Bir maydonda maydon o'tdi, to'rajon,  
 Kul kulbadan sulton o'tdi, to'rajon,  
 Gul gulbadan giryon o'tdi, to'rajon,  
 Namozshomda gulday so'lgan tarzim bor,  
 To'xta, ey yo'lovchi, senga arzim bor.  
 Bo'zlay-bo'zlay bo'g'inlarim bo'shaydi,  
 Bu dunyosi qimorbozga o'xshaydi,  
 Qush qalbingni eshaklari tishlaydi,  
 Namozshomda gulday so'lgan tarzim bor,  
 To'xta, ey yo'lovchi, senga arzim bor.  
 Suv edim saxtiyon sahro bo'lmisham,  
 Yer yuza adashgan Zuhro bo'lmisham,  
 Oq yuvib, oq tarab qaro bo'lmisham,  
 Bilmay charx raftorin rasvo bo'lmisham,  
 Namozshomda gulday so'lgan tarzim bor,  
 To'xta, ey yo'lovchi, senga arzim bor.  
 O'zga do'st tutdimmi itlarni, yorab,  
 Ko'zlarim kuymishlar ko'nglimga qarab,  
 Dalliman, dunyodan donoliq so'rab,  
 Har ko'chmarch shamoldan oshnoliq so'rab,  
 Namozshomda gulday so'lgan tarzim bor,  
 To'xta, ey yo'lovchi, senga arzim bor.  
 Dunyo dunyolig'in etmog'i ayon,  
 Bitta boshpanada bulbul va ilon,  
 Bir ko'ngil ichinda rahmon va shayton,  
 Bosh manzil qayon-u, so'ng manzil qayon,  
 Namozshomda gulday so'lgan tarzim bor,  
 To'xta, ey yo'lovchi, senga arzim bor.  
 1998

\* \* \*

Qor edim, qalovim topildi, yondim,  
 Suv edim, olovim topildi, yondim.  
 Qadr kechasida seni do'st tutib,  
 Zor edim, tilovim topildi, yondim.  
 Nechuk sensiz o'tdi umr... hayronmen,  
 Gahi chumolimen, gah Sulaymonmen.  
 Saodat tunida seni do'st tutib,  
 Kul uzra gullagan bog'-u bo'stonmen.  
 Etagingni o'pib, to'ldim, to'lg'ondim,  
 Xor edim, bir tunda gulga aylandim.  
 Muhabbat tunida seni do'st tutib,  
 O'limdan uyg'ondim, Yo'qdan uyg'ondim.  
 Men edim, bir tunda Senga aylandim.  
 1997

Dalvarzin Momoning Qilichi

Bukchaygan qora uy qoshida

O'rmas to'qib o'tirar Dalvarzin momo,  
 Oyning o'rog'iga,  
 Kunning oyog'iga  
 Shardoz boylar Dalvarzin momo.  
 Bu o'rmakning boshi qayda, odog'i qayda?  
 To'qilgan o'rmakning ustidan  
 Tuyalar karvoni adashmay kelar,  
 Buddalar keladi, zardushtlar kelar,  
 O'rmas to'qiyverar Dalvarzin momo...  
 Zobitlar ellarni qilichlab o'tar,  
 Dillarni, gullarni qilichlab o'tar,  
 Lekin qilich\* bilan Dalvarzin momo  
 Gilamga gul solib o'rmas to'qydi.  
 Yer ustida cheksiz uzanib yotar,  
 Qilichda to'qilgan rangin kamalak.  
 Bukchaygan qora uy qoshida  
 Kamalak to'qiydi Dalvarzin momo.  
 1996

## Kuyovqo'rg'on Va Qizqo'rg'onda

Kuyovqo'rg'on xarobalari uzra  
 Olmalar otishga shaylanib turgan  
 Kuyovlarni ko'rdim ming yil oldingi.  
 Qizqo'rg'onning xarobalari ichra  
 Muhabbat olmalariga qo'l cho'zayotgan  
 Hur qizlarni ko'rdim ming yil oldingi.  
 Tobora...  
 Kuyovqo'rg'on qarir, Qizqo'rg'on qarir,  
 Zamonalr keksayar, dunyo qariydi,  
 Qari xarobalar bag'rida ammo,  
 Tobora muhabbat yasharib borar.  
 1997

## Qari Qiz

Qaldirg'ochning tashlandiq uyasida  
 Kashta to'qib o'tirar qari qiz.  
 Ignani matoga urishdan avval  
 Har gal o'z ko'ngliga bir sanchib olar.  
 Qaldirg'ochning tashlandiq uyasida  
 Kashtaga aylanib borar qari qiz.  
 Xarobalar ichra kulganday bahor  
 Gullab boraverar bu noyob kashta.  
 Qaldirg'och uyasi chayqalar sarxush  
 Kechikkan kelinchak chimildig'iday.  
 1997

## No'noq

U o'n uch yoshida, suluvlar qolib,  
 Fotima chumchuqqa oshiq bo'lgan u.  
 Duoga ochilgan kafti ustida  
 Mo"jaz uya qurdi Fotima uchun.  
 Shundan beri uning kaftlari ochiq,  
 Yillarning patiday to'zmas bu uya.  
 Quruqshok mangu band, qo'llari xino,  
 Dunyo etagidan ushlay olmas u.  
 Kaft tomirlariga tutashib ketgan  
 Fotima chumchuqning mo"jaz uyasi.  
 U o'n uch yoshida, dunyodan qolib,  
 Ozod Fotimaga oshiq bo'lgan u.  
 1997

Kamo No Tyomey

Men o'ylarga ko'milaman  
Tuproqqa ko'milganlar kabi.  
Ziyoratga kelganlar, ranjimay keting.  
Shoshqin yo'lovchilar,  
Bu tirik qabrni toptamay o'ting.  
\*\*\*

Senga yig'lagim keldi bu kecha,  
Osmonday yig'lasam senga...  
Yo'qsan... ko'zlarim ko'r bo'lib qoldi.  
Yomg'irday yig'lasam senga...  
O'rmon daraxtlarin lablarim-la paypaslab,  
Bir-bir hidlab chiqyapman tunda.  
Qanisan?  
\*\*\*

Bu qorong'u o'rmon ichida  
Qushning uyasiday tor bu chaylada,  
Bir kishi ham sig'mas chaylada  
Ikki kishi yashashi mumkin.  
Bu chaylada bir kishi yotsa  
Tashqarida qolar ikki oyog'i.  
Bir kishi tik turib ko'rsa mabodo,  
Boshi o'yib chiqar chayla qornini.  
Bunda ikki kishi yashashi mumkin,  
Budda bilan yana bir odam...  
1993

Tilla Baliqcha

Ko'nglim daryosida tilla baliqcha,  
Tila tilagingni, meni ozod qo'y.  
Mangu xizmatingda yetmish farishta,  
Bitta tanbal devni o'z erkiga qo'y.  
Yetmish farishtangga tillo zubarjad,  
Yetmish farishtangga oltin jo'malak.  
Yetmish farishtangga yetmish muhabbat,  
Baxtiyor qurbanlik - yetmishta erkak.  
Ko'nglim daryosida tilla baliqcha,  
Tilagingni tila, meni ozod et.  
Olti suyagimdan bitta kemacha,  
Ikki qulog'imdan bir qo'riqchi it  
Yasadim senga deb, tilla baliqcha,  
Faqat no'noq devni endi ozod et.  
Ko'nglim daryosida, tilla baliqcha,  
Tila tilagingni meni ozod et.  
1994

Musofir

Simm-simm afsun aytar musofir shamol,  
G'aroyib g'or kabi ochilar bag'rim...  
Yuz yilki, ko'ksimda jim uxlab yotgan  
Ulkan tegirmonga qo'l urar asta  
Bu avliyosifat qari musofir...  
Bir vaqtlar shu yerda yashagan edim,  
Shu g'or mezboniday dadil va o'ktam.  
Unda tirik edi o'lik tegirmon,  
Unda men hammadan baxtiyor edim.  
G'aroyib g'or kabi ochilar bag'rim:  
Qimtinib kiradi ikki musofir -  
Uysiz, boshpanasiz shamol ham, men ham...  
Yaldo kechasida yo'lida adashdik  
G'or kabi ochildi egasiz bag'ir.

1997

## Jinni Bola

Otadan yetim, onadan yetim Xudoyqul,  
 Ekkani ko'chat, tergani o'tin Xudoyqul.  
 Qor ustida sarpoychan,  
 Qahratonda qartaygan,  
 Ko'ngli yarim, joni butun Xudoyqul.  
 Yulduzlarni kapalakday ovlaydi,  
 Qahratonda timmasdan,  
 Muz ko'chada sarpoychan  
 Ayamasdan o'z-o'zini quvlaydi.  
 Mehrdan butun, aqlidan yetim Xudoyqul,  
 Qish qushlarin ko'zlarida suvlaydi.  
 Bolalarga o'ynab berar Xudoyqul,  
 Goh kuylar, goh yig'lab berar Xudoyqul.  
 Va o'ziga qismat otgan toshlarni  
 Qallig'i otgan gulday terar Xudoyqul.  
 Usti juldur,  
 Yalang oyoq, yalangbosh  
 Bir do'sti yo'q Qish bilan o'ynar Xudoyqul.  
 Qor bosgan bir tunda onam aytdilar:  
 "Xudoyqulga gul\* chiqibdi, issig'i o'tkan..."  
 Shundan so'ng biz uni sira ko'rmadik.  
 Bildik, Xudoyqulni Gul olib ketgan.  
 To'qson chillasida, ovloq ovulda  
 Xudoyqul hammadan oldin GULLADI.

1997

## Siz Kulol Qizimi Yo Mehr Qizi

Nechuk siz ma'yussiz, nechuk siz hayron,  
 Bir telba oshiq deb dilingiz vayron?..  
 Mendan farishtalar chekindi, hay-hay,  
 Gunohlarim ko'pdir, osiy bandaman.  
 O'zligim o'zimdan ketar paydar-pay,  
 Sizning ko'nglingizga bir asrandiman.  
 Dilyorim, siz meni tark etmang faqat,  
 Dunyo ketaversin, siz ketmang faqat.  
 Hech kimga boshimni egmay yashadim,  
 Lekin har hurlikning o'z poyoni bor.  
 Bor-yo'g'im siz sari eltil tashladim,  
 Dunyoda har qulning o'z sultoni bor.  
 Dilyorim, siz meni tark etmang faqat,  
 Dunyo ketaversin, siz ketmang faqat.  
 Nechuk yig'ladingiz, sulton begoyim,  
 Nega ko'zingizda dil parchalari?  
 Saodat eshigin ochsin xudoyim,  
 Va sizda gullasin ishq g'unchalari.  
 Dilyorim, siz meni tark etmang faqat,  
 Hayot ketaversin, siz ketmang faqat.  
 Bir kun do'stlarimdan birovi aytdi,  
 Ey oshiq, qo'llaring qaribdi, qara.  
 Sizni chorlayverib qo'lllar qaridi,  
 Sizni chorlayverib izladi chora.  
 Dilyorim, siz meni tark etmang faqat,  
 O'lim ketaversin, siz ketmang faqat.  
 Siz nurday ochilgan muhabbat guli,  
 Yorug' mehrobardan uchgan ibodat.  
 Dunyoda hayot yo'q, demak, yo'q o'lim,  
 Muhabbat bor faqat, buyuk muhabbat.  
 Ishq guli, siz meni tark etmang faqat,  
 Dunyo ketaversin, siz ketmang faqat.

1997

Men Hayron, Do'st Hayron  
Shoir Mengnor Ollomurodga

Fasli xazon keldi, daraxtlar hayron,  
Darbadar dil yetim qushchaday sayron,  
Evrilib kelarkan bu ikki jahon,  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil hayron.  
Maysalar jon berdi yuraklarimda,  
Bir oyat sirqirar suyaklarimda,  
Yalov tikib oldim ko'ylaklarimdan,  
O't chaqnar toshlarim, kesaklarimdan,  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil hayron.  
O'n olti yoshimning diyorlarida,  
Bir qizning kuzlari, bahorlarida,  
Ko'ngilning ko'p intiq diydorlarida,  
O'tganlarning g'arib mozorlarida,  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil vayron.  
Yolbordik, tillari kesik bulbulday,  
So'nggi singlisini boy bergan ulday.  
Kechalar to'shagi tutagan tulday,  
Og'alar dog'ida kuygan singiday,  
Yolbordik kech kuzda ochilgan gulday.  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil hayron.  
Lek, sado kelmadni, mozorlar, sizdan,  
Bir nasim yelmadni, bahorlar, sizdan.  
Ko'ngilni garovga qo'ygan edik biz,  
Bir dallol chiqmadi, bozorlar, sizdan.  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil vayron.  
Dunyo bu, yaxshilar, nokaslar o'tar,  
Gul o'tsa yonidan xor-xaslar o'tar,  
Haromning zavqidan alastlar o'tar,  
Mardlar rizqini yeb goh pastlar o'tar,  
Goh uzun, goh qisqa ne dastlar o'tar,  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil hayron.  
Ma'yus momolarim kuylab o'tgan yurt,  
Bobolar yuragin qayrab o'tgan yurt,  
Kelbati osmonni bo'ylab o'tgan yurt,  
Men borsam, bir parcha yurak tutgan yurt,  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil hayron.  
Biz tongni ilg'adik tunning ta'biridan,  
Yulduz terib o'tdik she'rnинг satridan,  
Yangi oy chiqmoqda pirlar qabridan,  
Men hayron, do'st hayron, ikki dil hayron.

1997

Subhi Sahar

Ko'ngilga xush kelding, ey subhi sahar,  
Uyg'ot uxbab yotgan tomirlarimni.  
Mo'minlar ko'z yoshi - gavhar shudringlar,  
Yuvsin g'ubor cho'kkani bag'irlarimni.  
Bu elga xush kelding, ey subhi sahar,  
Bu dilga xush kelding, ey subhi sahar.  
Ochay eshiklarni, derazalarni,  
Masih nafasingni may kabi ichay.  
Olis bolalikda yo'qotib qo'ygan  
Singlimni topganday men seni quchay.  
Elimga xush kelding, ey subhi sahar,  
Dilimga xush kelding, ey subhi sahar.  
Bu tun kimlar qolib, kimlar ketdilar,  
Qayda rizq gulladi, qaydadir fitna.  
Sen kelding, go'daklar isi ham keldi,  
Sen kelding, yer-osmon chayildi sutga.  
Dilimga xush kedding, ey subhi sahar,  
Elimga xush kelding, ey subhi sahar.

1997

Xudoyberdi Chol Hikoyasi

Kun bo'yi takrorladi...  
 Tun bo'yi takrorladi...  
 Tili aylandi bitta ismga,  
 Yuragi aylandi bitta ismga,  
 ISMga...  
 Sitilib ketmokda ko'zidan yo'llar,  
 Sitilib bitmokda umridan yillar,  
 "Farzand ko'rsam edi uning ismini..."  
 Oh, uning ismini..."  
 Takrorlayveradi, takrorlayveradi  
 Xudosi bermagan Xudoyberdi chol.  
 Suyakka yopishgan qabqlaridan  
 Uzilib tushadi tunlar, kunduzlar.  
 Umrning burishgan so'qmoqlaridan  
 Notugal olamda armonli izlar.  
 Qarigan eshiqdan dalda kutadi,  
 Tobutga aylanar beshiksiz "vatan".  
 Oh degan bir ism tunni yutadi,  
 Sho'r takdirga taskin bo'g'chada kafan.  
 Hech kim dard izlamas. Hech kim istamas,  
 Chol bilan so'zlashar tungi pardalar.  
 Deraza ortida elas va elas  
 Tilsiz shivirlaydi og'ir sharpalar.  
 Umrda ilk bora yetmish yoshida  
 Kampiri ko'ksiga boshini tashlab  
 Yig'ladi, yig'ladi, yig'ladi:  
 "Kampir, juda uzoq yashab yubordik,  
 Cho'ksaydi yillarni tortgan tuyalar.  
 Kampir...  
 Ellik yil bag'rimda jimgina yonding,  
 Ellik yig'ladi sadoqatlaring...  
 Kampir...  
 Jimgina... Jimgina...  
 Xuddi kelinchaklik davriday sirli  
 Sevgi nigohlarda yongan kunidagiday,  
 Jimgina... Jimgina to'kaverdi yosh,  
 Ko'zlariga yetdi yurakning zo'ri:  
 "Yetmishmi... Saksonmi... Yashab beramiz".  
 Kunlar toshbaqaday og'ir sudralar,  
 Huvillagan uyda yolg'iz chol, kampir.  
 Ortiqlik qiladi shirin taomlar -  
 Tug'ilmaning bolalarning nasibasi...  
 O, ularni sen ye, bevafo qismat.  
 Xudoyberdi chol tush ko'radi:  
 Bir kelin. Unda  
 Yetmish ming kelinning husni, hayosi.  
 Osmonday ro'molining bir burji bilan  
 Do'ppaygan qornini yashirib,  
 Uyalib choy uzatar cholga.  
 Jilmayib turadi yonida o'g'li...  
 So'ng...  
 Tili aylanar bitta ismga,  
 Yuragi aylanar bitta ismga...  
 ISMga...  
 1985

\* \* \*

Sim-siyoh balchiqqa cho'kib yotar tong,  
 Nafsning qozonida biqirlaydi ong,  
 Va Ilondarada, zaxlagan g'orda  
 Shamoldan berkinib po'st tashlar ilon.  
 Naqadar hikmatni ko'rdim men bunda...

Naqadar o'lim bu... naqadar hayot.  
 Naqadar og'irdir eng so'nggi kunda  
 Bilgan-bilmaganing o'z-o'zingga yot.  
 ...Ham yaydoq yaylovga cho'kadi tuman,  
 Ham to'zg'oq tuzoqqa yetim yel cho'ri.  
 Ham jodu jabdug'in ochar yosuman,  
 Ham oydan berkinib tullaydi bo'ri.  
 Shunchaki, o'yini bu ish falakning,  
 Shunchaki, qimorda bir shashqoldona...  
 Shunchaki, bir go'r dan olib yurakni  
 Yana boshqa go'rga tiqmoq mardona.  
 Shunchaki, o'zingdan o'zing begona.  
 Tobutdan tashqari Iskandar qo'lli,  
 Suvdan chiqqan Zardo'sht yonadi o'tda...  
 Va odam tanasin bevafo bilib,  
 Itning terisiga berkinar Buddha.  
 Inchunun, ko'z ochiq, qorachig'lar ko'r,  
 Inchunun qo'rquvga yedirilgan dil.  
 Inchunun, o'rgimchak to'qiyotgan to'r,  
 Jannat ko'prigiday ko'rinar sabil.  
 Va....

Maymun terisidan xushbichim tana,  
 Timsox terisidan nafisroq teri.  
 Yog'och ot ustida borar jimgina  
 Na-da ilondir u, na-da u bo'ri.  
 Naqadar hikmatni ko'rdim men bunda,  
 Naqadar o'lim bu, naqadar hayot  
 Birinchi kundan va eng so'nggi kunda  
 O'z o'zingga yotsan, o'z-o'zingga yet.  
 1998

#### Qaytish

Rahmat yog'murlari yog'di falaqdan,  
 Payg'ambar kemasi - hayot beshigi.  
 Bir yorug' daricha ochdim yurakdan,  
 Ochildi saodat, sevgi eshigi.  
 Uning peshtoqida yam-yashil qushlar  
 O'zidan nur tarab sayraydi oyat.  
 Guldurak gulduros otib olqishlar,  
 Bu oqshom dil sari kelibman, shoyad.  
 Bu oqshom balqarman oy kabi to'lin,  
 Rahmat yog'murlari yog'di falakdan.  
 Marhamat qilingiz, ey ahli mo"min,  
 Muhabbat eshigin ochdim yurakdan  
 1998

#### Bir Kuni

El enasi - Oysihat momo,  
 Chopon tikib bering menga shafakdan,  
 Kiftiga Oy, Kundan qo'shtumor taqing.  
 Zarrin chiroziga yulduzlar qadang,  
 Menga kamalakdan bir belqars to'qing.  
 Zerikdim, bo'shliqday zerikdim, momo,  
 Shungami, kuyovday yasangim keldi.  
 Borlikda bir ko'za suv edim, ammo,  
 Shu damda olovga uzangim keldi  
 1998

#### Ibodat Sururi

Qamalgan qamarlar, endi ozodsiz,

Ilohiy qanotlar qulluq, assalom.  
 Rizvon qushlariday muharram, shodsiz,  
 Juft-juft kelinlarday aylangiz salom.  
 Qo'llarim eriydi, vujudim erir -  
 Qarang, qanday erir bu oltin qafas...  
 Tosh so'ngaklar endi ipakday harir,  
 Hademay tan abas, yana tan abas.  
 Farishtalar kutar sizni qaydadir,  
 Nurdan kashta to'qib, liboslar tikib.  
 Daholar shivirlab aytmokda takbir,  
 Mangu sukunatga ovozlar to'kib.  
 Siz suzib borasiz, zulmatlar sinar,  
 Go'zal... Qanday go'zal oylar karvoni.  
 Osmon qovog'iga kulgular qo'nar,  
 Nurdan to'ydirasiz yetim samoni.  
 Qarang, qanday erir bu oltin qafas,  
 Rizvon qushlariday muharram, shodsiz.  
 Hademay tan abas, yana tan abas,  
 Qamalgan qamarlar endi ozodsiz.

1994

\* \* \*

Boshqa gapni qo'ying. Odam xalqiga  
 Ko'p narsa ortiqcha, olifta, bashang.  
 Uch-to'rt norasida go'dak haqqiga  
 Uzoqroq yashang siz, Uzoqroq yashang.  
 Dunyodan to'ydingiz, hayotdan to'ymay,  
 Keling, keng ko'ngilni kenglikka to'shang.  
 Kuygan onangizni azobga qo'ymay,  
 Uzoqroq yashang siz, uzoqroq yashang.  
 Hamisha dunyo tor odam ahliga...  
 Muncha qayg'ulisiz, munchalar bo'shang.  
 Kimningdir g'amiga, kimning baxtiga  
 Uzoqroq yashang siz, uzoqroq yashang.  
 "Hech kimman" demang, siz o'zbek xalqiga  
 Keraksiz.  
 Keraksiz o'ylarni tashlang.  
 Nogoh o'lmay qolgan millat haqqiga  
 Uzoqroq yashang siz,  
 Uzoqroq yashang.  
 1994

Qadimgi Daftar Yoxud Unutilgan Ohanglar  
 (turkum)  
 I. VATAN  
 (qadimgi bolaning qadimgi qo'shig'i)

Oq o'tovni nortuya  
 etti marta aylansa,  
 changaroq osmonida  
 etti go'zal saylansa...  
 Qizil tandir tob yesa,  
 kunlarim pishsa hil-hil.  
 Tunlarim kulib tursa,  
 oy bilan o'ynasa dil.  
 O'zim qaldirg'och bo'lsam,  
 so'zim suyunchi bo'lsa,  
 ko'nglimda titrab o'sgan  
 qamishlar naychi bo'lsa.  
 Momomday dashtlarimning  
 Joni, erkasi bo'lsam.  
 Bu dashtlar menga to'lsa,  
 Men bu dashtlarga to'lsam.  
 O'zim qaldirg'och bo'lsam,  
 So'zim suyunchi bo'lsa...

## II. "Irq Bitigi"ga Bitik

Munchalar munglisan,  
 Kiyikning o'g'li,  
 Cho'lponmi, Usmonmi isming, sirdoshim,  
 Yetim emchakdoshim, yersiz yerdoshim.  
 Qanday qayg'ulisan,  
 Kiyikning o'g'li...  
 Yashil qoya sening yozlik joying - xor,  
 Qizil qoya mening qishlik joyim - zor.  
 Ko'zing, qayg'u uyi,  
 Kiyikning o'g'li,  
 Qora qush jigaring cho'qilar kun-kech  
 Topshirib bo'larmi shu Vatanni hech?...  
 Hech... hech... hech!!!

## III. Sevgi

Quv yelindan sutlar keldi sirqirab,  
 qanisan-uv?...  
 Qora boshga qor yog'di yarqirab,  
 qanisan-uv?...  
 Qizil-yashil kunlar o'tdi gurkirab,  
 qanisan-uv?...  
 Qirq qush bo'lib qirq jon uchdi chirqirab,  
 qanisan-uv?...  
 Dil yorildi, daryo oqdi sharqirab,  
 qanisan-uv?...  
 Tuproq tanam gul o'stirdi zirqirab,  
 qanisan-uv?...  
 IV. Yonib Ketgan Marsiya Bo'laklari

Cho'jalari cho'lda qolgan boy bola,  
 Qulunlari qumda qolgan boy bola,  
 voyy bola-a...  
 Qatordagi qora norlar qoqildi,  
 Kadi sindi, sirqirab sut to'kildi,  
 yurak tindi...  
 Tutqoziqqa boyli bola, boy bola,  
 Toltobutda joyli bola, voy bola,  
 voyy bola-a...  
 Kuyuk ko'ngil ko'k kiyganda ko'k kuyar,  
 Kiyik singil singraganda tosh iyar.  
 Yoriltoshning sutin ichgan boy bola,  
 voyy bola-a...  
 O'ng bo'sag'a suyanib o'g'ling qoldi,  
 Chap bo'sag'a suyanib qizing qoldi.  
 Chaqmoqtoshning cho'g'in yutgan boy bola,  
 voyy bola-a...  
 Eshigingda elanib eling qoldi,  
 Qayroqtoshning qahrin yutgan boy bola,  
 voyy bola-a...  
 Yoriltoshning sutin ichgan boy bola,  
 voyy bola-a...  
 V. Qadimgi Shoirning Tug'ilishi

Qahraton qatronidan  
 Saratonga muz berdim.  
 Yulduzsiz kechalarga  
 Kiprikda yulduz berdim.  
 Kapalak qanotidan  
 Choyshab yopdim dunyoga.  
 Musicha hayotidan  
 Hikmat topdim dunyoda.  
 Tog'larim - bobolarim,  
 Oy manim momom bo'ddi.  
 Ko'zlarimning ichida  
 Dunyo dunyoga keldi.  
 Enamday daryolarim

Oq yuvib, oq taradi.  
 Osmunday yuragimga  
 Hayot to'lib boradi.  
 VI. Fasllar Haqida Ibtidoiy Bitik

Qoya etagida, g'aroyib g'orda  
 Qish meni mehmon qildi  
 Bir o'choq olov bilan...  
 Ko'zlarimga issiq ko'rinish ketdi  
 Mening sovuq do'stim, qadrdom Qish.  
 \* \* \*

Kuz oqshomi... Qoraygan to'qay...  
 Uzoq-uzoq uvлади bo'ri.  
 Tovushsiz pinjimga berkinar  
 Qo'rqib ketgan ma'yus singlim Kuz.  
 \* \* \*

Tongda meni uyg'otdi qaldirg'och,  
 So'ng shaldirab kuldilar suvlar.  
 Derazamdan jilmayib qarar  
 Qizalog'im, sevinchim Bahor.  
 \* \* \*

Olma, anor, uzumga qo'shib  
 Yuragimni pishirar oftob.  
 Dalalarga sochilib ketgan  
 Tiriklik deb atalgan kitob.  
 Xavotirli boqar qalbimga  
 Kuyunchagim, onajonim Yoz.  
 VII. Kuyov

Otang mendan aylansin,  
 Enang mendan o'rgilsin,  
 Erka Gulsum, jon Gulsum.  
 Qo'lllarim qadog'iga  
 Sochlaring tillo to'ksin.  
 Oy tug'ar qabog'ingda  
 Kun tug'sa, senga tug'sin.  
 Otang mendan aylansin,  
 Enang mendan o'rgilsin.  
 O'jar Gulsum, jon Gulsum.  
 Kuyov - yov deb aytdilar,  
 Topsinlar o'zga do'stni.  
 Seni xo'p aynitdilar,  
 Bepisand bilib bizni.  
 Ko'zimda o'sgan gulim,  
 Kulbamni obod ayla.  
 Novvot qaynatar tilim,  
 Men kabi kuyov qayda?  
 Kuyov yovmas, kuyov-tov,  
 Suyansalar arziydi.  
 Xasis otang, shum enang  
 Mendan bir qiz qarziydi...  
 Otang mendan aylansin,  
 Enang mendan o'rgilsin,  
 Erka Gulsum, jon Gulsum.  
 VIII. Istibdod  
 Jangdagi mag'lubiyatdan so'ng eshitilgan nola

Bek bo'lar ularim qul bo'ldi,  
 Suluv bo'lar qizlarim cho'ri...  
 Alp erlar yuragi yirtildi,  
 Vo-o, sho'rim! Vo-o, sho'rim!  
 Erk bo'lar Vatanim berk bo'ldi,  
 Zulmatning qahrida quyoshning nuri.  
 Nafrat, alam bilan kafanim to'ldi,  
 Vo-o, sho'rim! Vo-o, sho'rim!

Gul bo'lar yerlarim kul bo'ldi  
 Toptaldi, xo'rlandi otalar yeri.  
 Yer topmay ko'nglimga ko'mildim,  
 Vo-o, sho'rim! Vo-o, sho'rim!  
 IX. Yo'qolgan Bitiktoshdagi Yozuv

Er Bilga arazlagan yo'lbarsga aylandi,  
 Alam ham ulg'aytar o'g'ilni.  
 Beshik bog'ichlari uzilib ketdi,  
 Qasos kuchaytadi o'g'ilni.  
 Beshik oltin tuyoqli tulporga aylandi.  
 Erk Er qiladi o'g'ilni.  
 X. Qadimgi Kuy

Yayrab oqqan jilg'a bo'yida  
 Chanqovuz chaladi qizgina...  
 Menday yig'loq aprel oyida  
 Yig'lagim keladi jimgina.  
 Bir uyum oq bulut poyida  
 Qizgina chaladi chanqovuz, -  
 Yayrab oqqan jilg'a bo'yida  
 Tosh ustida yayraydi tovus.  
 Soy ichida, jilg'a bo'yida  
 Chanqovuz chaladi qizgina.  
 Menday tashna aprel oyida  
 Yashagim keladi jimgina...  
 Yashagim keladi jimm-gina...  
 XI. Singilga Bag'ishlov

(qabrtoshdagi eski yozuv)  
 Mushtipar egachim,  
 Tilovchim mening...  
 Kimsasiz daladay horg'in qoldim men  
 Yaxshi-yomon kunda  
 So'rovchim mening,  
 Qorong'i sahroda g'amgin qoldim men  
 Ma'yus duogo'yim,  
 Mushtiparim-ay,  
 Qora tumanlarga cho'kmishdir dilim.  
 Oy kabi olisim,  
 Nurdyay xolisim,  
 Menga tik qarashdan uyalar o'lim.  
 Egachim, tilovchim,  
 So'rovchim mening...  
 XII. Ko'hna Yurt Haqida Yangi She'r

Momolar sirlarin tinglagan tuproq,  
 Bobolar ko'krugin ko'targan osmon.  
 Pirlarning kaftida ko'kangan bayroq,  
 Onalar ko'zida yig'lagan doston.  
 O'g'illar ko'ksida chaqnagan chaqmoq,  
 Oyqizlar ko'nglini gullatgan tuyg'u.  
 Go'daklar dilidan boshlangan irmoq,  
 Shoirlar yuragin porlatgan qayg'u.  
 Daholar manglayin yarqiratgan oy,  
 Fidolar bag'ridan silqigan bardosh.  
 Tangri yer yuziga yo'llagan humoy,  
 Bobotog' bag'rida tug'ilgan quyosh.  
 1999

\* \* \*

Hamal ayvonida kuylaydi havo,  
 Qizgaldoq qo'shini qirlarga tushdi.  
 Meni yetaklab o't, ey Qari Navo,  
 Yuragim yurtida yulduzlar pishdi.  
 Adirlar egnida yam-yashil qabo,

Shamol halinchakda ipak bulutlar...  
 Meni yetaklab chiq, jon singlim Sabo,  
 Sovigan ko'nglimda chaqnadi o'tlar.  
 Yangi ko'yylaklarin kiymokda Hayot,  
 Hamal ayvonida kuylaydi havo.  
 Meni yashash sari yetaklaydi shod  
 Qari Navo bilan sho'x singlim Sabo.  
 2001

\* \* \*

B'TH-Qani, nay ber menga, do'stginam.B'TH-KA. Oripov

Lablarimda gullayapti nay,  
 Kurtakladi qo'limda rubob.  
 Kish kechasi hech kimga aytmay  
 Yo'lga tushdim, yo'l juda uzoq.  
 Qor ustida o'ynaydi o'lan,  
 Oq zorlarni yog'adi ko'ksim.  
 Dardga to'lgan yuragim bilan  
 Yuragingga boryapman, do'stim.  
 Unutilgan tuyg'ular haqqi  
 Yarim tunda oq qorlar kechib,  
 Ketib borar ohang daraxti  
 Muhabbatli qasamlar ichib.  
 Uzun kecha... Yo'l undan uzun...  
 O, qanchalar sog'indim seni.  
 Derazangda muz gullar bilan  
 Tong chog'ida qarshila meni.  
 2001

\* \* \*

Daryo sohilida sen bilan tanho  
 Kezardik, tillarang qumlarini kechib...  
 Shirin va'dalarni ichardik, ammo  
 Bari qumda izday ketmishlar o'chib.  
 O'tmishlar, kechmishlar, bari ketmishlar,  
 Suvlarga oqmishlar hayajonimiz.  
 Ishq to'la dillarni yillar netmishlar,  
 Ikki sohil bo'ylab ayro jonimiz.  
 Qumlarga dafn etdik yoshligimizni,  
 Sirlar injularin suvlarga berdi...  
 Begona sohillar chorladi bizni,  
 Ko'zimizda daryo chayqalib turdi.  
 2001

## Ijod

Sahro qumlarida bir kaltakesak  
 Yetti yuz yil dumin sudradi, yeldi.  
 Oqibat tarixi ne bo'ldi, desak,  
 Tug'ildi, yashadi tug'di va o'ldi.  
 Ummonlar qa'rida bitta kapalak  
 Qirq sakkiz lahzada paymoni to'ldi.  
 Qirq sakkiz lahzaning shirasin yalab,  
 Tug'ildi, yashadi tug'di va o'ldi.  
 Shular qatorida bor edi inson...  
 U Hayot va Xudo ma'nosin bildi.  
 Oqibat, tarixi boshqa jarayon -  
 Tug'ildi, yashadi, tug'di, tug'ildi.  
 2001

## Ishorat

Og'zi hech yopilmas qilichbaliqning,  
 Boisi: og'zidan tishlari katta.  
 Shunday, qay bo'g'izga qilich tiralgan  
 Va qay bir og'izga tiqilgan latta.  
 Tishlari bahaybat qilichbaliqning,  
 Nafs va ruh ilmiga ishoradir bu.  
 Bu ham bir hikmati Buyuk Malikning,  
 Og'zin olib o'tmak dunyodan mangu.  
 O, taqdir, hukmda bilganing bilgan,  
 Meni yerga urma pastlar oldida...  
 Ko'zlari abadiy yumilib qolgan,  
 Og'zi hech yopilmas kaslar oldida.  
 2001

## Qadimiy Qo'shiq

Mening manglay sochimni  
 Tong shamoli qayirdi,  
 Ayta qolgin, shamoljon,  
 Jon shamoli qayerda?  
 Sahar-sahar yuragim  
 Shudring kechib sayrda,  
 Ayting endi, saharlar,  
 Dil sahari qayerda?  
 Mening qora boshimni  
 Oqbulut aylantirdi,  
 Ayta qolgin, jon bulut,  
 Jon yomg'iri qayerda?  
 Mening manglay sochimni  
 Tong shamoli qayirdi,  
 Ayta qolgin, shamoljon,  
 Jon shamoli qayerda?  
 2001

## Kutish

Yuragimning nurli rishtalaridan  
 Senga deb o'ttiz xil ko'yak tiktirdim.  
 Uch yuz yillik yong'oq urug'lariday  
 Ko'zlarimni yo'llaringga ekdim men.  
 Umrimning parishon borchalarida,  
 Za'far yaproqlarda dildirar titroq...  
 Bir tup keksa yong'oq shoxchalarida  
 Kayg'uli hilpirar o'ttiz xil bayroq.  
 2001

## Ko'r Bola

Quyosh dafn etilgan  
 mening ko'zimda,  
 Minglab ko'z charaqlab  
 yotar ko'ksimda.  
 Tovushlar gullarin  
 teraman g'amgin,  
 Qorong'i bog'imga  
 bir bora kelgin.  
 Ich-ichimda kimdir  
 yig'laydi yum-yum,  
 Kuygan qorachig'da  
 mo'ltirar ko'nglim.  
 Quyosh dafn etilgan  
 mening ko'zimda,  
 Qorong'i bog'lar bor  
 axir ichimda...  
 2001

## Do'konda

Yaxshi chizishibdi ko'zu qoshingni,  
 Usti-boshing yaxshi... Kayfiyating chog'.  
 Agar ochib ko'rsak yelim boshingni,  
 Nima chikar ekan undan, qo'g'irchoq?  
 Boplab ishlashibdi mushting, tishingni,  
 O'tirgan kursing ham yarashgan, biroq,  
 Nogoh yorib ko'rsak sening ichingni,  
 Nima chiqar ekan undan, qo'g'irchoq?  
 Savolga ne hojat, senga ham og'ir,  
 Qismating qo'rchoqlik, shunday bo'ldirgan  
 Hech ovoz chiqarmay ishingni bitir,  
 Nachora, ichingni yelga to'ldirgan  
 2001

\* \* \*

Mug'anniy, dardim dudiga  
 Dutoring duto bo'ldi.  
 Ashki selobim ichib,  
 Sanavbar sato bo'ldi.  
 G'ayri Haq suhbatida  
 Ruhimni halok aylab,  
 Mazallat g'urbatida  
 Ot surmak xato bo'ldi.  
 G'aflat uyida mastmen,  
 Ammo, noumid emas,  
 Qo'l cho'zsa piri dastgir  
 Kofir ham kimyo bo'ldi.  
 G'avg'oi g'amdin ne g'am,  
 Ne g'am bu malomatdin.  
 Yaxshim ham, yamonim ham  
 Atoi xudo bo'ldi.  
 Dayr aro kuylab o'tdim,  
 Hech holim bilolmasman..  
 Kuyim - intiho bo'ldi,  
 Ko'yim - ibtido bo'ldi  
 2001

## Abduxoliqning Jaydari Falsafasi

Bilsa baliq, deding, bilmasa xoliq,  
 Har kasga dil berding, ey Abduxoliq.  
 Himmatingni ko'rib, tentak dedilar,  
 Mehringdan suv ichib, kaltak urdilar.  
 Har tulki, har ilon, har kaltakesak  
 U bizdan qarzdordir, dedilar, beshak.  
 Goho boyo'g'liga, goho qarg'aga  
 Ushoq-ushoq ko'ngil ushatding nega?  
 Evaziga olding tuhmat, malomat,  
 Oqibat sen nodon, ular vallomat.  
 Desam, shamol kabi shivirladi u:  
 Birodar, holimga chekmagil qayg'u.  
 Olamda bo'lmasa mor, qarg'a, baliq,  
 Bo'la olarmidim men Abduxoliq?  
 Ularda bor-yo'g'i nafs va riyo bor,  
 Mening ichimda-chi, so'ngsiz daryo bor.  
 Ularni nomma-nom bir-bir sanading,  
 Asli zotlarini aslo bilmading...  
 Barining ismi bir - OLIQSOLIQDIR,  
 Shukr, mening ismim ABDUXOLIQDIR.  
 2001

\* \* \*

Ko'p bo'ldi rang-barang ranglar sotgani  
 Kelmay qo'yaniga bo'yoqchi Orzu,  
 Men unga o'rganib qolgan ekanman...  
 Lekin, har kun kelar suvoqchi Turmush,  
 Parishon umrimning chaldevorlarin  
 O'zi bilganicha suvab ketar u...  
 2001

\* \* \*

Daryolar uyg'ondi ko'nglimda mening,  
 O'n ikki oy erir qo'limga mening,  
 Pirlar paydo bo'ldi o'ngimda mening,  
 Men endi dunyoni netarman?..  
 O'ynabman yurakni urgancha toshga,  
 Uchib kirgandayman men o'ttiz yossga,  
 Ishoning, men endi boshqaman, boshqa,  
 Bu yolg'on savdoni netarman?..  
 Davlatu zar sizga, dunyolar sizga,  
 Yer ostiga ketgan daholar bizga,  
 Dil ishqqa aylandi, o'zim yulduzga,  
 Bu o'lik sahroni netarman?..  
 Olov qushlar uchdi tilimdan mening,  
 Rubob yasang endi qo'limdan mening,  
 Qarzim ham qolmadi o'limdan mening,  
 Bu o'tar dunyoni netarman?..  
 1993

\* \* \*

Ma'sum maysalarni tiriltguvchi sen,  
 Muzlagan hislarni ilitguvchi sen,  
 Buyuk himmatlaring unutguvchi men,  
 Meni kechir, azizim Hayot.  
 Umrim fasllarin kuzatguvchi sen,  
 Beshik ham tobutim bezatguvchi sen,  
 Haqqingga malomat uzatguvchi men...  
 Meni kechir, azizim Hayot.  
 G'am va shodlik bilan siylovchi o'zing,  
 Seni aymbim bilan ayblovchi o'zim,  
 Naqadar achchiq va shirindir tuzing...  
 Meni kechir, azizim Hayot.

2002

\* \* \*

Kuyunchak momolar, aziz momolar,  
 Boshdan oyog'imga soching duolar.  
 Sizning mehringizdan istaydi qanot,  
 Ko'krak qafasimda qisilgan hayot.  
 2002

Ozodlik

1

Sevgimday sevarman semi, Ozodlik...  
 Sayoq sak emasman, ko'chkin quyunmas,  
 Uyasisiz ilonmas, uya izlagan.  
 Bir parcha non menga aziz tuyulmas,  
 Bir parcha yuragim erk deb bo'zlagan.  
 Qanday yolg'onlayin... Qanday alday men?

Qo'lllarim rubob-ku, tomirlarim tor.  
 O'smir yoshimdagi sevgilimday sen,  
 O'lim yoshimdagi ko'ksimdag'i or.  
 Sevgimday sevimlim, sirim, Ozodlik!  
 2

Shodlik ulasharmen dardga, qayruga,  
 Mashrabday sochilib ketayapman men.  
 O'n olti yoshimda sezgan tuyg'u  
 O'ttiz besh yoshimda yetayapman men.  
 Tohir Zuhrosini suygani kabi,  
 Men suymak istadim seni, Ozodlik.  
 Bitta muhabbat deb kelar har nabiy  
 Va bitta qayg'udan ko'karar shodlik.  
 Sevgimday sevarman seni, Ozodlik!

3

Dilimda chamanlar bo'lganida xor,  
 Yelkamdan potirlab o'sdi qabrlar.  
 Cho'lponning qoshida chayqalganda dor,  
 Joynamoz ustida jon berdi pirlar.  
 Bag'rimni cho'qilab zulmat g'ajiri,  
 Qonagan dilimni qorganda loyga...  
 So'nggi kitobini yozdi Qodiriy  
 Turma tuynugiga osilgan oyga.  
 Mening varaqlarim qonli varaqlar,  
 Yuragim shiftidan chakkillarydi qon.  
 Yoshligim sururin so'rdi qamoqlar,  
 Sibir shamoliday uvillar Usmon.  
 Sevgimday sevimlim, sirim ozodlik!

4

Tumanlar ichinda charsillaydi dil,  
 Otamning joniday og'rir vijdonim.  
 Meni duo qilgil, mushtipar singil,  
 Meni duo qilgil, sevgim, armonim.  
 Yerlarim toptalsa, xo'rlnansa quyosh,  
 Qo'lim nayza bo'lsin, tishlarim xanjar.  
 Tosh bo'lsin ko'zingda miltiragan yosh,  
 Meni duo qilgil, ma'yus mushtipar.  
 Boshdan qora kunlar o'tdi basma-bas,  
 Sevgiday to'kildim, suvday to'kildim.  
 Shunda ham tobutlar poyiga emas,  
 Beshiklar poyiga kelib yiqildim.  
 Sevgimday sevarman seni, Ozodlik!

5

Hayron qo'llarimni ochdim falakka,  
 Oyog'im ostida so'ngsiz paxtazor.  
 Tashlandiq orolday g'arib yurakda  
 O'lik kemalarday ming-minglab mozor.  
 Yoshligim oy kabi balqqan pallada,  
 Sirlar tabassumday gullagan palla...  
 Kuyovlik kunlarim qoldi dalada,  
 Chimildig'im - dala, kelinim - dala.  
 Insonlik istadim tun yorug'ida,  
 Insonlik, Vatanlik, Xalqlik, Obodlik.  
 Yuragimning rangin chimildig'ida  
 Bir bor ko'rsam, dedim, seni Ozodlik.  
 Sevgimday sevimlim, sirim, Ozodlik!

6

Yurak saharida ko'rinish berding,  
 Quyosh arzandas, ko'ngil hulkari.  
 Keksaygan otamday men sari yurding,  
 Non reza bolamday kelding men sari.  
 Insonlik istarman hayot bog'ida,  
 Insonlik, Vatanlik, Xalqlik, Obodlik.

Yuragimning rangin chimildig'iда  
Mangu ko'rsam deyman seni, Ozodlik.  
Sevgimday sevimlim, sirim, Ozodlik.  
1998

## Mangu Yurt

Iloh manglayingdan o'pgan xoynahoy,  
Senga kamalakdan ipak halinchak.  
Boshingda sollanib turar o'ttiz oy,  
Hazrati Xizrni ko'rgan kelinchak.  
Rahmat nurin sochar Malik Yavmuddin,  
Zulfingni taraydi o'ttizta hilol.  
Va o'ttiz beshikda diyonat va din,  
Sen-da, o'ttiz hurni ulg'aytgan ayol.  
Qoshingdan izma-iz avlodlar o'tar,  
Bu qanday viqordir, qanday oroyish?...  
Boshdan oyog'ingga gul sochib ketar,  
Yuraklar boshlagan buyuk namoyish.  
Bilmasman, og'angmi ulug' Muhammad,  
Quyosh parchalari qaytmishdir yana.  
Yuraging - erk qushi, ruhing - haqiqat,  
Sen-da, o'ttiz hurni ulg'aytgan ona.  
Iloh manglayingdan o'pgan hoynahoy...  
1994

## Hurriyat

Tol beshikka gulday tayangan, singlim,  
Sahar-sahar qushday o'yongan, singlim.  
O'ng tizzangga ul olib suyar bo'lding,  
Chap tizzangga qiz olib suyar bo'lding.  
Tol beshikka to'danalar taqasan,  
Tov boshidan sochalalar sochasan.  
Uy to'riga uling qulluq bo'lsin-a,  
Dil to'riga qizing qulluq bo'lsin-a.  
Qo'sh beshikka egiz qamar belangan,  
Beshik bog'i osmonlarga ulangan.  
Ot boshida dardim bor, aytib o'tay,  
Eldan niyat qarzim bor, aytib o'tay:  
Xudo qabul qilsin, xush niyat bo'lsin,  
Bolangga bosh davlat Hurriyat bo'lsin.  
1998

\* \* \*

Goh g'amgin, goh shodmon o'tmog'da umrim,  
Azal sahosida yillar yeladi.  
Dayri fano sari ketmog'da umrim,  
Mening gullar sari borgim keladi.  
Sumanlar, suluvlar sururdan so'ylar,  
Mening har holimga falak kuladi.  
Umrim oxiratning haddini bo'ylar,  
Mening gullar sari borgim keladi.  
Yetimga yetarmi yetti himmatim,  
Dunyo kimdan o'tib, kimga qoladi?  
Hurlar sari ketar beldan quvvatim,  
Mening gullar sari borgim keladi.  
Sut va so'z qarzim bor hayot - onadan,  
Vaqt-bevaqt ko'zimga yoshlari to'ladi.  
Elchi shamol keldi baytul fanodan,  
Mening gullar sari borgim keladi.  
Bemor kuz qiziday o'tmog'da umrim,  
Mensiz ham kun kulib, oylar to'ladi.  
Fasli xazon sari ketmog'da umrim,

Mening gullar sari borgim keladi.  
1994

### Lahzaning Umri

Payg'ambar eshigin taqillatgan men,  
Shaytonni o'ttiz yil laqillatgan men,  
Qo'ynida hurlarni so'lqillatgan men,  
Sen axir nimasan? Nimasan, o'lim.  
Qilko'prik ustidan o'ynab o'tgan men,  
Bir hurga yetmish xil yurak otgan men,  
Yetimga  
Yetti qobirg'amdan tirkak tutgan men,  
Sen axir nimasan? Nimasan, o'lim.  
Og'zidan yuz bulbul uchirolgan men,  
Isoni Ka'baga ko'chirolgan men,  
Ko'nglini xudoga ichirolgan men,  
Men kimman. Sen esa, Nimasan, o'lim

Xachir Va Taqdir O'yini  
(bobolar uslubida)

Adir so'qmog'ida bir kun xachirga  
Nasib etdi duch kelmoklik Taqdirga.  
Taqdir bildi: xachir ahvoli yomon,  
Ko'nglida betayin onadan gumon.  
Xudodan norozi, eldan norozi,  
Haqqidan urgan mish rizqda tarozi.  
Azalning kotibi qalam surganda,  
Qorni damlab turgan unga kelganda.  
Tuxumga kirar chog', sayrab bemahal,  
Kamoliga xo'roz bergan mish xalal.  
Homilada shaklin topganda yangi,  
Onasin aynitmish buzuq bir hangi.  
Ne-ne umid bilan bo'lganda bino,  
Padari buzrugin chalg'it mish zino.  
Hullas, xachir holin qora qilmishlar  
O'zidan avvalroq yaratilmishlar.  
Yo'qsa, dovrug' solib olamga bot-bot,  
Ne-ne tulporlarni etmasmidi mot.  
Takdir dedi: "Eh, bechora xachirvoy,  
Arosatda kechgan ahvolingga voy.  
Biroz qaribmanmi, yumshadi ko'nglim,  
Bir tomonim hayot, birisi o'lim.  
Ikkisini sira kelishirolmay,  
Charchadim, fikrimni yig'ishtirolmay.  
Toliqtirar ekan erta-kech bir ish:  
Dunyoning soch ila soqolin qirish.  
Bugun bir o'yinga maylim bor mening,  
Mayli, qismatingni yangilay sening.  
Niyatingni so'yla, etayin ado,  
Istagan suratda bo'lursan paydo".  
Xachir tulpordayin kerdi oyog'in,  
Tikraytdi eshakdan meros qulog'in.  
Shunda yoqimsiz sas yangrab yubordi.  
Xachirvoy shodlikdan hangrab yubordi.  
Xirqiroq tovushi quloqni yedi,  
Xachirvoy qiyshanglab Taqdirga dedi:  
"Bobo, kam bo'lmasin sira davlatning,  
Menga ato etgin otning savlatin.  
Shoyad, bir hamlamdan bo'lajakdir mot,  
Qirchang'i Boychibor, o'laksa G'irot".  
Taqdir unga himmat nazarin soldi,  
Shu dam xachir otlik maqomin oldi.  
Egnida egar-la gijinglab beor,  
Savlatin saylatdi bozorma-bozor.  
Oxir bir uyurga qo'shdilar uni,

Xachirvoy unutdi xachirligini.  
 Uyurda otlarga bermay qo'ydi gap,  
 O'zining nasli-yu, nasabin maqtab.  
 Tumshug'in ko'tarib tinmay kishnardi,  
 Hatto egasin ham itday tishlardi.  
 Zotdan o'zib qayga borardi axir,  
 Suratda ot esa, tiynatda xachir.  
 Uni ko'pkariga soldilar bir kun,  
 Or talashib ko'rsin, ot bo'lsa deb, chin.  
 Shunda ko'ring sho'rlik sharmandaholni,  
 Farqlay olmay qoldi dum va soqolni.  
 Har qadamda oqsab, surinar edi,  
 Ketidan yel chiqib chirana edi.  
 El esa, ustidan kular edi boz,  
 Qaydan keldi deya, ot-masxaraboz.  
 So'ng uyatga qo'yib otlar qavmini,  
 Bahona qildi u arpa unini.  
 Yana har ne yumush berib ko'rdilar,  
 Oqibatin faqat firib ko'rdilar.  
 Gar qo'shilsa xachir otga aroba,  
 Bunday arobaning holi xaroba.  
 Zero, uch kun o'tmay buzilib, sinib,  
 Qolarda o'choqqa o'tinga do'nib.  
 Xachir-otda tortilsa gar moyjuvoz,  
 Moy o'rniga chiqarardi loy biroz.  
 Oxir uni yaramas deb bildilar,  
 Go'shtga topshirishga qaror qildilar.  
 Xachir holni bilib qochdi adirga,  
 Yalinib-yolbordi yana Takdirga:  
 "Bobo, ximmatingga ming bora qulluq,  
 Otning nomi ulug', suprasi quruq.  
 Bekorga otlikni qilibman havas,  
 Men quruq sha'n uchun zormanda emas.  
 Hukming birla omad kelaveradi,  
 Menga eshaklik ham bo'laveradi.  
 Kichikroq xizmatlik, ko'proq xashaklik,  
 Kattaroq orsizlik - shu-da, eshaklik".  
 Taqdir yana himmat nazarin soldi,  
 Xachirvoy eshakka aylanib koldi.  
 Fahmsizlik birla chiqardi otin,  
 Dum ostidan to'kib or va uyotin.  
 Har bir ishi noma'quldan nama'qul,  
 Xachir eshak bo'lmay, bo'ldi Ta'maqul.  
 Yuk tashishga qo'ysalar o'zi bir yuk,  
 Uch qadam yurmay ag'nar go'yo o'luk.  
 Suv tashishga qo'ysalar g'irrom etar,  
 Ichi o'tib, idishni harom etar.  
 Eldan nolib, bosh yana sarak-sarak,  
 Oyoq suyuq, ko'z esa, olazarak.  
 Bet qolmadi, bor qadrin yelga sepdi,  
 Semirib ketgan so'ng egasin tepdi.  
 Bunday eshak ko'rmagan hamon-hamon,  
 Na g'ayr eli, na-da ahli musulmon.  
 Biyday cho'lga eshakni quvladilar,  
 "Xizmati"ni xivich bilan siyladilar.  
 Kimsasiz sahroda yana xachirga  
 Nasib etdi duch kelmoklik Takdirga.  
 Qora qilmishlarin xo'p oqlar edi,  
 Oyoqlarin kerib xachirvoy dedi:  
 "Bobo, meni kechir, aybdorman beshak,  
 Menga nomunosib na ot, na eshak.  
 Qadrim bilmadilar ikki holda ham,  
 Bir gala fahmsiz, bir to'p muttaham.  
 Angladim, Takdirning benazir baxshi  
 Xachirlilik ekanin, xachirlilik yaxshi.  
 Bobo, o'z holimga qaytargin meni,  
 Olqishlab o'tayin bir umr seni".  
 Taqdir didi: "Eh, bechora xachirvoy,

O'yinim so'ngiga yetdi hoynahoy.  
 Senga bag'ishladim otning savlatin,  
 O'zgartirolmadim biroq siyrating.  
 Surating turfa xil shaklni oldi,  
 Ichingda xachirlik tiynati qoldi.  
 Zohiring yangilash mening xohishim,  
 Botining tozalash o'zingning ishing".  
 Taqdir shunday deya bir imo qildi,  
 Xachirvoy avvalgi holiga keldi.  
 Surat ham siyрати moslashdi beshak,  
 Sho'rlik xachir na ot bo'ldi, na eshak.  
 2002

## Tabassum Xotirasi

O'n besh yil muqaddam men sizni ko'rdim  
 Porloq lahzalarda chaqnadi ko'ngil.  
 Sizning chehrangizda bitta tabassum  
 Qalbimni yetaklab yurdi o'n besh yil.  
 Meni kechirgaysiz tuyg'ular uchun,  
 Hayajonlar haqqi meni kechiring.  
 Yuragim adashgan xayolday uchib,  
 Sizning poyingizga borar yashirin.  
 Sirlashgim keladi siz bilan tunlar,  
 Yurak-yuragimni oolib tashlasam.  
 O'n besh yil avvalgi xush tabassumlar  
 Og'ushida yana yashay boshlasam.  
 Parishon kechalarda shudringlar kechib,  
 Siz, men va muhabbat yashay boshlasak,  
 Yulduzlarning zarhal nurlarin ichib.  
 Dunyoda alamlar, shodliklar o'tar,  
 Ming xil chig'irig'in pesh qilar hayot,  
 Shudringzor dalada bizlarni kutar  
 Yolg'iz bir muhabbat - mazlum e'tiqod.  
 Ming kecha Shahrizod ertagin tinglab  
 Xayol qanotlarin tikdim niyatdan.  
 Sizning chehrangizda o'sha tabassum,  
 Men uchun yuksakdir abadiyatdan.  
 Meni kechirgaysiz tuyg'ular uchun...  
 2002

## She'r Odamlari

Inson tuyg'ulari qariydimi hech,  
 Bargrezon qoplarmi gul tuyg'ularni?  
 Sizga gulzorlarim ochaman bu kech, -  
 Hasratim, sevinchim... va qayg'ularni.  
 Shabiston, nuriston oralig'ida  
 Shabnamday titranar dunyoi qadim.  
 Sohir kavkabiston chimildig'ida  
 Sizga yuragimni ochmoq istadim,  
 Sizga yuragimni ochmoq istadim.  
 Men axir o'zgacha anglayman Sizni,  
 Siz tuyg'u elchisi, sevgi odami.  
 Qirq yil sayr etibman yuragingizni,  
 Orzular vatani, mehr olami...  
 G'oyib daryolarni men Sizdan topdim,  
 Kuylovchi tog'larni Sizdan izladim.  
 Oy musiqa sochgan oydin kechada,  
 Sizga yuragimni ochmoq istadim,  
 Sizga yuragimni ochmoq istadim.  
 Shu tog'lar, daryolar men uchun yetar,  
 Manglayim silaydi momo oftobim.  
 Qo'nglimda begunoh daraxtlar o'sar,  
 Shularning barchasi mening kitobim.  
 Ajab saodatlari tunlar bag'rida

This is not registered version of TotalDocConverter

Ko'ngila yuragimni ochmoq istadim.

Hayot gullayotgan mehr bog'ida

Sizga yuragimni ochmoq istadim,

Sizga yuragimni ochmoq istadim.

2002

Б†‘ вЂњSulbbЂќ mustahkam, qattiq ma'nosida.

Б†‘ Charnovuq - qadimda tishni sug'uradigan asbobni shunday atashgan.

Б†‘ Potini qo'yish - bolalar o'yini. O'yinga qo'shilgan bolalarning hammasi bir so'z ham aytmay, og'zini yumib o'tirishlari shart. O'yinning sharti jimlik va gunglik xuddi turg'unlik zamonidagiday

Б†‘ Mehrjon kuni - qadimiy bayram.

Б†‘ Ajfarnuy, Muzdoxun - Buxorodagi qadimiy ziyyaratgoxlar.

Б†‘ Ajfarnuy, Muzdoxun - Buxorodagi qadimiy ziyyaratgoxlar.